

E.Y. SAITOVA, N.E. ABRAYKULOVA

XOREOGRAFIYA VA RAQS SAN'ATI ASOSLARI



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

E.Y.SAITOVA, N.E.ABRAYKULOVA

**XOREOGRAFIYA
VA RAQS SAN'ATI
ASOSLARI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi tomonidan 5150200 – «San'atshunoslik (teatrshunoslik)» yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universitet

374535

Axborot Resurs Markazi

TOSHKENT – 2015

UO‘K: 793.3 (09) (075)

KBK 85.32

S-21

S-21 E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 128 bet.

ISBN 978–9943–998–16–2

«Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari» nomli darslik san‘at va madaniyat instituti talabalari uchun mo‘ljallangan. Unda xoreografiya va raqs san‘ati asoslarini o‘rgatuvchi barcha fanlar yoritib berilgan. Xoreografiya va raqs san‘ati asoslari, tarixi, xususiyatlari, qonuniyatlari kabilarga batafsil to‘xtalangan. Negaki bo‘lajak san‘atshunos, teatrshunoslar xoreografiya va raqs san‘ati nazariyasini bilishlari kerak hamda klassik va milliy raqslarni ijro eta olishlari zarur. Shu bilan birga, har bir millat xarakteri va davr etikasi, madaniyati, raqs liboslari va bezaklarini bir-biridan ajrata olish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli, darslikda xoreografiya va raqs san‘atini batafsil o‘rgatishga harakat qilindi. Darslikdan barcha qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 793.3 (09) (075)

KBK 85.32

Taqrizchilar:

A.F.Ismoilov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor;

L.T. Xasanova – dotsent.

ISBN 978–9943–998–16–2

KIRISH

Oliy ta'limning davlat standartlariga asosan «Xoreografiya va raqs san'ati asoslari» fani bakalavriatning 5150200 – «San'atshunoslik (teatrshunoslik)» ta'lim yo'nalishida «Umumkasbiy fanlar» blokida o'qitiladi.

Ushbu fanni o'qitish jarayonida talabalarga xoreografiya san'ati asoslari, fanni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari (ma'ruza, amaliy, seminar), klassik xoreografiya, xalq sahna raqslari va xalq ijodiyoti yo'nalishlar tushunchasi, uning jamiyatimiz madaniy hayotidagi o'rni, raqs san'ati turlari va funksiyalari (xoreografik studiyalar, madaniyat markazlari, davlat va xususiy professional raqs ansambllari, havaskorlik raqs guruhlari), ijodiy jamoalar va birlashmalar (O'zbekraqs), o'quv yurtlari faoliyatlari, xoreografiya xizmati turlari (konsertlar, gostrollar), zamonaviy sharoitlarda xoreografiyaning o'rni (ommaviy bayramlar, tadbirlar, festivallar, tanlovlar), tomoshabinlarni axborot bilan ta'minlash usullari (OAV orqali), turli badiiy-ijodiy jamoalarning o'zaro hamkorligida madaniy xizmat samaradorligi hamda ilmiy-tadqiqot institutida soha tadqiqotchilarining zamonaviy va ilg'or texnologiyaga asoslangan ilmiy izlanish tizimlarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida madaniyat va san'at taraqqiyoti oliy ta'lim tizimini jahon andozalarini hisobga olgan holda takomillashtirish masalalarini ilgari surmoqda. Bugungi kunda oldimizda jahon fani va madaniyatining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, inson aql-zakovati yaratgan boyliklaridan bahramand bo'lgan yangi avlodni shakllantirish vazifasi turibdi. Faqat shu asosdagina millatning taraqqiyot sari intilishini ta'minlovchi intellektual kuchni vujudga keltirish mumkin.

Xoreografiya va milliy raqsning ilmiy asoslarini o'rganish, tavsiflash va ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi mutaxassislar tayyorlash uchun «San'atshunos-xoreograf» ta'lim yo'nalishida talabalar tahsil olmoqdalar. Ularni ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishning samarali metodlaridan foydalanishga o'rgatish asosiy vazifalar etib belgilangan. Prezident I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat-yengilmas

kuch» nomli asarida: «San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi», deb ta'kidlab o'tganlar.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ortib borgani sari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga ham tobora jiddiy va mas'uliyat bilan yondoshish talab etilmoqda.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi san'ati sifatida, o'zbek xalqining ma'naviy boyliklari chashmasi sifatida O'zbekiston xalq artistlari, jahonga dong'i ketgan ustoz san'atkorlar Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilov, Roziya Karimova va shu kabi boshqa buyuk namoyondalarga boy o'zbek xalq raqs san'atiga bo'lgan qiziqish g'oyat katta. Milliy ma'naviy qadriyatlarni va go'zalligini anglash o'zbek xalqining ma'naviy boyligini oshiradi va yosh avlodni nafaqat yaxshi tarbiyalab qolmasdan, o'z Vataniga, uning meroslariga muhabbat ham uyg'otadi. Raqs san'ati sohasida yildan-yilga ilmiy bilimlarning to'planib borishi, ta'lim maqsadi, mazmunini va uslublarini ilmiy asoslash, bilimli, izlanuvchan, tadqiqotchi san'atshunoslarni tayyorlash zaminida xoreografiyaning muhim tarmog'i bo'lgan «Xoreografiya va raqs san'ati asoslari» fani bo'yicha darslik yaratish zarurati tug'iladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilg'or pedagogik tajribalardan hamda zamonaviy talim texnologiyalaridan foydalangan holda bilimlarini oshirish, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Hozirgi kunda Oliy ta'limning boshqa soha va yo'nalishlari qatorida xoreografiya va raqs asoslari fanini o'qitishning ham ilg'or texnologiyalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Darslikning **Xoreografiya va raqs asoslari haqida umumiy tushunchalar deb nomlangan birinchi bobida** xoreografiya – san’at sohasi ekanligi hamda Yevropa klassik xoreografiyasining asoslari to’la ochib beriladi.

Amaliy qism. Raqs san’atini o’qitishning asosiy predmetlari bobida esa, xoreografiyaga tegishli barcha o’quv fanlari (Mumtoz raqs, Jahon xalq raqslari, Tarixiy-maishiy raqslar, O’zbek raqsi, Raqsni sahnalashtirish)ni o’qitish metodikasi, stanok oldidagi mashqlar, zal o’rtasidagi etyud ishlarini o’rganish va ijro etish metodikasi, raqs turlari, yo’nalishlari va raqs janrlari haqida tushunchalar berilib, misollar tariqasida yetuk baletmeysterlarning ijodiy faoliyatlari berilgan.

Bundan tashqari obraz tushunchasi, obraz ustida ishlash jarayoni, raqqosaning o’z ustida ishlashi, obraz yaratishda mavzu va musiqa san’atining o’rni, raqs ustida ishlashning o’ziga xosligi kabi masalalar yoritilgan.

Raqs san’atining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar bobida xalq ijodiyoti va folklor-etnografik ansambllar ijodiy faoliyatida raqs san’atining o’rni haqida, ilg’or texnologiyalarning ilmiy va uslubiy yutuqlari, talabalarni yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ilmiy-amaliy nazariyalar asosida tayyorlash, xoreografiya va raqs asoslari fanini o’qitishning zamonaviy talablari haqida so’z yuritilgan. Xoreografiya va raqs san’ati ta’limida «Ustoz-shogird» an’analari mavzusida bu an’ananing asl maqsadi va vazifalari, bu boradagi erishilgan yutuqlar tahlil qilingan.

I bob. NAZARIY QISM. XOREOGRAFIYA SAN'ATI ASOSLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

«Ilm egallang! Ilm–sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida yo‘ldosh, bahtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda hamdard, odamlar orasida-zebu-ziynatdir».

Hadisdan.

1.1. Xoreografiya – san‘at sohasi sifatida

Reja:

1. «Xoreografiya» so‘zi tushunchasi.
2. Raqs san‘atining paydo bo‘lishi.

1. «Xoreografiya» so‘zi tushunchasi

Har bir san‘at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etadi. Shu qatorda raqs ham san‘at turlari ichida kishilik jamiyati rivojida alohida o‘rin tutuvchi bir yo‘nalishdir. Raqs san‘ati – ijod ruhiyatini, his-tuyg‘ularni, fikrni so‘zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetkazishga asoslangan san‘at turidir.

«Raqs – o‘zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho‘ng‘ib ketmoq;

Ko‘ngildagi bor-yo‘g‘ingni ko‘zlarga, harakatlarga joylab tomoshabinlarga hayrat ato etmoq;

Istaklaringni bir dasta gul shaklida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning olqishiga muyassar bo‘lmoq».

Bunday buyuk tuyg‘u mukammal raqs qobiliyatiga ega bo‘lgan insonlarning yuragida bo‘ladi.

«Xoreografiya» – o‘zi nima? Bu so‘z zamirida nima yotibdi?

U grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, «choreia» – o‘yin, «grapho» – yozaman, ya‘ni so‘zma-so‘z tarjima qilinganda «Raqsni yozaman», degan ma‘noni bildiradi.

Ko'pchilik esa xoreografiyani raqs deb tushunadi. Lekin xoreografiya so'zi keng ma'noni o'z ichiga oladi. Fan sifatida rivojlanib bu atama ikki turda tavsiflandi:

1. Raqs ijrochiligi – professional raqs ijrochiligi, xalq ijodiyoti negizidagi havaskorlik raqs ijrochiligi.

Professional raqs ansambllarining davlat va xususiy ansambllari mavjud. «Bahor» (1957-yil), «Shodlik» (1968-yil), «Lazgi» (1968-yil) ansambllari ilk tashkil qilingan professional raqs ansambllaridan hisoblanadi.

1990-yillarda «Tanovar», «Ofarin», «Toshkent zebolari», «Sabo», «Tumor», «Parizoda» va shu kabi xususiy raqs ansambllari paydo bo'ldi. Unga shu yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim tizimida o'qib fundamental bilimga ega bo'lgan mutaxassislar ishga qabul qilinadilar. Ular ansambl rahbariyati bilan mehnat shartnomasini tuzadi va oylik maoshi bilan ta'minlanadilar. Shartnomada keltirilgan talablar bir tomondan buzilishiga yo'l qo'yilsa, ikkinchi tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi. Raqqos va raqqosalarning yoshi chegaralanadi. 18 yoshdan ishga qabul qilinib, 36 yoshdan keyin nafaqaga chiqadilar. Ijodiy faoliyatiga qarab raqqos va raqqosalar ansambl rahbariyati yoki davlat tomonidan rag'batlantirilishi mumkin.

Havaskorlik raqs ansambllari madaniyat va san'at muassasalarida, tashkilot yoki korxonalar qoshida alohida raqs ansambli, xalq ashula va raqs ansambllari yoki folklor-etnografik ansambllar tasarrufida bo'ladi. Bunday ansambllar raqs san'atiga ishtiyoqi baland bo'lgan, iqtidorli havaskorlardan tashkil topadi. Ularning mutaxassisligi, ma'lumoti va yoshi chegaralanmaydi. Ansambl ishtirokchilari rahbariyat yoki davlat tomonidan ishga qabul qilinmaydilar va ixtiyoriy tarzda qatnashchi sifatida faoliyat olib boradilar. Hozirgi kunda juda ko'plab bolalar va kattalar havaskorlik raqs ansambllari ijodiy faoliyatini olib bormoqdalar. Bunday ansambllar qatoriga Farg'onadagi «Anor», Surxondaryodagi «Surxon gullari», «Zevari», «Quralay», Namangandagi «Namangan gullari», Jizzaxning «Gulira'no», Sirdaryoning «Sirdaryo navolari» kabi ansambllar nomini keltirishimiz mumkin.

Raqs ijrochiligi 3 turga bo'linadi: Yevropa klassik balet san'ati, xalq sahna (professional) raqs san'ati, xalq ijodiyoti negizidagi folklor va havaskorlik raqs ijrochiligi san'atidir.

Inson raqsnining qaysi turi bilan shug'ullanmasin, unga mumtoz raqs asoslarini o'zlashtirish halal bermaydi. Raqqos va raqqosalar butun ijodiy faoliyati davomida mumtoz raqs bilan shug'ullanishi bejiz emas. Mumtoz raqs asoslari borliqni harakat orqali tasvirlash erkinligini va o'z tanasini musiqaning ma'lum bir o'lchovlarida nazokatli harakatlantira olish imkonini beradi.

Xo'sh, «Balet san'ati qachon va qanday paydo bo'ldi?», degan savol tug'iladi.

Balet Italiyada Uyg'onish davrida yuzaga keldi. Unga an'anaviy madaniyat, antik raqs va pantomimalar asos bo'ldi. XVI asrdan boshlab raqsnining balet janri gurkirab rivojlanadi. Musiqa, adabiyot, rassomchilik va arxitekturaning olg'a qadamlar bilan rivojlanishi san'at va musiqa daholarini paydo qildi. Motsart, Mikelandjelo, Leonardo da Vinchi, Molyer, Pyorsell, Bax, Gaydn, Vivaldi, Rembrandt - shular jumlasidandir. Venitsiya va Fransiyada raqsga bag'ishlangan maxsus kitoblar chop etila boshladi. Saroy raqs sahnalashtiruvchilarining «Raqsga tushish san'ati va xorlarni olib borish» (XIV asr), «Raqsga haqida risola» (1463-yil), «Raqsga tushish san'ati haqida kitob» (1465-yil), «Raqqos» (1581-yil), «Sevgi sahovatlari» (1602-yil) kabi ilmiy ishlari chop etilgan.

XVI asr ohiri va XVII asr boshlarida italyan kompozitorlari va tansmeysterlari Fransiyaga ishga taklif etiladilar. Fransiyada shakllangan yangi balet butun Yevropaga tarqaldi. Vertis, Mariya Talyoni, Andjolini, Pallerini kabi yetakchi baletmeysterlarning ijodi gurkirab yashadi. Italiyaning ko'zga ko'ringan Rim, Milan, Neapol, Florensiya, Venetsiya kabi shaharlarida opera teatrlari ochildi. Milanda «La - Skala» teatri qoshida raqs maktab ochildi. Enriko Cheketti tomonidan bu maktab yanada jonlandi. E.Chekettidan yetakchi rus balet artistlaridan A.Pavlova, V.Nijinskiy, T.Krasavinalar ta'lim olgan. 1928-yilda esa Rimning opera teatri qoshida balet maktabi tuzildi. 1960-yilda «Milliy raqs akademiyasi» Ye.Vorosenko tomonidan boshqarila boshlandi. Alohida sahna asarlari uchun jamoalar o'z faoliyatini boshladilar. Nervida halqaro balet festivali, «Florensiya musiqali may» festivali, Venetsiyada «Zamonaviy musiqa» festivali, Spoleta va Verona festivallari bo'lib o'tdi. Fransiya raqs akademiyasida yangi sahnaviy san'at janri - «Komediya-balet»ga asos solindi. Komediya-baletni asoschisi fransuz dramaturgi Jan Batist Molyer (1622-1673) bo'lgan. J.B.Molyer nafaqat yirik dramaturg,

balki dramatik asarlarda mohir aktyor va raqqos vazifasini o'tagan. Spektakllarga shu davrining eng yirik kompozitori Jan Batista Lyulli (1632–1687) musiqa bastalagan.

Rossiyada XVII asrda balet saroy teatri sifatida shakllana boshlandi. Caroyda raqs tomoshalari maxsus tayyorgarlik ko'rgan musiqachilar orkestri bilan ijro etila boshlagan. Uyg'onish davrida saroylarda ijro etiladigan raqslar – sarabanda, pavana, menuet shular jumlasidandir.

XVIII asrda balet postanovkalari va balet aktyorlari ta'lim ola boshladi.

Ma'rifat davrida «Balet» teatr sahnasida mustaqil san'at janri sifatida joy oldi. Nafaqat balet balki san'atning barcha turi: haykaltaroshlik, rassomchilik, arxitektura, adabiyot, musiqaga o'z ta'siri o'tkazmay qolmadi. Romantizm davrining daholari: Shuman, Shubert, Mendelson, Chaykovskiy, Skryabin, Shopen ulkan ijodiy ishlarni amalga oshirdi. Romantizm – yetakchi oqim hisoblanadi. Romantizm obrazlarini yanada yorqinroq ko'rsatish uchun balerina – raqossalar maxsus (oyoqqa kiyadigan) puantilarga ko'tarildilar. XIX asrning ikkinchi yarmi rus baleti tarixida Marius Ivanovich Petipa (1822–1900) davri hisoblanadi. U Peterburg teatrida ko'p yillik ijodiy faoliyati davomida rus kompozitorlari va rassomlari bilan hamkorlikda baletlar sahnalashtirdi. 1860-yilning oxirlarida Minkus musiqasiga «Don Kixot» baletini sahnalashtirdi. 1862-yilda sahnalashtirgan «Fir'avn qizi» baleti uning yirik baletidir. M.I. Petipa ijodining ikkinchi davri XIX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Jahon balet san'atining gurkirab rivojlanishi buyuk rus kompozitori P.I.Chaykovskiyning ijodi bilan chambarchas bog'langan. P.I.Chaykovskiyning baletmeyster M.I. Petipa sahnalashtirgan buyuk «Uyqudagi go'zal» baleti rus klassik baletining tantanasiga aylandi. Bundan tashqari «Oqqushlar ko'li», «Shelkunchik» kabi baletlari ham katta muvoffaqiyat qozondi hamda rus va jahon musiqa madaniyati tarixida muhim voqeaga aylandi.

XX asr boshlariga kelib Yevropa balet san'ati inqrozga uchrab kelmoqda edi. Lekin Yevropa baletiga qaraganda ko'proq rivojlangan yosh rus baleti jahon balet san'atiga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Peterburg va Moskva balet maktablarida ta'lim olgan buyuk rus raqqos va raqqosalari jahon balet sahnasini egalladilar. Bular, Vatslav Fomich Nijinskiy (1890–1950), Mixail Mixaylovich Fokin (1880–

1942) va uning turmush o'rtog'i Vera Petrovna Fokina (Antonova), Anna Matveyevna Pavlova (1881–1931), Tamara Platonovna Karsavina, Marius Ivanovich Petipalar bo'ldilar. Rus baletining jahon miqyosida muvaffaqiyat qozonishida rus metsenati Sergey Pavlovich Dyagilev (1872–1929) tomonidan 1907–1929-yillarda uyushtirilgan va Parijda o'tkazilgan «Rus sezonlari» diqqatga sazovordir. Baletmeyster M. Fokin tomonidan sahnalashtirilgan «Shopeniana», Petrushina «Jar ptitsa», «O'layotgan oq qush» baletlari Parijda katta muvaffaqiyat va olqishlarga sazovor bo'ldi. Hozirgi kunlarda ham «Oqqush ko'li», «O'layotgan oq qush» baleti jahon balet teatrlarining sahnasidan tushmay kelyapdi. A.Gorskiy, V.Tixomirov, YE. Gelser, F.Lopuxov, L.Leontyev, A.Vaganova kabi balet arboblari balet maktabini saqlab, uni rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Galina Ulanova ijodida dramatik tuyg'ular yorqin ifodalandi. Rus baletida raqqoslar I.Chebukiani, T.Vecheslova, N.Dudinskaya, K.Sergeyev, O. Lepeshinskaya, V.Vasilyev, Ye.Maksimova, Y.Solovyev N.Bessmertnova kabi yangi nomlar paydo bo'ldi. Ular klassik an'analarga sodiq qolib ijodiy parvoz qildilar. 1968-yilda sahnalashtirilgan «Spartak» baletining madaniy hodisaga aylangani va 1975-yilda sahnalashtirilgan «Ivan Grozniy» baletining simfoniya darajasiga ko'tarilgani buning isbotidir.

2. Raqs san'ati ta'limi – amaliy va nazariy bilimlar, ilmiy-tadqiqot ishlari. Maktabdan tashqari ta'limga kiruvchi musiqa va san'at maktablari, umumiy va o'rta maxsus ta'limga kiruvchi litsey va kollejlarda, oliy ta'limga kiruvchi bakalavr va magistratura, oliy ta'limdan keyingi doktorantura ta'limi, pedagog kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi. Raqs san'ati ta'limi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan davlat ta'lim standartlari asosida namunaviy va ishchi fan dasturlari, namunaviy va ishchi o'quv rejalariga mos olib boriladi. Raqs san'ati ta'limi uzluksiz ta'lim tizimida shakllangan bo'lib, unda xoreografiyaga tegishli barcha amaliy va nazariy fanlar o'qitiladi. Bular «Klassik raqs», «Milliy raqs», «Jahon xalqlari raqslari», «Tarixiy-maishiy raqslar», «Zamonaviy raqslar», «Raqs san'ati tarixi», «Raqlarni sahnalashtirish» kabi shunga o'xshash mutaxassislik fanlaridir. Ushbu fanlarning har-biri o'zining talablariga qarab turli musiqa cholg'ulari jo'navozligida o'qitiladi.

Davlatimiz va horijiy davlatlarning soha mutaxassisleri tomonidan o'quv adabiyotlar nashr ettirildi. Yillar davomida yanada takomillashib, ularning yangi avlodlari nashr ettirilmoqda. Bu bilan amaliy va nazariy bilimlar uyg'unligiga erishilmoqda.

2. Raqs san'atining paydo bo'lishi

Raqs – insoniyat paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan va san'atning eng qadimgi, keng tarqalgan va ommabop turlariga kiradi. Qadimdan inson hayotining muhim jabhalarida raqs alohida o'rin tutgan. Ibtidoiy davrda insonlar tomonidan tabiat hodisalari (quyosh, suv, olov bilan bog'liq) turli afsonaviy ko'rinishlarda tushunilgan. Tabiat mo'jizalari insonlarga yaxshilik yoki yomonlik keltiruvchi kuch sifatida tasavvur qilingan. «Avesto», afsona hamda bitiklarda tabiat mo'jizalari jonli timsollarda tasvirlangani va ular pantomimaraqs shaklida ijro etilgani haqida aytib o'tilgan. Insonlarning mehnat jarayonlari, hayvonlarning harakatlari, afsonaviy xarakterdagi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi raqslarni ijro etishgan. Bunda tabiat kuchiga tayanganlar. Ular o'z fikrlarini bayon eta olmay omadli ov bo'lishini so'rab yalinishgan, yomg'ir yog'ishini, farzand ato etishini iltijo etganlar. Hozirgi davrgacha dunyoning ba'zi bir joylarida, masalan, Afrikada shunday raqsar saqlanib qolgan. Folklorshunoslar, sayohatchilar yozib qoldirganlari o'sha davrdagi xalqning yashash tarzi, urfodatlar, aqidalari haqida so'zlaydi.

Olov oldida jamoa bo'lib raqs tushishlar, insoniyat tarixining ibtidoiy jamoa davridagi tosh bitiklariga chizilgan rasmlardan ko'rsak bo'ladi.

Qadimgi dunyo va antik davr raqslari hozirgi zamon raqslaridan ancha farqlangan. Bular : harbiy, marosimiy, xalq sayllari, to'ylardir. Raqsga tushayotgan ijrochi musiqa ritmini oyoq va qo'llari bilan jonlantirgan. Keyinroq esa maxsus yog'och sandaletlar, kastanetlar, zarbli urma va torli musiqa asboblardan foydalana boshlashgan.

Rim imperiyasining inqiroz davrida raqsga bo'lgan qiziqish so'ngan. Lekin O'rta asrlarga kelib raqs bayram, komediya tomoshalari, ko'cha teatrlarining markazidan joy oldi. Raqslarning maqsadi bayram tomoshalariga kelgan mehmonlarni hushnud qilmoq bo'lgan. Yangi maishiy raqsar paydo bo'la boshladi va ular cekin-asta qirollar va oqsuyaklar saroyiga ko'chib, yangi ko'rinishiga ega bo'ldi.

Endi raqs ashula va deklamatsiya, pantomima elementlari bilan boyidi.

Sharq raqs san'ati V, VI, VII asrlarda rivojlandi. Hindiston va Hitoyda pantomima tomoshalarining bir qismi blib qoldi. Unda raqs folklorining xarakterli chiziq-lari o'z aksini topdi. Hindistonda klassik raqs san'atning boshqa turlari, ya'ni musiqa, qo'shiqchilik, she'riyat va teatr bilan bog'liq holda rivojlangan. Hind klassik raqsi eramizning birinchi asridayoq rivojlangan. Hind klassik raqsi to'rtta alohida yo'nalishlariga ega. Bular «Bxarata Natya», «Katkakali», «Katkak», «Manipuri»lardir. Asrlar davomida yaxshi saqlanib qolingan «Bxarata Natya»- janubiy Hindistonning Madras va Maysor o'lkalari raqsidir. Uni hind donishmandi Bxarat ikki yuz yil oldin «Bxarata Natya shastra» asarida yozib qoldirgan. Ushbu raqs an'alarini XVIII asrdan buyon Pillaylar avlodi saqlab kelgan. Ulardan biri Minakshi Sundaram Pillaydir. Bu raqs bir necha qismdan iborat. «Jatxisvaram» qismida sozanda baraban sozida bergan murakkab ritmik usullariga raqqosa oyog'iga taqilgan qo'ng'iroqchalarning ovozi bilan jo'r bo'ladi. «Charanam», «Padam» va «Varna» qismlari sevgi - muhabbat haqidagi qo'shiqlar orqali ijro etilib, uning ma'nosi mimika va imo-ishoralar bilan ochib beriladi. «Tillana» yakuniy qismi bo'lib diniy madhiya hisoblanadi. «Katkakali» esa raqs-afsona bo'lib, raqs-pantomima ko'rinishida Malabarda XV–XVI asrlarda rivojlangan. Bu raqs-pantomima qo'shiqning mazmunini tasvirlab beradi. «Katkak»-Shimoliy Hindiston raqsi bo'lib, u musulmon va hind madaniyatining birlashuvi natijasida vujudga kelgan. «Katkak» Lakxnau, Jaypurva Laxorda keng tarqalgan. «Manipuri» raqsi sho'x, quvnoq raqs bo'lib, Hindistonning shimoliy-sharqidagi Manipurda paydo bo'lgan.

Hind raqs-larini dunyoga tanitishda zamonaviy hind raqqoslaridan Ram Gopal, Uday Shankar, Menaka (Leyla Sokxey)larni aytib o'tish mumkin.

Xitoy Hindiston va boshqa davlatlar bilan bo'lgan aloqalar tufayli raqs san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Raqs san'ati Xitoy madaniyatining eng qadimiy bo'lagi ekanligi eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikka tegishli bo'lgan iyerogliflardan ma'lum. Chjoy davridayoq professional raqs ustalari ijod qilganlar. Tan (618–907 yillar) davrida raqs san'ati gullab yashnadi. XX asrning 20-yillarida Yevropa klassik balet san'ati o'z ta'sirini ko'rsatdi va 50-yillarida hitoy baleti shakllana boshladi.

Ijtimoiy hayotimiz taraqqiy etgani sari boshqa san'at sohalari kabi raqs san'ati ham kundan-kunga boyib, uning xarakteri, mavzulari o'zgarib bordi. Mehnat raqslari esa yangicha talqinda, yangi hayotiy ehtiyoj sifatida, insonlarga ruhiy madad beruvchi, quvonch va rohat baxsh etuvchi raqslar ijro etila boshlandi. Masalan: o'zbeklarda «Paxta», «Pilla», ruslarda «Ip yigiruvchi», ukrainlarda «Hosil bayrami», moldovanlarda «Uzum yig'imi», koreyslarda «Baliqchilar» va hokazo raqslar shular jumlasidandir.

Raqs san'atining mumtoz, lirik, qahramonlik, hazil-mutoyiba, folklor, mehnat va juda ko'p turdagi raqslari saqlanib kelinmoqdaki, unda xalqning har bir davrga xos yashash tarzini aniq, ravshan ifodalanadi.

Amir Temur davrida XIV–XV asrlarda Movarounnahr muhim madaniy markazga aylandi. Halq sayllari va bayramlarining uyushtirilishi natijasida ommaviy maydon raqslari paydo bo'ldi va rivojlandi. Poytaxt hisoblanmish Samarqandning ko'rkam bog'larida saroy qabullari, bayram sayllari o'tkazilgan, xalq raqs va o'yinlari uyushtirilgan. Elchi Klavixo o'z hotiralarida jozibali va go'zal raqslarga ta'rif berilgan. O'zbek sahna raqs san'atining paydo bo'lishida, uning ravnaq topishida, gullab-yashnab, butun dunyoga ko'z-ko'z qilishiga o'z hissasini qo'shgan, raqs san'atimizning buyuk daholari bo'lmish Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Yusufjon Qiziq Shakarjonov, Isohor Oqilov, Roziya Karimova va ularning shogirdlarini eslab o'tish joizdir. Ular o'zbek xalq raqs san'atining xaqiqiy jonkuyarlari va fidoyilari bo'lganlar. Ularning qilgan mashaqqatli mehnatlari o'zbek raqs san'atining bebaho boyligi hisoblanadi. Ushbu boyligni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish ishi baletmeysterlarning ihtiyoridadir.

O'zbek raqs san'atining meros raqslari majmuasiga kirgan «Munojot», «Rohat», «Tanovar», «Pilla», «Paxta», «Katta o'yin» va boshqa raqslarni biron-bir joyini o'zgartirishga hech kimning haqqi yo'q. Ushbu raqslarni buzmasdan, ortiqcha elementlar qo'shmasdan butunligicha o'rgatish kerak. Aks holda uslublar aralashib, o'zbek milliy raqs san'atining ko'p qirrali boyligiga katta putur yetkazadi.

1.2. Xoreografiya san'atining asoslari

Reja:

- 1.Yevropa klassik xoreografiyasi.
- 2.Jahon xalq raqslari.
- 3.Tarixiy-maishiy raqslar.
- 4.O'zbek raqsi.
- 5.Raqs sahnalashtirish.
- 6.Raqs san'ati tarixi.

1.Yevropa klassik xoreografiyasi

«Klassik raqs» fani. Klassik raqs dastlab raqs san'atiga raqqoslarni tarbiyalash vositasi sifatida kirib keldi. Keyinchalik u alohida, mustaqil janrga aylanib qoldi.

Xoreografiyaning asosi bo'lgan, deyarli uch asr mobaynida shakllanib, natijada qat'iy bir tizimga ega bo'lgan harakatlar majmui-klassik raqs maktabi va uning ta'lim metodikasini bugungi kunda butun dunyo tan olgan. Fanning asosiy maqsadi raqs ijrochisining tanasini rivojlantirib, harakatlarni erkin bajarishga o'rgatish hisolanadi. Qaddi-qomatni to'g'ri shakllatiradi, koordinatsiya olish, egiluvchanlikdan tashqari ijodiy fikrlashni, raqs ijrosi madaniyatini shakllantiradi.

Klassik raqs terminologiyasi ilk bor XVII asrda Fransiya Qirollik raqs akademiyasida paydo bo'ldi. Pyer Boshan Fransiya Qirollik raqs akademiyasi baletmeysteri. Jan Jak Nover (1727–1810) esa yetakchi fransuz xoreografi hisoblanadi. Klassik raqs terminologiyasi yillar davomida o'zgarib, qo'shimchalar kiritilib, yanada mukammallashib bordi va hozirgi kunda butun jahon raqs ta'limida qo'llanilib kelinayotgan qat'iy bir tizim darajasiga yetdi. Rus klassik raqs maktabi asoschisi professor Vaganova Agreppina Yakovlevna klassik raqs terminologiyasiga yanada aniqlik kiritilishiga va mukammallashishiga katta hissa qo'shgan. Tibbiyot terminlarini lotin tilida yuritish shart bo'lganidek, klassik raqs terminlarini ham fransuz tilida yuritilishi saqlanib qoldi.

Klassik raqsida oyoqning 1 ta erkin va 5 ta ochiq pozitsiyalari mavjud. Qo'lning 1ta erkin va 3 ta majburiy pozitsiyasi bor. Barmoqlarning «Allonje - Allonge» – (uzaytirilgan), gavdaning

«Kruaze-Croise» – (yopiq yoki chalishtirilgan), «Effase-Effase» – (ochiq yoki yumshatmoq), «Ekarte -Ecarte» – (yon tomonlarga, gavda «kruaze» va «effase» holatlarida), «Arabesk- Arabesque» – (naqsh yoki bezaklar), «Attityud-Attitude» – (ishchi oyoq 90 gradusga orqaga ko'tarilgan, tizzalar sal bukilgan gavda «kruaze» va «effase» holatlarida) holatlari bor.

Doimiy ravishda takrorlanuvchi, oddiydan murakkablashib boruvchi mashqlar to'plami bo'lgan klassik raqs fanini o'rgatish uch qismdan iborat:

1. Stanok yonida ekzersis.
2. Zal o'rtasida ekzersis.
3. Sakrashlar.

Har bir qism harakatlarining o'z asosiy vazifasi mavjud. Ular har bir bo'g'im, mushak va paylarni birma-bir ishga soladi. Stanok yonidagi ekzersis koordinatsiyaga, oyoqlarni kuchli bo'lishiga, bosh, qo'l va gavdaning elastikligiga, ijro vaqtida barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Jahon xalq raqslari

Raqs san'atining ko'rinishi, qiyofalanishi, ifoda qilinishining g'oyaviy mazmuniga qarab uning insoniyat turmushiga bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Raqs san'ati orqali kishilarning ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanishini, tabiat bilan kurashishini, ma'naviy tafakkurini anglaymiz.

Raqs san'atining manbaasi insoniyatning turmush tarzi bo'lishidan qat'iy nazar turmush harakatlarining xammasi xam raqs harakatlari emas. Ammo xoh xalq raqslari bo'lsin, hoh klassik tarixiy raqslari bo'lsin u bir millatning uzoq tarixiy jarayonidagi dini, turmush urf-odatlarini ko'rsatib beradi. Raqs san'atida, hattoki, bir millatning «Salomi, ta'zim qilish» harakati boshqa millatnikiga o'xshamaydi. Turli xil janridagi raqslar shaxslarning xarakterlarini yaratishni asos qilib oladi. Hind xalq raqsidagi «Yomg'ir tilash», «Allohga iltijo qilish», «Oyga xushomad qilish», so'ragan niyatlariga erishganlarida xursand bo'lish va boshqa xatti-harakatlari buddizmning raqsidagi ifodasi bo'lganidek, uyg'ur xalq raslarini olib qaraydigan bo'lsak, «Suv», «Muz», «Tovus», «Munojat», «Samo», «Pir» va boshqa syujetli raqslar turmush urf-odatlaridagi voqea-hodisalarning,

rivoyatlarning shundayligicha diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lganligini ko'rish mumkin. O'zbek va boshqa jahon xalq raqslari ham iltijo qilishi, panoh tilash, xudoga nola qilishdek tuyg'ularidan holi bo'lmagan. Bunday e'tiqodlar ozayib, keyinchalik turmushning rivojlanishi jarayonida raqs san'atiga aylangan.

San'atshunoslarning ilmiy izlanishlari raqs san'atining qadimiyligini, uzoq tarixga ega ekanligini isbotlagan. Halq raqslari chuqur mazmunga ega. Biz ana shu mazmunlarga qiziqib, tadqiq qilishimiz, rivojlantirishimiz va uni davr ruhi bilan sug'orib ma'lum yangi mazmunga ega qilishimiz lozim. Halq raqslarini sinchiklab, muhokama qiladigan bo'lsak, mutlaq ko'psonli jahon xalqlarining turmush urf-odati, dunyoqarashlarining ifoda qilinishini ko'rishimiz mumkin. An'anaviy halq raqslarining o'ziga xos alohidaligi va xususiyatlarini izlanib topish, o'rganib, to'g'irlab chiqish ilmiy ish hisoblanadi.

Tarixiy raqslar necha ming yillar ichida davrdan-davrga o'tib, davom etib kelgan. U garchi halq ijodiyoti bo'lsa ham, davr va tarixning shakli tufayli feodallik ta'siridan holi bo'lmagan. Shuning uchun tabiiy holda bir qancha raqslarga diniy mazmun aralashib, sofliqini yo'qotgan yoki yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan. Jahon halqlari raqs san'atiga murojaat qiladigan bo'lsak, dunyodagi necha minglab millat va elatlarning raqs san'ati turlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin. «Buyuk oktabr inqilobi» davrigacha xalq raqs san'atiga e'tibor berilmagan. Xususan, Rossiyada xoreografiya maktablari va teatrlarda xalq raqsalaridan yiroq bo'lgan aristokratlar, burjuaziyaning yirik, yuqori tabaqali tomoshabinlari uchun raqsalar sahnalashtirilgan va ijro etilgan.

Sobiq oktabr inqilobidan keyin xalq raqsalarini o'rganishga e'tibor o'zgacha tus oldi. Baletmeysterlar haqiqiy xalq materiallariga va jahon klassik raqsi bilan boyitilgan bir qator yangi baletlar va xoreografiyani yaratdilar. Bu spektakllar tomoshabinlar tomonidan muvoffaqiyatli kutib olindi va yillar davomida sinovdan o'tdi. Sobiq ittifoq davrining xalq artistlari Tojikistonda G'affor Vallomatzoda, Aziza Azimova, Arsuyak Islomova, Rossiyada Igor Moiseyev, G.Ustinova, P.Virskiy, N.Ramishvili, I.Suxishvili, V.Vronskiy, N.Nadejdina, Litva xalq artisti V.Gritskas, Belorussiya Respublikasida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi A.Opanasenko, Gruziyada D.L.Djavrshvili, Ye.L.Gvaramadze, Armaniston xalq artisti

I.I.Arbatov, Litva davlatida xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Y.Lingis, Latviya san'ati arbobi Yevgeniy Changa, Bruno Priyende, Milda Lasmanlar va boshqalar xalq raqslari fanining asoschilari va ustalari bo'lganlar.

Bundan tashqari o'sha davrlarda xam faoliyat yuritib kelgan xalq ijodiyoti uylari va markazlari ham o'z respublikalarining eng chekka o'lkalari va qishloqlarida, tog'li hududlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular maxsus ekspeditsiyalar tashkil etib xalq ijodi namunalarini olib yig'dilar va professional san'atni boyitdilar. Xuddi shu tashilotlar tomonidan professional xoreograflarning yordami bilan havaskorlik raqs san'atini o'sishiga va rivojlanishiga yordam berdilar.

Rus xalqi materiali asosida «Barishnya-krestyanka», «Boshsiz chavandoz», «Konyok-gorbunok», «Kamenniy svetok» kabi baletlar sahnalashtirildi. «Krasniy mak» baletidagi «Yablochka» kompozitor va baletmeyster tomonidan yaratilgan va 1927-yilda Katta teatrga birinchi kirib kelgan xalq raqsi hisoblanadi. «Bog'chasaroy fontani» baletida tatar va polyak xalq raqslari joy olgan bo'lsa, «Dilbar», «Layli va Majnun» baletlarida tojik, «Kavkaz asirasi»da cherkeslarning folklori, «Tog' yuragi» baletida gruzin xalq raqslari, «Cho'lpon» baletida qirg'izlarning, «Turnalar qo'shig'i»da boshqirdlarning, «Semurg'» baletida o'zbeklarning xalq raqslari joy olgan. Xalq raqslaridan foydalanib saxnalashtirilgan balet spektakllarining sanog'iga yetib bo'lmaydi. Xalq raqslari bo'yicha ayniqsa samarali mehnat qilgan baletmeyster A.V.Lunacharskiy nomidagi teatr san'ati Davlat instituti xoreografiya kafedrasida «Xalq raqsi» bo'limining rahbari bo'lib ishlagan Tamara Tkachenkodir.

Hamma xalq raqslarining harakatlari va musiqalafi o'sha xalqning milliy xarakterini ifodalab, tasvirlab beradi. Erkaklar raqslarida o'sha xalq erkaklarining kuch-qudrati, mexnatsevarligi, fidoiyligi, ayollarga bo'lgan e'tibori va hurmatini tasvirlab berilsa, ayollar raqslarida esa ularning nozik his-tuyg'ulari, kamtarin va hokisor, mehribon va bag'rikengligi, vafodorligi va mexnatkashligi tasvirlanadi.

Rus xalq raqs san'atining asosini rus xalq o'yinlari, qo'shiqlari, xorovodlari, urf-odat va an'analari tashkil etadi. Rus xalq raqslari xaqida XI asrga ta'luqli bo'lgan adabiyotlarda, qadimgi qo'lyozmalarda saqlanib qolgan. O'sha davrlarda asosan masxarabozlar raqsga tushganlar va rus halqining orzu-niyatlarini, intilishlarini tasvirlab,

o'sha davrlarning boyarlari, cherkov xodimlari ustidan kulgi ostiga olingan.

O'sha davrlarning boshqaruvchilari tomonidan oddiy halqning ijro etgan qo'shiq va raqslari qattiq ta'qib qilingan. Lekin halqning qo'shiq kuylashga va raqsga tushishga bo'lgan ehtiyojlari ularni yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymagan. Rus halq raqsi uch asosiy yo'nalishda shakllandi va rivojlandi.

Bular: xorovodlar, improvizatsiya xarakteridagi o'yinlar va maxsus saxnalashtirilgan raqslardir. Bu raqslarni qizlar qo'llarida ro'molcha, gullar bilan ijro etishgan. Bayram sayllarini, mehnat jarayonlarini, to'y marosimlarini, oilaviy marosim va an'alarini, sevishtirilganlarni va dugonalarning uchrashuvi kabi turli mavzulardagi qo'shiqlarni tasvirlab beruvchi raqslar sahnalashtirilgan.

Rus xalqining har bir o'lkasida o'z koloritini aniq belgilab, saqlab qolgan xalq raqslari mavjud. Smolensqda «Gusachok», Arxangelskda «Chijik», Kurskda «Timonya», Leningradda «Tolkusha», Sibirda «Podgorka» va boshqa ko'plab o'lkalarning raqslari halq tomonidan sevib ijro etilib kelingan. Ular bir-biridan musiqa xarakteri, raqs harakatlari, kiyimlari va hattoki taqinchoqlari bilan farqlanadi. Ushbu raqslarda qizlar yigitlar bilan raqsga tushib o'z san'atini namoyish etadilar, ya'ni musobaqalashadilar. Boshqalarida esa ichkilikka berilgan, xalq orasida o'zining yomon fazilatlarini orqasidan bebro' bo'lgan kishilar qattiq kulgi ostiga olingan. Oqbilak xonimlarning hech qanday ishni eplay olmasliklari sababli o'z tengdoshlari oldida uyulib qolishlari, ip yigiruvchi mohir halq kosiblarining obro'-e'tibori va mehnati samarasi tasvirlanadi. Raqslardagi Qorbobo va qorqizning xalq orasiga mehmon bo'lib kelishi, savdogarlarning bozordagi savdo manzarasi, oqqushlarning serjilo harakatlari xalqqa manzur bo'lgan.

1937-yilda Igor Moiseyev rahbarligidagi raqs ansambli tashkil etildi va bu sohada samarali ijod qilindi. Ro'molcha, savatdagi gullar yoki mevalar, oq qayin daraxtining shoxlari, mehnat va hunarmandchilik qurollari, to'quvchilik ashyolari, xullas qo'shiq mazmunidan kelib chiqib predmetlardan unumli foydalangan. Shuning uchun I. Moiseyev sahnalashtirgan raqslar xalqning qalbiga yaqin va uning xotirasidan go'zal raqslari mangu o'rin olgan. Ansambl repertuarida 200 dan ortiq xalq raqslari va 100 dan ortiq jahon xalqlari raqslari o'rin olgan. «Baynovskaya kadrib», «Russkiy pereplyas», «Venzelya», «Polka-krasotka s figurami i komplimentami», «Starinnaya gorods-

kaya kadrib», «Podmoskovnaya lirika» kabi takrorlanmas, bir-biriga o'xshamaydigan raqslar shular jumlasidandir. Ayniqsa, I.Moiseyev saxnalashtirgan xorovodlardan tashqari kadrib, matroslarning «Yablochka» raqslari mashhurdir. Ansambl qardosh xalq raqs namunalaridan bo'lgan moldavancha «Jok» syuitasi, beloruslarning «Lyavonixa» va «Bulba», dog'istonning «Lezginka»si, tojiklarning «Pichoq» raqsini ijro etganlar. Ansambl ispan, venger, koreys, meksika, slovyan, polyak, rumin, argentina, xitoy, kuba, fransuz xalq raqslarini ijro etgan. 1966 yilda ansambl Italiya davlatiga qilgan ikkinchi ijodiy safarida italyanlarga ularning unutilib ketgan o'z xalq raqslaridan bo'lgan «Sitsiliya tarantellasi» raqsini ijro etib, oddiy, sayqal berilmagan xalq folklor raqsalaridan sahnaviy raqs yaratish mumkinligini ko'rsata oldi. «Slovyan xalqlari raqsari», «Do'stlik va tinchlik», «Jahon davlatlari buylab» nomli dasturlariga turli davlatlarning raqsari kiritilgan. «Raqsqa yo'l» deb nomlangan dasturda raqsqa tusha olmaydigan raqqoslarning ilk ijrosidan tortib, boshni aylantirib yuborishgacha olib keladigan aylanishli, murakkab harakatlardan iborat raqsar to'plami raqsning tug'ilishi, uquvsiz ijrochining mohir raqqosga aylanishi jarayonini tasvirlab beradi. Baletmeyster konsert dasturlarini turlicha tuzadi. Ba'zan alohida raqsardan, ba'zan esa, o'ziga xos xoreografik syuitadan iborat bo'ladi. I.Moiseyevning har bir dasturi yangilik sifatida qabul qilinadi. Borodinning «Knyaz Igor» baletidagi «Polovetskiye plyaski» katta xoreografik turkum raqsarini tomoshabinlar shunday qabul qildi.

1965-yilda esa I.Moiseyev rahbarligidagi ansambl o'zining samarali mehnatlari evaziga «Akademik raqs ansambli» unvonini olishga sazovor bo'lgan.

1948-yilda Moskvada N.Nadejdina rahbarligida «Beryozka» ansambli tashkil etilgan. 1949-yil Budapeshtda o'tgan II Butunjahon yoshlar va talabalar festivalida laureat va oltin medal sohibi bo'ldi. Ansamblning «Lebedushka», «Severniiy starinniy xorovod», «Sepochka», «Vorotsa», «Uzori», «Pryalitsa», «Topotuxa», «Na osenney yarmarke», «Devichiy pereplyas», «Karusel» raqsari eng saralari hisoblanadi. Ba'zi raqsar qo'shiq bilan birgalikda ijro etiladi va qo'shiqlarni ijrochilarning o'zlari kuylaydilar. Axir, rus xalqida raqs va qo'shiq bir-birdan ajralmasdir.

M.Pyatnitskiy nomidagi Rus Davlat xori qoshidagi raqs jamoasi rahbari T.Ustinova ham rus xalq raqs folklorlarini saqlab qolishi

uchun katta ishlarni amalga oshirgan. «Yashna bahorli o'lkam», «Dala malikasi», «Yulduzlar sari» kabi zamonaviy raqslar xam sahnalash-tirgan. 1962-yilda V.Vorkovitskiy sahnalash-tirgan «Rus miniatyura-lari» raqs syuitasi esa katta san'at asari hisoblanadi. O'tloq va maydonlarda ijro etilgan xorovodlar Kalininsk viloyati chekka qishloqlarida mashhur bo'lgan.

«V sadu li v ogorode», «Chtoy-to zvon», «V sirom boru tropinka» va boshqa ko'plab xorovodlar xalq qo'shiqlari jo'mnavozligida ijro etilgan. Moskva viloyati kadrili xorovoddan quvnoqroq bo'ladi. «Kamarinskaya», «Chijik», «Kak u nashix vorot», «Polyanka», «Ya na gorku shla» kabi kadrillar rus xalq musiqasi, qo'shiqlari orqali halqning butun xarakterini ochib beradi. Rus xalq o'yinlari improvizatsiya qilinadi. Erkaklarning bir-biridan o'tib, mahoratini qarsaklar, chaqqon oyoq va qo'l harakatlari, qo'llarini belda, boshda turishlari, yuqoriga sakrab yana o'tirib olishlari, o'tirib bir oyoqda aylanishlari, yuqoriga sakrab qushlar qanotini yoygani kabi qo'llarini keng ochish harakatlari, gulxan ustidan sakrashlarini tasvirlash harakatlari orqali rus xalq raqs texnikasini namoyish etadilar. Garmon, balalayka kabi musiqa asboblari ijrosida quvnoq qo'shiqlar ijro etiladi. «Barinya», «Poydu l ya, viydu l ya», «Uj kak po lugu, lugu» qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, jahon halqlari raqs san'ati o'zining xalqchilligi, oddiy va soddaligi, lekin kuchli ijro texnikasiga va katta merosiy boylikka egaligi bilan qadrlanadi. Eng asosiysi xalqning qalbidan, yuragidan joy olgan va hozirgi kungacha sevib ijro etilib kelinayotgan raqslarni saqlab qolish va kelajak avlodga ham bus-butunligicha yetkazish istagining kuchliligidir. Bu borada barcha halqlarning soha mutaxassislari katta ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

«Xalq raqsi» fan sifatida XIX asr oxirida Piterburg imperator-ligining xoreografiya bilim yurtida vujudga keldi. Uning paydo bo'lishi balet spektakllarida ispancha, vengercha, polyakcha va boshqa xalqlar raqsLARining ijro etilishi bilan bog'liqdir. Xoreograflar tomonidan xalq raqsi ijrochilari uchun klassik raqs tizimi kabi maxsus tizim shakllandi. A.Lopuxov, A.Shiryayev, A.Bocharovlarning ijrochilik tajribasi mahsuli bo'lgan «Xarakter raqsi asoslari» kitobi 1939-yilda nashrdan chiqdi. Katta hodisa sifatida qabul qilingan bu kitob xalq sahna raqsini o'rgatish bo'yicha birinchi darslik hisobla-

nadi. Oyoq va qo'l harakatlarining atamalari 1966 va 1971-yillarda xalq sahna raqsi bo'yicha Butunittifoq seminarlarida qabul qilingan atamalarga asoslangan.

Xalq raqsida oyoqning 5 ta ochiq, 5 ta to'g'ri, 5 ta erkin va 2 ta yopiq pozitsiyalari va turli holatlari mavjud. Qo'lning 7ta pozitsiyasi va 3 ta holati bor. Gavdaning to'g'ri, oldinga, orqaga va yon tomonlarga egilgan holatlari mavjud.

«Jahon xalq raqsleri» fani ikki qismda o'rgatiladi.

1. Stanok yonida ekzersis.

2. Zal o'rtasida ekzersis.

Jahon xalq raqsi ekzersisi klassik raqs ekzersisiga asoslanadi. Ammo, uning maqsadi asosiy xalq raqslarinig elementlarini, qo'llar, oyoq, gavda va boshning asosiy holatlarini o'rganish orqali xalq musiqasi va xarakteri bilan tanishtirishdan iborat. Xalqning fe'li, ichki dunyosi, temperamentiga xos jihatlarini aks ettirish qobiliyati ustida ishlash stanok yonida bajariladigan mashqlardan boshlanadi.

Stanok yonidagi ekzersis tartibi quyidagicha:

1. Yarim va to'liq o'tirish (Demi va grand pliye).

2. Oyoq uchini tortib polda sirpantirish (Battement tandyu).

3. Kichik otishlar (Battement tendyu jette).

4. Havoda yoki pol bo'ylab oyoq bilan aylana harakatlar (Ronde-jambe par terre).

5. Poshnali mashqlar.

6. Oyoqlarning past va baland burilishlari (Battement fondyu).

7. Mayda keskir urishlar.

8. Kuchlanishsiz kaftli mashqlar (flik-flyak).

9. «Arqoncha»ga tayyorgarlik.

10. Zig-zaglar (ilonizi).

11. Oyoqni 90 gradusga ochish (Battement relevent).

12. Katta otishlar (Grand battement jette).

Har bir kombinatsiya «preparasyon» ya'ni, mashqlarga muvofiq musiqiy kirish va qo'llarni tayyorlash harakati bilan boshlanadi. Stanok oldida rus, ukrain, venger, ispan, polyak, moldava, sigan, ozarbayjon, tatar kabi millatlar raqs harakatlarining elementlaridan foydalaniladi. Mashqlar qo'l kaftlarini burish, oyoq kafti, tovoni, uchi bilan depsinish, tik va bukilgan oyoqlarda harakatlanish, keskin o'tirib-turishlar, sakrashlarni o'z ichiga oladi. Stanok oldida o'rgatilgan harakatlar va elementlar zal o'rtasidagi ijro uchun

tayyorgarlik vazifasini o'taydi. Zal o'rtasida murakkablashtirilgan yangi harakatlar qo'shilib raqs kombinatsiyalari tuziladi. Sahnlashtirilgan raqslar asosan guruhli (10tadan ortiq) va raqs syujeti mazmuniga qarab 3, 4, 6 kishilik ijrochilardan iborat bo'lishi mumkin. Musiqiy jo'rlik darsning asosini tashkil etadi. Bayan, akkordion, royal kabi cholg'u asboblariidan foydalaniladi. Pedagog va konsertmeyster doim ijodiy hamkorlikda bo'lib, har bir mashg'ulotning maqsadi, xoreografik va musiqiy jihatlari tushuntirishlari kerak. Musiqa raqsning milliy koloriti, xarakteri, harakatlar ijrosiga mos kelishi kerak.

3. Tarixiy-maishiy raqslar

Raqs san'ati vujudga kelganidan boshlab xalq raqslari uning asosiy janri bo'lib qoldi. U qadim davrlarda yaratilib va rivojlanib kelganligi, xalqning hayoti, maishiy va mehnatning ajralmas qismi bo'lib qolganligi tabiiy holatdir. Xalq raqsi xoreografiya vositalari bilan insonning ko'p qirrali xarakteri, uning ichki kechinmalarini ochib beradi.

Xoreografiyani o'qitish ta'limiga kiruvchi fanlardan biri bu tarixiy-maishiy raqslardir. Tarixiy-maishiy raqs ta'limi harakatlar va kompozitsiyalar asosida tuziladi. Undan ko'zlangan maqsad «Xoreografiya san'ati asoslari» fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni ushbu fan bilan tanishtirish, raqs kombinatsiyasi va kompozitsiyasini yaratishda yordam berishdan iboratdir. Tarixiy-maishiy raqs fanini o'qitish ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismda mavzu tarkibiga kiruvchi «Pas balanse», «Pas shosse», «Pas eleve» elementlari o'rgatiladi. Bunda ayrim elementlarni bajarilishiga ko'proq e'tibor qaratildi, o'rganilgan harakatlardan raqs kompozitsiyalari tuzishga misollar beriladi. Ikkinchi qismda o'tilgan materiallar va talabalarining imkoniyatlarini hisobga olib tuzilgan raqs va raqs kompozitsiyalariga ko'proq e'tibor beriladi.

O'rta asrlarda «Branl» va uning turli ko'rinishlaridan «Quvnoq branl», «Dehqonlar branli», «Oddiy branl», «Qo'ng'iroq branli», «Farandola», «Burre» kabi raqslar xalq orasida ijro etib kelingan. Uyg'onish davrida «Pavana», «Menuet», «Sarabanda», «Volta», «Allemanda» raqslarisiz biror ballar, kechalar, ko'cha bayramlari o'tmagan. XVIII asrga kelib tarixiy-maishiy raqs elementlari nafaqat

murakkablashdi, balki yangicha «Polonez», «Tampet», «Kontrdans» turlari ham yaratildi. Hatto «Gavob» raqsi ikki kishi uchun yaratilgan kichik balet spektakli darajasiga yetdi. XIX asrga kelib o'tgan asrlarda ijro etib kelingan tarixiy-maishiy raqslarning ko'pchiligi saqlanib qolingan va o'zgacha kayfiyat va usulda ijro etilgan. «Fransuzcha kadril», «Kotilon», «Ekosea», «Lansye», «Vals», «Aleman», «Mazurka», «Padegras», «Shakon», «Minon», «Pa-de-trua» kabi raqslar xalq orasida sevib ijro etilgan. Rossiyada qadimgi slovyan xalqi hayotida bayramlar alohida o'rin egallaydi. Dala ishlaridan, ovdan qaytgach yoki, oilaviy marosimlarni nishonlashda aylana bo'lib raqsga tushadigan «Shimol xorovodi», «Hayrlashuv raqsi», «XVIII asr rus ayollar raqsi» kabi raqslar qo'shiq jo'rligida ijro etilgan.

4. O'zbek raqsi

O'zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog'liq holda an'anaviy va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to'ldirgan hamda ta'sir ko'rsatgan holda muayyan bosqichlarni bosib o'tdi. O'zbek raqs maktabi asoschilari Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva va ularning safdoshlari Isohor Oqilov, Roziya Karimova, Gavhar Rahimovalarning mashaqqatli mehnati, sa'y harakati, ijodiy izlanishlari natijasida tashkil qilingan «Bahor», «Shodlik», «Lazgi» raqs ansambllari butun jahonni lol qoldirib zabt etdi. Ular tarbiyalagan Qunduz Mirkarimova, Yulduz Ismatova, Ravshanoy Sharipova, Qodir Mo'minov, Gavhar Matyoqubova va boshqa ko'plab shogirdlari ustozlar an'anasiga qat'iy tayangan holda, ularning ishlarini davom ettirib, raqs san'atining faoliyat doirasini kengaytirish orqali yanada boyishiga, professional darajaga yetishiga o'z hissalarini qo'shdilar. O'zbek raqs san'ati ta'limining yangicha uslublarini izlab topdilar. Musiqa va san'at maktablari, kollejlari, litseylari iqtidorli, iste'dodli yoshlarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilgan bo'lsa, institutda minglab raqqosalar, baletmeysterlar, pedagoglar yetishib chiqib xalq xizmatiga safarbar qilindi. Istiqolol sharofati bilan umumxalq bayramlarining tiklanishi, turli ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi natijasida folklor janri rivojlandi. Katta maydon raqslari, bolalar raqslari vujudga keldi. Mahoratli, izlanuvchan, tashabbuskor

baletmeysterlar tomonidan juda ko'plab professional va havaskor raqs ansambllari tashkil qilindi. O'zbek raqs san'ati badiiy ijodiyot taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchining bir bo'g'iniga aylandi.

O'zbek raqs san'atini o'qitishda Farg'ona raqs maktabi asosida bosh, gavda, qo'l, barmoqlar, yelka uchun mashqlar bajariladi. Sahna nuqtalari, uning sxemasi tushuntiriladi. Aylanishlarning yengil ko'rinishlari bajariladi. 1 ta erkin, 7 ta qo'l va 7 ta oyoq holatlari o'qitiladi. Holatlar o'z qoidasi bo'yicha o'zlashtirilganidan so'ng 5 qismdan iborat «Doira dars» harakatlari o'rgatiladi. So'ng, Buhoro va Xorazm maktablarini o'qitishga o'tiladi. Holatlar va harakatlardan foydalanib talabalar imkoniyatlarini inobatga olgan holda etyudlar sahnalashtiriladi.

5. Xalq raqslarini sahnalashtirish

Raqsni inson yaratadi, o'zining hayotiy ehtiyoji uchun yaratadi, o'zining ko'tarilgan kayfiyati boshqalarga ham ta'sir qilishi uchun yaratadi. Ammo oddiy xalq ichidan chiqqan, butun hayotini shu sohaga bag'ishlagan, xalq raqslarini qaytadan ishlab, sayqal berib, yanada ko'rkamlashtirib, san'at darajasigacha yetkazuvchi, san'atni butun dunyoga tanituvchi, uni rivojlantiruvchi, yanada boyituvchi raqs san'ati ustalari bo'lib, ular –Baletmeysterlar deb ataladi. «Baletmeyster» so'zi – «Balet ustasi» degan ma'noni anglatadi. «Baletmeyster» baletda va raqsning boshqa har xil janrida ijod qiladi. Baletmeysterlik faoliyati to'rtta turga bo'linadi:

1. Baletmeyster - yaratuvchi;
2. Baletmeyster - sahnalashtiruvchi;
3. Baletmeyster - repetitor(mashq qildiruvchi);
4. Baletmeyster - pedagog.

Baletmeyster - yaratuvchi xoreografik asar yaratadi. Uni boshqa san'at turlarini yaratuvchi ijodkorlar ya'ni shoir, kompozitor, bastakor, rejissyor, rassom, yozuvchi, haykaltaroshlarga tenglashtirish mumkin. Faqatgina ulardan farqli tomoni shundaki, baletmeyster –yaratuvchi xoreografik obrazlar yaratadi. O'z tasavvurlarini imo-ishora, raqs harakatalari, kiyim va taqinchoqlari orqali ifodalaydi. Tabiatdagi jamiki ongli va ongsiz mavjudotlar baletmeyster-yaratuvchining tasavvuriga qarab xoreografik obraz bo'la oladi. Masalan: Sevishganlar, yovuz kishilar, hayvonot dunyosi, majnuntol, zilol buloq, kapalak,

qushlar, gullar va hokazo. Bundan tashqari baletmeyster - yaratuvchi xoreografik asar yaratishi uchun hayotni chuqur va teran fikrlovchi, sinchkov, ziyrak, faylasuf va ruhshunos, nozik qalb egasi bo'lishi zarur. U raqsning matnini o'ylab topadi va amaliy qismiga ya'ni sahnalashtirishga ham ma'sul bo'ladi. Chunki u o'sha raqsning muallifi hisoblanadi.

Baletmeyster-sahnalashtiruvchi baletmeyster-yaratuvchi yaratgan xoreografik asarni ijrochilarga sahnalashtiradi, o'rgatadi, agar ijrochi bu harakatlarni tezda o'zlashtira olmasa qayta-qayta ko'rsatib, tushuntirib berishi lozim. Baletmeyster - yaratuvchi bu asar orqali nimani ko'rsatib bermoqchi bo'lgan bo'lsa, baletmeyster-sahnalashtiruvchi o'z ish jarayonida buni to'liq his qilgan holda, ijrochilarda to'la-to'kis namoyon etib berishi lozim. Baletmeyster-sahnalashtiruvchi eng avvalo, raqsni yozishni bilishi muhim. Buning uchun sahnaning tuzilishi va shartli belgilarini o'zlashtirishi lozim. Raqsni yozganda tomoshabin tomonidan turib (ijrochining yuzi sahnaning oldiga qaragan holda) yozilsa, sahnalashtiruvchiga raqsni tahlil qilishga, butun raqsning chizmasini ko'rib turishga hamda sahna maydonidagi raqqos va raqqosalarning ijrolarini nazorat qilishga qulay imkon yaratiladi. Sahnalashtiruvchi ijrochilarga sahnaning tuzilishini ham o'rgatishi kerak.

Baletmeysterlar raqsni sahnalashtirishda turli hil chizmalardan foydalanishi mumkin. Raqsning qanchalik qiziqarli chiqishi baletmeysterlarning fantaziyasiga bog'liq.


Baletmeyster-repetitor(mashq qildiruvchi)ning vazifasi baletmeyster - yaratuvchi yaratgan va baletmeyster - sahnalashtiruvchi sahnalashtirgan raqsni ijrochilar bilan mashq qilishdan iborat bo'lib, ularning raqsdagi ijro mahoratini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Yakka, ommaviy raqslar, ulardagi solist ijro etadigan qismlarini meyoriga yetkazib, yuqori saviyada ijro etishlarini ta'minlashdan iborat. Mashq qilish jarayonida yaratuvchi va sahnalashtiruvchi raqsni qanday o'rgatgan bo'lsa, biron joyiga o'z hohishicha o'zgartirish kiritmasligi kerak, lekin o'z fikrini bildirishi mumkin va o'zgartirish zarur bo'lgan holda baletmeyster - yaratuvchining roziligi bilan amalga oshiriladi. Baletmeyster-repetitor (mashq qildiruvchi) ansambl tomonidan ijro etilib, repertuaridan joy olgan eng sara raqslarni ham mashq qildiradi, zarur bo'lganda yangi ijrochilarni kiritadi.

Sahnaning orqasi

3-chap burchak

2-chap burchak

1-chap burchak



3-o'ng burchak


2-o'ng burchak

1-o'ng burchak

Sahnaning oldi


...

SHARTLI BELGILAR



-Qizlar

← -chapga harakatlanish
→ -o'ngga harakatlanish
↓ -oldinga harakatlanish



-Yigitlar

↑ - orqaga harakatlanish
↕ - ikki tomonga harakatlanish




- O'ngga aylanish



- Chapga aylanish

RAQS CHIZMASIDA FOYDALANILADIGAN GEOMETRIK SHAKLLAR


Diogonal




Liniya




Ikkitalik aylana



Kvadrat



Katta aylana



Koridor



Yulduzcha



O'ngga ilonizi yurish




Ikki tomonga ilonizi yurish




Raqs chizmasining oddiy va murakkab turlari bor. Bir raqsda musiqaning ma'lum bir vaqtida tasvir bir hil bo'lsa, **oddiy tasvir**, ikki va undan ko'p tasvirlardan iborat bo'lsa, **murakkab raqs tasviri** hisoblanadi.

Masalan: *Oddiy tasvir*



Murakkab tasvir



Baletmeyster-pedagog o'z sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi, sohaning nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor qaratib ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etishi, yetuk mutaxassislarni yetishtirish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalashda ustozlarning ish tajribalariga tayangan holda o'z uslubiga ham ega bo'lmog'i lozim. Raqs san'ati tarixi, o'qitish va o'rgatish uslublari, ijro mahoratini o'stirish, raqs texnikasini mustahkamlash kabi masalalarga alohida e'tibor bilan yondoshib ta'lim berishi zarur. Bundan ko'rinib turibdiki, baletmeyster-pedagog baletmeysterlik kasbining barcha to'rtta sohasini ham mukammal egallagan bo'lmog'i lozim.

Baletmeysterlikning bu to'rt ko'rinishlari bir-biriga uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiradi, shu sababli ikki, uch turi yoki barchasi bir kishida mujassam bo'lishi ham mumkin. Bu albatta, baletmeysterlikning olgan bilim, mahorati va qobiliyatiga bog'liq.

Raqs sahnalashtirish beshta jarayonda amalga oshiriladi:

1. Mavzu tanlash, maqsadning paydo bo'lishi.

2. Xoreografik tasvirlar tuzish.

3. Musiqaga mos harakatlar yaratish.

4. Kompozitsion reja tuzish.

5. Raqs sahnalashtirishni mashq zaliga o'tkazish.

Ijodiy guruh ommaviy xalq sayli, katta bayram tadbiri, xotira kechasi, umumhalq bayrami, yubiley nishonlash, kontsert dasturi kabi **tanlagan mavzu** asosida rejissyor ssenariy tuzadi.

Tuzilgan ssenariy bo'yicha yakka raqs, ommaviy raqs, duet kabi **raqs turlari** belgilanadi. Bunda oddiy va murakkab raqs turini baletmeyster tanlaydi va o'zining mahoratini ko'rsatish imkoniyati tug'iladi.

Mavzu va raqs turi aniq bo'lganidan so'ng asosiy ish – **raqs sahnalashtirishga** o'tiladi. Bu qismda baletmeyster ijrochilarning ijro imkoniyatlarini hisobga olgan holda oddiy yoki murakkab raqs harakatlarini tanlaydi. Chunki murakkab raqs harakatlarini imkoni yetmaydigan ijrochidan talab qilib bo'lmaydi. Bu hol ko'pincha havaskorlik raqs ansambllarida uchraydi.

Har bir baletmeyster raqs sahnalashtirishda o'z uslubiga ega bo'lsa ham, raqs sahnalashtirishning bo'ysunadigan qonunlari, qoidalariga amal qiladi. Badiiy tadbirlar, bayramlar, tantanalar,

sayllarni tashkillashtirish va o'tkazish ishini rejissyor, badiiy rahbar, musiqa rahbari va baletmeyster hamkorligidagi ijodiy guruh tayyorlaydi. Baletmeyster raqs sahnalashtirishda avvalo o'ziga reja tuzib olsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Raqs sahnalashtirishning **kompozitsion rejasi** tuziladi. Kompozitsion reja besh qismdan iboratdir.

1. Raqs nomi va mualliflari. Bunda raqs kuyining muallifi, agar qo'shig'i bo'lsa, she'r muallifi va raqsni sahnalashtiruvchi mualliflar beriladi.

2. Raqs liboslari. Bunda ijrochilarning egnidagi kiyimlari, bosh kiyimi, oyoq kiyimi, taqinchoqlari to'liq ifodalanib beriladi.

Libos tanlashda baletmeyster o'ziga juda talabchan bo'lishi lozim. Sahnadagi raqqosa qanchalik mahorat bilan raqsni ijro etmasin, kiygan raqs libosi o'ziga mos bo'lmasa tomoshabin uchun estetik zavq bera olmaydi. Baletmeysterning raqs liboslarini tanlay olishidan, ijrochilarga mosini tanlashidan uning nozik didini, o'z kasbining ustasi ekanligini ko'rish mumkin. Raqsning turli janrida liboslari ham turlicha bo'ladi. Masalan, lirik raqsdagi qizlarning libosi folklor raqs janriga mos kelmaydi, yoki Xorazmning «lazgi»siga tillaqosh va zebigardon taqilmaydi. Nafaqat taqinchoqlar, balki tikilgan libosning bichimiga ham katta e'tibor berish lozim. Zamonaviy raqsliboslar kalta va tor bichiqda bo'lsa, mumtoz raqslibosining etagi va yengi keng, uzun, naqshlari milliy, boshida tillaqosh, peshonaband, durracha kabi kiyimlari kiyiladi va hokazo.

3. Raqs matni. Bunda raqsqa qisqacha annotatsiya beriladi, raqsning asosiy mazmuni ochib yeriladi. Ijrochilarning sahnadagi harakatlari izohlari taktma-takt beriladi. Unda oyoq va qo'l harakatlari, bosh, gavda holatlari raqs tasviriga mos tushishi kerak.

4. Raqs tasviri. Bunda ijrochilarning sahnadagi harakat yo'nalishlari chizmasi geometrik shakllarda beriladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, raqs tasviri raqs sahnalashtirishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Asosiy deyishimizga sabab, raqsni sahnalashtirish ishini yengillashtiribgina qolmasdan, avval sahnalashtirilgan raqsni bir necha yillardan so'ng yana tiklashda, kelajak avlod foydalanishida, baletmeysterlarni bilimini oshirishda, ularning aqlini charhlashda muhim o'rin tutadi. Baletmeyster raqs sahnalashtirar ekan u ijod qilishi, musiqadan ruhlanib yangi-yangi raqs ko'rinishlarini yaratishi lozim. Bu ishni amalga oshirish vaqtida doimo o'zi yaratgan raqsning bir necha chizmalarini qog'ozda aks ettirib boradi va eng ma'qulini

tanlaydi. Bu bilan u o'z ishini yengillashtiradi. Bundan tashqari ustozlarning merosga aylanib qolgan, xalq qalbidan katta o'rin olgan, mumtoz raqslarini o'z shogirdlariga o'rgatishda raqs chizmalaridan keng foydalanish, unutilib qo'ygan kichik bir harakatni ham eslab olish imkonini beradi. Avval aytib o'tganimizdek, raqs sahnalashtirish ishida nafaqat o'z sohasiga tegishli bilimni, balki matematika, tabiiy fanlarni ham chuqur bilishi lozim. Raqs sahnalashtirish jarayonida musiqaning sanog'ini to'g'ri sanashi, o'z tasavvuridagi raqs harakatlarini ijrochiga ko'rsatish va o'rgatishda musiqaning har bir taktini eshitib, yurakdan his qilishi kerak, chunki ijrochi(lar)ning sahnadagi harakat yo'nalishlari geometrik shakllarda aks ettiradi. Aholining hududlar bo'yicha aholining yashash tarzini va uning farqlarini, urf-odatlarini, an'analarini bilish ham muhim bo'lib, bu nafaqat folklor janrdagi raqslarda, balki lirik, klassik, zamonaviy raqslarni sahnalashtirishda ham asosiy o'rinni egallaydi.

Raqs tasvirini chizishda baletmeysterdan o'tkir zehn, sinchkovlik, tasavvurga boy bo'lish, imloviy hatolarsiz yozish va chiza olish kabi hislatlar talab etiladi.

5. Raqs kuyining nota matni, agar qo'shig'i bo'lsa she'r matnlari beriladi.

Bularning barchasi raqsdagi obrazlarning ruhiy holatini, asarning mazmunini ochib berishda va oldin sahnalashtirilgan merosiy raqslar bo'lsa kelajak avlodlarga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Ijro etish jarayoni eng oxirgi jarayon bo'lib, bunda to'rtta jarayondan o'tib kelgan ijrochi va baletmeysterning mehnati tomoshabinlar tomonidan baholanadi. Raqqosa baletmeyster bilan faqat mashg'ulot zalida birga mashq qiladi, maslahatlashadi. Sahnada raqs ijrosi davrida esa butun ma'suliyat faqat raqqosada bo'ladi. Shuning uchun mashg'ulot vaqtida baletmeyster shuni hisobga olgan holda raqqosani tayyorlab, ko'nikma hosil qildirib borishi kerak, toki raqqosa o'z ijrosini erkin, o'ziga ishongan holda bajarsin. Sahnadagi ijro vaqtida har xil holatlar ro'y berishi ham ehtimoldan holi emas. Masalan, tomoshabinning raqqosaga munosabati, yoki texnik nosozliklar, tabiat hodisalari kabilar. Shunday vaqtlarda raqqosa ziyraklik va ustamonlik bilan tomoshabinlarga syezdirmagan holda vaziyatdan chiqib keta olishi kerak. Bunday holatlar haqida baletmeyster mashg'ulot o'tkazish davrida o'zining hayotiy tajribalari

va voqealardan misollar bilan soʻzlab borsa raqqosa bunga tayyor boʻlib boradi.

6. Raqs sanʼati tarixi. Bu fan asosan, mustaqil dars sifatida oʻqitiladi. Oʻqituvchi tomonidan berilgan koʻrsatmalar, tavsiyalar, topshiriqlar «Mustaqil ish», «Referat», «Maʼruza», «Kurs ishi» sifatida bajariladi. Buning uchun uslubiy qoʻllanmalar, oʻquv qoʻllanmalar, darsliklar, ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, ilmiy maqolalar, monografiyalardan foydalaniladi. Tayyorlangan ishlar guruh talabalari bilan birga tahlil qilinadi.

Oʻzbek halq raqs sanʼati tarixidan. Qadimdan xalq tomonidan sevib ijro etilib, avlod-ajdodlargacha yetib kelgan raqslarga eʼtibor berilmagan. Shu sababdan ham halqimizning maʼnaviy-madaniy merosi oyoq osti qilingan va izchil oʻrganilmagan. Xalq ichidan chiqqan va asosiy faoliyatini halq ichida olib borgan raqs sanʼati ustalariga tahdidlar qilingan. Chunki ular oʻz raqslari bilan jamiyatdagi illatlarni fosh etishgan, oddiy xalqqa yaxshi kayfiyat ulashganlar, nurli hayot haqidagi orzulariga albatta, yetishishlarga ishonтира olganlar. Shuning uchun xalq ularni sevgan va ardoqlaganlar. Xalq ichidan chiqqan juda koʻpgina isteʼdodli raqqos va raqqosalar yovuz zulmkorlar tomonidan umri erta soʻngan.

Ammo shunga qaramay, XX asr boshida (1927–30-yillarda) xalq ichidagi sanʼatkorlar oʻz faoliyatlarini davom ettiraverganlar. Muhiddin Qoriyoqubov boshchiligidagi badiiy truppada faoliyat koʻrsatgan Usta Olim Komilov, Yusuf Qiziq Shakarjonovlar isteʼdodli sanʼatkorlarni oʻz saflariga oladilar. Usta Olim Komilovning shogirdlari Tamaraxonim, Mukarrama Turgʻunboyeva bilan birgalikda oʻzbek raqs sanʼati maktabini yaratadilar. Usta Olim Komilov ijrosidagi betakror oʻzbek doira usullariga Tamaraxonim va Mukarrama Turgʻunboyeva raqs harakatlarini oʻylab topadilar, oʻzlariga va truppadagi oʻz tengdoshlariga raqs sahnaishtira boshlaydilar. Ular ijrosidagi «Duchoba», «Katta oʻyin» kabi koʻplab yakka va ommaviy raqs halq tomonidan katta quvonch bilan kutib olina boshlanadi. Asta-sekin davr oʻtishi bilan isteʼdodlar koʻpayib raqqosalar safi kengaya boradi. Shuning uchun Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turgʻunboyevalar oʻzbek raqs sanʼati asoschilari hisoblanadilar.



Usta Olim Komilov
(1875-y. – 1954-y.)

Raqs va doirachilik san'ati darg'asi – mashhur doirachi, birinchi o'zbek baletmeysteri, Mehnat Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilovning tavalludiga yaqinda 140 yil to'ldi.

Usta Olim Komilov 1875-yilda Marg'ilonlik oddiy to'quvchi oilasida tug'ilgan. Bu insonning san'atdagi bosib o'tgan yo'li, ibratli hayotini, beqiyos izlanishlarga to'la mehnatini doimo eslab turmog'imiz muhim va zarur. Usta Olim Komilov O'zbekiston doirachilarining piri-ustozhi hisoblanadi. Usta Olim Komilovning shogirdlaridan biri, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist To'ychi Inog'omov xotira so'zlarida ustozhi haqida shunday yozadi: «Ustozim asli marg'ilonlik bo'lib, bolaligidanoq yetimlik «kulcha»sini tatigan, bir qancha vaqt aravakashlik qilgan ekanlar. Keyinchalik san'atga bo'lgan havasi bu insonni Salomat yallachi, so'ngra taniqli doirachi Masaid ota guruhlariga yetaklaydi. U dutor, chang va doira chalish sirlarini chuqur o'rganadi. O'sha davrning mashhur san'atkorlari Yusufjon Shakarjonov, Mahkam Xofiz va boshqalar bilan xalq xizmatida bo'ladi».

Ustozlarning saboq va maslahatlaridan san'atdagi tajribasini orttirib borgan Usta Olim o'zi yaratgan doira usullariga raqslar sahnalashtira boshlaydi.

1926-yildan boshlab Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi etnografik dastada Yusufjon qiziq, Tamaraxonim, To'xtasin Jalilov kabi san'atkorlar bilan birga faoliyat yuritib, o'zbek raqs san'ati maktabini yaratish orzusini amalga oshirdi. Bu borada Tamaraxonimni shogirdlikka tanlab aslo yanglishmaydi. «Qari navo», «Dilhiroj», «Sadr», «Munojot» kabi raqslar ularning izlanishlarida yangicha talqinini topdi. «Pilla raqsi» esa raqs san'ati rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'ladi.

Usta Olim Komilov 1927–28-yillarda Tamaraxonim bilan hamkorlikda 120 ta usullardan tashkil topgan oyoq-qo'l harakatlari darsligini yaratdilar. So'ngra Farg'ona raqs usullariga oid «Doira darsi va raqs» qo'llanmasi asosida Mukarrama Turg'unboyeva, Fahriya Jalilova, Tamara Ibrohimova, turmush o'rtog'i Begimxon aya Komilova, Isahor Oqilov, Karimjon Nabiyev, Tursunoy

Mahmudova va yana o'nlab san'atkorlarga o'ziga xos raqslarni sahnalashtirdilar. Xalq artistlari Galiya Izmayilova, Qunduz Mirkarimova, Klara Yusupova, Viloyat Oqilova kabi san'atkorlar ularning an'alarini davom ettirdilar.

Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova kabi raqs ustalarining ustози bo'lgan Usta Olim Komilov o'zbek raqs san'atini butun dunyoga tanitganlardan hisoblanadi.

1935-yilda Londonda bo'lib o'tgan Xalqaro festivalda o'zbek doira usullarini ijro etib, Oltin medalga sazovor bo'di. Angliyada bu insonning mahoratini ko'rgan Buyuk Britaniya qirolichasi Mariya Lojalon unga «Birgina doira sozi bilan butun bir orkestrga teng usul va ohanglar yarata olgan mo'jizakor – virtuoz san'atkor!», deb baho beradi. Uning panjalarini mo'jiza deb atab, gipsga nusxa olib London muzeyiga qo'yishga farmon beradi. Bu panja nusxasi hozirgi kungacha Londondagi muzeyida saqlanmoqda.

1936–1937-yillarda «Farhod va Shirin», «Gulsara» kabi asarlarga raqsar sahnalashtiradi. Tamaraxonim va Mukarramaxonimlar ijro etgan bu raqsar Moskvada bo'lib o'tgan Birinchi o'zbek san'at dekadasida yuksak baholanadi.

Usta Olim Komilovning halol xizmatlari munosib baholanib, Mehnat qahramoni, O'zbekiston xalq artisti unvonlari, bir qancha orden va medallar bilan taqdirlandi. Usta Olim Komilovning kiyimlari, shaxsiy buyumlari, Londonni lol qoldirgan doirasi Marg'ilon shahridagi adabiyot va san'at muzeyida saqlanmoqda.



Tamaraxonim
(Tamara Artyomovna Petrosyan)
(1906-y. – 1991-y.)

Tamara Artyomovna Petrosyan 1906-yilda Farg'ona shahrida ishchi arman oilasida dunyoga kelgan. O'zbek diyorida tug'ilgan arman qizi o'zbek xalqi san'atini yaxshi bilgan, o'z iste'dodi va zahmatli mehnati bilan boyitgan va dunyoga tanitgan buyuk san'atkordir. O'zbek sahna san'atini oyoqqa qo'yishda ko'pgina qiyinchilik, to'siqlar, sinovlarga duch kelinishiga qaramay, 1920-yilda xalq ashulachisi Muhiddin Qoriyoqubov tashkil qilgan ansamblda ayollardan faqat Tamaraxonim bor edi. Ancha yosh bo'lishiga qaramay vokal, raqs, musiqa san'atidan ustozlari Muhiddin

Qoriyoqubov, Usta Olim Komilov, Yusuffjon Qiziq Shakarjonov, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Xojisiddiq Islomov kabi mohir san'atkorlardan saboq oldi. Shu yillardan boshlab Tamaraxonim musiqali drama spektakllarida drama artisti, qo'shiqchi, raqqosa bo'lib ishtirok etib, har bir obrazda o'zining bor talanti, g'ayrati orqali san'atga butun vujudi bilan berilganini ko'rsatdi. 1924-yildayoq unga «birinchi Sharq qaldirg'ochi» deb ta'rif berildi.

Tamaraxonim ko'pqirrali iste'dod sohibasi sifatida baletmeysterlik mahoratini ham ko'rsata oldi. Farg'ona raqs uslubidan tashqari, o'ziga hos tarixi, jozibasi bilan Tamaraxonimni o'ziga rom etgan Xorazm qo'shiq va raqs san'atini xam chuqur o'rganishga kirishdi. Natijada, 1935-yilda Londonda bo'lib o'tgan birinchi halqaro raqs va musiqa san'ati festivalida jahonga noma'lum bo'lgan o'zbekning o'ziga hos san'atini namoyish qilib, Usta Olim Komilov bilan oltin medalga sazovor bo'ldilar. 1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan birinchi o'zbek san'ati dekadasida milliy raqslarni sahnalashtiruvchi baletmeyster ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O'zbek raqs san'atini yanada rivojlantirishda faol ishtirok etdi. Navoiy nomidagi teatr sahnasida birinchi o'zbek balet spektaklini yaratdi. Ye.Brusilevskiyning musiqasi asosida «Gulandom» baletini yaratib, librettoning muallifi, baletmeysteri va bosh rol ijrochisi ham bo'ldi. O'zbek xoreografiyasini rivojlantirish bilan birga, qo'shiq va raqsni birgalikda bog'lab olib bordi. U o'z repertuarlarini turli millat qo'shiq va raqslari bilan to'ldirdi. Qardosh xalqlarning ijodini chuqur o'rganib, o'zbek milliy sozandalar ansambli bilan ijro etib, mamlakatning turli burchaklariga qilgan safarlarida tomoshabinlarni ana shu xalq ijodi bilan tanishtirish imkonini yaratdi.

Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Gruziya, Ozarbayjon, Tojikiston kabi respublikalarga chiqib tomoshabinlar va tinglovchilarni o'zbek, qozoq, tojik, uyg'ur, arman, tatar, ozarbayjon, rus, ukrain va boshqa shular singari ko'plab xalq qo'shiq va raqslari bilan tanishtirdi. 1941-yil boshlangan II jahon urushi yillarida front ortida ansambl bilan ajoyib qo'shiqchilik san'ati orqali jangchilarning jangovor ruhini ko'ratib ularga ruhiy madad bo'ldi. Tamaraxonim G'arbiy Yevropa xalqlari san'atini o'rganib o'z repertuarini boyitdi. So'ng, Sharq mamlakatlaridan Hindiston, Afg'oniston, Indoneziya va Pokiston davlatlariga borib, ularni o'zbekcha qo'shiq va raqslar bilan tanishtirdi. Turli davlatlarga borib o'zbek san'atini targ'ib qilish

bilan birga, o'sha millat qo'shiq va raqslarini to'plab, milliy kiyimlari va taqinchoqlarini olib keldi hamda kolleksioner sifatida yig'di.

Tamaraxonimning ijodiy lobaratoriyasi jahondagi 86 millatning qo'shiq va raqslari bilan boyidi. Hozirgi kunda Tamaraxonimning uy muzeyidagi mukofotlari, liboslari, o'ziga tegishli bo'lgan tarixiy hujjatlari, suratlar, esdalik sovg'alari, gazeta va jurnallar sahifalarida bosilib chiqqan ko'pgina taqrizlar, artistka nomiga kelgan maktublar kabi eksponatlar uning o'zbek san'atida naqadar katta o'ringa ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu muzey davlatimiz tomonidan o'zbek san'ati tarixidan so'zlovchi, moddiy meros sifatida saqlanib kelinmoqda.



Mukarrama Turg'unboyeva (1913-y. – 1978-y.)

M.Turg'unboyeva 1913-yilda Farg'ona yaqinida, o'rtahol oilada tug'ilgan, otasi kichkina-ligidayoq olamdan o'tgan, onasini eslaydi. U tog'asimi'uyida tarbiyalangan. M.Turg'unboyevani kelinoyisining onasi avval xalq maktabida, keyinchalik pedagogika texnikumiga berib o'qitirgan.

Yoshligidan musiqaga ishtiyoqi baland bo'lgan Mukarrama texnikumdagi bir qancha to'garaklarga qatnashsada, ashula va raqs to'garagiga mehri bo'lakcha edi. To'garak rahbari Fotima Yo'ldoshboyeva boshchiligida konsert dasturlarini tuzib, texnikumda har juma kuni konsert berishgan.

1927-yilda Etnografik truppa bilan uchrashuv bo'ladi. Ular o'zlarining dasturini namoyish qiladilar. Shunda Tamaraxonim va Zuhur Qobulov Mukarrama va uning o'rtog'i Halima Rahimovani teatrdagi ishlash uchun birga ketishni taklif qiladi. Juda tashvishli paytlar bo'lgani sabab ular botina olmaganlar. Tamaraxonim «Dilxiroj» raqsini ijro etgan. Qo'llari hasratli tebranib, ko'zlarida azaliy chuqur qayg'u aks etgan bu raqsdan keyin, sho'x «Usmoniya» marshiga raqsga tushib ketadi. Bundan Mukarrama qattiq ta'sirlanib san'atkor bo'lishga qat'iy ahd qilib, diliga tugib qo'yadi. 1929-yili Toshmat Qodirov rahbarligidagi to'garakni Samarqand va Toshkentga «gostrol»ga taklif qilishdi. Gostrolga ketish oldidan «Samarqandga borganda teatrdagi qolaman», deb o'ziga maqsad qilib qo'yadi va maqsadiga yetadi. Samarqandga yetib kelib teatrdagi aktrisa bo'lib «yangicha hayot» boshlaydi. Nurxon, To'faxon va Tursunoylarning



bosqinchilar tomonidan o'ldirilib ketilgani bir tomondan yuragiga havotir solsa, bir tomondan teatrda aktrisalik qilgani, qo'shiq va raqs ijro etishi unga dadillik bahsh etar edi. 1929–1933-yillarda Birinchi O'zbek davlat musiqali teatr studiyasining aktrisasi va o'quvchisi bo'lgan. O'zbek raqsidan Usta Olim Komilov, Tamaraxonimlardan, klassik raqs bo'yicha K.Bek, YE.Obuxova, A.Tomskiy, I.Arbatovlardan, vo-

kal bo'yicha Sayanov, aktyorlik bo'yicha M.Muhamedov va S.Eshon-to'rayevalardan saboq olgan. Ilk rollarida Holjon xola, Fazilatning onasi, Yosuman, Yalmog'iz bonu kabi kampirlar obrazini, keyinchalik Osiyo, Zebo, Anorxon, Asalxon, Paxtaoy, Dilbar, Manija, Oqbilak kabi ko'plab yosh qizlarning obrazlarini yaratadi.

Shu bilan birga Usta Olim Komilov va Tamaraxonim sahnalashtirgan «Zang», «Buxorocha», «Iroq ufori», «Eroncha», «Layli va Majnun» kabi ommaviy raqslarda, «Duchava», «Katta o'yin», «Usmoniya», «Sadr», «Qari navo», «Ufori soxta», «Dilxiroj» kabi yakka raqslarni ijro etadi.

1933-yildan boshlab Respublika 1-balet maktabida o'qituvchi bo'lib ish boshlaydi. Dars berish jarayonida ustози Usta Olim Komilov bilan birga farg'ona raqs usullariga oid harakatlar va doira usullaridan foydalanib «Doira darsi va raqs» qo'llanmasini yaratdi. Hozirgi kungacha shu qo'llanma asosida o'zbek raqs fanini o'qitishda foydalanilib kelinmoqda.

1933–1957-yillarda o'zi ham «Nog'ora», «Uyg'urcha», «Munajat», «Tanovar», «Abduraxmon-begi», «Andijon polkasi», «Terimchi qiz», «Rohat», «Raqqosa», «Gulruh», «Pomircha», «G'ayratli qiz», «Sho'x qiz» kabi yakka raqsar va «Ulug' kanal», «Tinchlik uchun», «Shodiyona», «Muhayyir», «Paxta» 3 qismli syuita, «Pilla», «Tinchlik kaptari», «Sharflar bilan raqs» kabi ommaviy raqsar sahnalashtira boshlaydi.

1957-yilda Moskvada bo'lib o'tadigan IV Jahon demokratik yoshlar va studentlar festivalida qatnashish uchun qizlar raqs ansamblini tashkil etadi. Ularga «Ufori sanam» va «Paxta» ommaviy raqsarlarini qo'yadi. Ansamblga bastakor M.Mirzayev «Bahor valsii» kuyini bastalaydi va qizlar ansambliga «Bahor» deb nom beriladi. 1957-yildan umrining ohirigacha (1978-yilgacha) M.Turg'unboyeva



ansamblning badiiy rahbari bo'lib ishlaydi. Shu yillar davomida 600 ga yaqin milliy va jahon xalqlari raqslarini sahnalashtiradi. 40 nafar raqqosa qizlari bilan O'zbekistonning barcha viloyatlarida, chekka qishloqlarida o'z konsert dasturlarini namoyish etib el mehrini qozonadilar. Qardosh davlatlarning Mosk-

va, Leningrad, Lugansk, Krasnodon, Murmansk, Arxangelsk, Kiyev, Zakarpatye, Sochi, Suxumi, Tbilisi, Yerevan kabi shaharlariga qilgan safarlarida tomoshabinlarni o'zbek raqsi bilan tanitadi. Dunyoning juda ko'plab davlatlarida gostrol safarlarida bo'ladi. Hindiston, Xitoy, Eron, Singapur, Pokiston, Malayziya, Avstriya, Afg'oniston, Vengriya, Mongoliya, Germaniya, Albaniya, Italiya, Kambodja, Tailand, Sudan, Misr, Liviya, Jazoir, Tunis, Marokash, Polsha, Chexoslovakiya, Bolgariya, Shvetsiya, Laos, Angola, Finlyandiya, Malta kabi shaharlari shular jumlasidandir.

Mukarrama Turg'unboyevaning qilgan sharaflari bejiz va beiz ketmadi. «Xalq artisti» unvoni, «Shavkatli mehnati uchun» medali, «Hurmat belgisi» ordeni, davlatning ko'plab orden va medallari bilan taqdirlandi. Uning yorug' hotirasi uchun har yili 31-may kuni «Yil raqqosasi» Respublika ko'rik-tanlovi o'tkaziladi.

Mukarrama Turg'unboyeva o'zbek san'ati tarixida uning rivojiga ulkan hissasini qo'shgan buyuk san'atkor sanaladi. Dramatik aktrisa sifatida milliy teatrning poydevorini qurganlar qatorida, hamda o'zbek raqs san'atini butun jahonga tanitgan, o'zbek raqs maktabi asoschisi sifatida ardoqlanadi.



Isohor Oqilov (1914-y. – 1988-y.)

Isohor Oqilovni o'zbek xalqi qadimiy raqs san'atining bilimdoni, ijrochisi va baletmeysteri sifatida tanimiz. U o'zbek xoreografiyasi asoschilaridan biri, o'zbek zamonaviy sahna raqs san'ati yaratuvchisi hisoblanadi. Isohor Oqilovni yoshligidan san'atga yetaklab kelgan narsa bu xalq sayllari va tug'ilib o'sgan yurti Samar-

qandning to'yu-tomoshalaridir.

Ayniqsa, yashagan mahallasi san'atkorlari Gavriel Mullaqandov, Mixail Mullaqandov, Mixail Tolmasovlar hamda shunga o'xshash o'nlab xonanda va sozandalarning ta'siri katta rol o'ynaydi. 1932-yilda ustози Isroil Tolmasovning uyida Buxorolik raqqosaning ijrosidagi ilk marta ko'rgan «Charhi du zonu» raqsiga qiziqib qoladi va tinimsiz mashqlar evaziga tizzalari bilan aylanib ijro etiladigan raqsni o'zlashtirib oladi. Bundan tashqari, «Chilligi», «Daromadi doira», «Ko'histoncha», «Lagan o'yini», «Qilich o'yini», «Xorazmcha», gruzincha «Lezginka», armancha «Shalaxo» raqslarini ijro etib yurdi. Xalq artisti Isohor Oqilov Sharq madaniyatining qadimgi markazi bo'lgan Samarqand shahrida 1926-yillardan boshlab san'atga kirib keldi. 1928-yilda bu yerda muzika va xoreografiya ilmiy tekshirish instituti ochildi. Isohor Oqilov bu yerga o'qishga keldi va raqqos sifatida ham ish boshladi. Uning artistlik qobiliyati tezda ko'zga tashlandi. 1930-yilda Butunittifoq teatr va san'at olimpiadasi ishtirokchilari qatoriga qo'shildi. I.Oqilov o'z ijodiy faoliyatini ijrochi sifatida boshlagan bo'lsada, xalq raqslarini yaratuvchisi, baletmeyster bo'lishi aniq edi. I.Oqilovning birinchi ustozlari mohir doirachi va o'zbek raqs san'atining bilimdoni Usta Olim Komilov, Muhiddin Qori Yoqubov va Tamaraxonimlar edilar. Eng yetuk baletmeysterlardan bo'lgan F.Lopuxov, I.Moiseyev, G.Ulanova, R.Zaxarova, L.Lavrovskiy, A.Messerer, A.Bek, taniqli musiqachilar va opera rejissyorlaridan saboq oldi. 1935–1937-yillarda I.Oqilov «Mahalliy yahudiy Davlat teatri» bilan birgalikda Tojikistonda ishlaydi. Shu yerda tojik raqqosi Sang Alidan tog'lik Pomirliklarning sakrama harakatlarini, Ko'lobning keskin, lekin yengil harakatlarini, doira jo'rligidagi Ko'histoncha, Panjobcha va Shug'ononcha raqslarini o'rgandi. 1937-yilda respublika filarmoniyasining baletmeysteri lavozimiga ishga olindi. I.Oqilov ko'plab professional raqs ansambllarini tashkil etishda jonbozlik ko'rsatdi, havaskorlik raqs ansambllarini tashkil etishda qatnashdi. To'qimachilik kombinati qoshida tashkil etilgan va xalqaro konkurslar laureati bo'lgan havaskorlik raqs ansambli buning yorqin misolidir. Bu ansamblni I.Oqilovning turmush o'rtog'i Margarita Oqilova boshqargan va u sahnalashtirgan «Shodiyona» raqsini raqqosalar maromiga yetkazib ijro etganlar.

I.Oqilov tabiatan yaratuvchilik qobiliyatiga ega bo'lgan, xalq an'analari bilan bilimdoni va keyingi avlodga yetkazuvchisi, qobiliyatli raqqos va raqqosalarni izlab topa oladigan hamda ularning qobiliyatini

yuqori darajaga olib chiqadigan tashkilotchi va pedagog edi. I.Oqilov sahnalashtirgan raqslar xalq orasiga tezda kirib borgani sababli «Xalq raqslari ustasi» degan ta'rifga loyiq bo'ldi. I.Oqilovning uyini «Raqs lobaratoriyasi» deyish mumkin. Uning turmush o'rtog'i Margarita Oqilova, qizlari Viloyat Oqilova, Zulayho Oqilova, Lola Oqilovalar xam o'zbek raqs san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan raqqosa, baletmeysterlar hisoblanishadi. Z.Oqilova sahnalashtirgan «Gulruh» raqsini D.Jabborova ijro etgan.

1959-yilda 160 ijrochiga mo'ljallangan «Buxorocha katta bayram» syuitasini sahnalashtiradi.Unda asosan Buxoro musiqa madaniyatiga xos bo'lgan «Mavrigi», «Buxoro to'lqini», «Uzzol», «La'li labat», «Maxvashi nozik badan», «Kam-kamak», «Aspanjayiman» singari ashula va qo'shiqlariga raqslar sahnalashtiradi. I.Oqilov birinchi o'zbek baletlariga Usta Olim Komilov, M.Turg'unboeva, Tamaraxonimlar bilan birgalikda raqslar ham sahnalashtirdi. Bundan tashqari, uning ijodi kinofilmlar bilan ham bog'liq. 1939-yildan boshlab ekranga chiqqan «Chegarada», «Maftuningman», «Mahallada duv-duv gap», «Amirlikning yemirilishi», «Sevgi dramasi», tojikistonning «Rudakiy», «Hasan aravakash» kabi filmlarida ommaviy va yakka raqs ko'rinishlarini sahnalashtirgan.

«Doira raqsga chorlaydi» film-konsertda «Pomircha», «Buxorocha», «Ufori chilligi», Farg'onacha», «Go'zal qizlar», «Tantana» kabi raqslari o'rin olgan.

1961-yildan boshlab O'zbek davlat filarmoniyasiga qarashli «Shodlik» ashula va raqs ansamblining bosh baletmeysteri sifatida ko'plab ommaviy va yakka raqslardan iborat folklor-etnografik va saxnaviy raqslar sahnalashtirdi. Buxorocha uslubdagi «Shodlik», «Qizlar davrasi», «Qizlar salomi», farg'onacha uslubdagi yigitlar va qizlarning «Farg'onacha yoshlar raqsi» kabi ommaviy raqslarni sahnalashtirgan.

Yigitlarning «Lagan» raqsi», qizlar uchun «Tong malikasi», «Intizor», «Uzum teruvchi qiz», «Dil kuylasin», «Nozik tabassum», «Orom», «Ufori chillaki», «Larzon», «Ufori kalabandi», «Pomircha raqs», «Duxtari lola», «Sanami», «Suhayl va Mehri», «Ey dilbari janon» kabi buxorocha, farg'onacha va xorazmcha yo'nalishidagi, tojikcha, afg'oncha va boshqa turli millat raqslarini xam sahnalashtirgan. Bu raqslar o'zbek raqs merosi hisoblanadi. I.Oqilovning shogirdlari bo'lmish Seviliya Tanguriyeva, Dilorom Sherova, Klara

Yusupova, Gulchehra Azimova, Galiya Izmailova, Tamara Yunusova, Viloyat Oqilova, Zulayho Oqilova, Dilafruz Jabborova, Malika Ahmedova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Lola Oqilova, Qodir Mo'minov, Nazriddin Shermatov va boshqalar jahonning juda ko'plab davlatlarida «Shodlik» ansamblining dovrug'ini taratgan. I.Oqilov umrining oxirgi kunlarigacha ham o'zbek raqs san'ati rivojida, xususan, «Shodlik» ansamblining ijodiy faoliyatida beqiyos xizmat qildi. Davlatning ko'plab orden va medallari bilan taqdirlandi.



Roziya Zaripovna Karimova

(1916-y. – 2011-y. 15 mart)

Roziya Karimova – O'zbek baleti artisti, baletmeyster va raqsshunos olim. O'zbekiston xalq artisti, M.Turg'unboyeva nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan. R.Karimova 1916-yil Qozon shahrida tug'ilgan. 1929-yil Farg'ona meditsina texnikumining tayyorlov bo'limiga o'qishga kirib, shu yerdagi badiiy havaskorlik to'garagining a'zosi va rahbari bo'lgan.

1930-yilda havaskorlik san'ati olimpiadasida o'zbek raqslarini mahorat bilan ijro etganidan so'ng, Samarqanddagi O'zbek davlat musiqali dramatik teatr qoshidagi teatr studiyasiga yuborildi. Tez kunda Roziya Karimova shu teatrning solistiga aylandi. Shu vaqtdan boshlab sahnada lirik va qahramonlik raqslarini hamda dramatik rollarni ijro eta boshladi. Bulardan: Ozodaxon («Ichkarida», 1932-y), Anorxon («O'rtoqlar», 1930-y), Asalxon («Gulsara», 1935-y) rollaridir.

1934–1949-yillarda Toshkent musiqali teatrd, 1949–1953-yillarda A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida Gulandom (YE.Brusilovskiyning «Gulandom»-1940-y.), Oqbilak (S.Vasilenkoning «Oqbilak», 1943-y.), Fraskita (J.Bize «Karmen»), Kumushoy (M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning «Bo'ron») kabi bosh rollarni ijro etdi. «O'rtoqlar», «Bo'ron», «Gulsara», «Ulug'bek», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» operalariga raqslar sahnalashtirdi va yakka raqslarni ijro etdi.

1935–1960-yillarda Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqa va komediya teatrida baletmeysterlik qilish bilan bir vaqtda, «Nurhon», «Ravshan va Zulhumor», «Tohir va Zuhra», «Oftobxon», «Oq

nilufar», «Zafar» va boshqa shu kabi spektakllarda o'zi ham zo'r mahorat bilan raqslarni ijro etgan.

R.Karimovaning balet parativalari o'zbek xalq raqsi va pantomimaning bir-biriga uyg'un holda ijro etilishi bilan ajralib turadi. R.Karimova nafaqat iste'dodli raqqosa, balki mohir pedagog va raqs san'ati asoslarining nazariy va amaliy tadqiqotchisi hamdir.

1932-yildan O'zbek davlat xoreografiya bilim yurtida o'zbek xalq raqslari fanidan dars bergan bo'lsalar, 1964-yildan san'atshunoslik ilmiy tekshirish institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. Shu yillar davomida «Ferganskiye tansi», «Tansi Ravii Atadjanovoy», «Tansi ansamblya Baxor», «Tansi v postanovke Isaxara Akilova» kabi ilmiy o'quv adabiyotlarini yaratdi.

O'zbek raqs san'ati nazariyasi rivojlanishida qilgan ulkan ishlari uchun san'atshunoslik fanlari fahrli doktori ilmiy darajasini olganlar.

1942-yil O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, 1950-yilda O'zbekiston xalq artisti, bir qancha davlat mukofotlari, «Shon-shuhrat» va «El-yurt hurmati» orden va medallar sohibi bo'lgan.



Lyubov Avdeyeva (1928-y. – 2008-y.)

San'atshunoslik olimi, professor Lyubov Avdeyeva 1928-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan. Bolaligi Namangan shahrida o'tib, 1936-yildan Toshkentning Qashqar mahallasida yashab voyaga yetdi. O'quvchilar saroyida tashkil etilgan raqs studiyasida R.Sanina va Vera Gubskayalardan raqs san'ati sirlarini o'rgandi. O'zbek raqsi bo'yicha ustoz Usta Olim Komilovning asissentlari hisoblangan B.Arutinovadan ta'lim oldi. 1951-yilda Toshkent Teatr san'ati institutining «San'atshunoslik» fakultetini tamomladi. Teatrshunoslik fanlari bo'yicha jahon teatr san'atining bilimdonlari hisoblangan A.Afros, M.Grigoryev, I.Vishnevskaya, I.Martinovalardan saboq olgan. L.Avdeyeva o'zining shaxsiy talabi bilan o'zbek raqsini Ali Ardobus Ibragimovdan, rejissura kursi bo'yicha esa mashhur o'zbek rejissyori Mannon Uyg'urdan ta'lim olgan. Raqs studiyasini tugatganidan so'ng Toshkent xoreografiya bilim yurtiga yuboriladi. U yerda Tamaraxonim, M.Turg'unboeva, I.Oqilov, L.Petrosova,

G.Rahimovalar bilan yaqin muloqotda bo'lgan. Ularning raqs san'ati haqidagi fikrlari va hotiralarini yozib ola boshladi. Ish jarayonlarini, alohida raqs va uning harakatlarini suratga oldi. 1953-yildan Hamza nomidagi San'atshunoslik institutida ishlay boshladi. 1956-yildan respublikaning barcha tumanlariga ilmiy ekspeditsiya qilishni boshlagan. Surxondaryoning barcha qishloq va shaharchalarini kezib, xalq ijodiyoti bo'yicha tadqiqot qilishni boshladi va Boysun madaniy hududini alohida o'rganib chiqdi. Keyinchalik har yili ikki-uch oylab viloyat rahbarlarining taklifi bilan yoki institut tomonidan tashkillashtirilgan ekspeditsiyalar o'tkazilishi jarayonida O'zbekistonning barcha hududlarida ilmiy tekshiruv ishlarini olib bordi. 1956–1985-yillar davomida xalq ichidagi bilimdonlardan san'at va madaniyatga tegishli ma'lumotlarni og'zaki, yozma, foto suratga olish va kino lentalariga olish orqali xalq ijodiyoti merosini saqlab qolishga kirishdi. Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Qo'qon, Namangan va tog'li qishloqlarning raqs harakatlarini, doira usullarini o'rganib chiqdi. Asosiy ekspeditsiyalarda unga Nazir Tursunov, Valentina Ulyanova, Fazliddin Shamsutdinovlar hamrohlik qildilar.

Lyubov Avdeyeva Roziya Karimova bilan birgalikda XX asr o'zbek xoreografiya san'ati haqidagi «Tamaraxonim», «Mukarrama Turg'unboyeva», «Galiya Izmailova», «Bernora Qoriyeva», teatr san'ati haqidagi «Abror Hidoyatov», «Sora Eshonto'rayeva», «Muhiddin Qoriyoqubov» va boshqa bir qancha ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratdi.

O'zbek xoreografiya san'ati sinchiklab o'rganib, tadqiq etib, uning nazariy asoslarini yaratib ketgan L.Avdeyeva o'zidan keyingi avlod vakillari, san'atshunos va raqsshunoslar uchun o'lmas me'rosni qoldirib ketdi.

Galiya Bayazitovna Izmailova (1923-y. – 2010-y.)

O'zbek xoreografiya san'ati tarixida birinchi professional va yetuk balerina deb tan olingan G.Izmailova Tomsk shahrida tug'ilgan. 1941-yilda Toshkent balet maktabini, 1961-yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tamomlagan.

1941-yildan A.Navoiy nomidagi teatrning yetakchi balet yakkaxoni bo'lib ijodiy ish faoliyatini boshlagan. 1977–1985-yillarda

A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrining bosh baletmeysteri va baletmeyster lavozimlarida ishlab keldi.

«Oqbilak»da Semurg‘, «Bog‘chasaroy fontani»da Mariya, Zarema, «Don Kixot»da Kitri, «Qirq qiz»da Guloyim, «Lolaqizg‘aldoq»da Tao-xao, «Oqqush ko‘li»da Odetta-Odiliya, «Don Juan»da Xuanita, «Raqqosa»da Gulnora, «Karmensyuita»da Karmen, «Layli va Majnun»da Layli, «Sevgi tumori»da Chundari, «Spartak»da Egina kabi obrazlarni yuksak mahorat bilan ijro etgan. Uning ijrosidagi nafosat, texnikasining mukammalligi, Yevropa klassik raqsini milliy raqs bilan uyg‘unlashgan harakatlari orqali badiiy obraz yaratishi katta yutug‘i hisoblanadi. Baletmeyster sifatida «Oqqush ko‘li», «Navro‘z», «Shahrizoda», «Sevgi tumori, «Kashmir afsonasi», «Sevgi afsonasi», «Esmeralda», «Orzu», «KnyazIgor», «Bo‘ron», «Faust», «Zebuniso», «Umar Hayyom», «Al Farg‘oniy» kabi operalarning raqslarini sahnalashtirgan. Farg‘ona, Buhoro, Xorazm raqs san‘atini Yevropa raqs san‘ati bilan uyg‘unlashgan zamonaviy raqs miniatyuralarining ijrochisi va yaratuvchisidir. M.Ravelning «Bolero» va M.Ashrafiyning «Dilorom» operasi uchun «So‘g‘diyona», «Hindi», «Arab», «Farg‘ona» kabi mustaqil xoreografik miniatyuralari shular jumlasidandir. Bundan tashqari «Jahon xalqlari raqslari» nomli konsert dasturini yaratdi. 1984-yilda G.Izmailovanning ijodiy faoliyati haqidagi «Umrta teng raqs» nomli film suratga olingan.

O‘zbek milliy raqs tarixi shakllanishida ham munosib o‘rinni egallagan san‘atkor hisoblanadi. «Bahor», «Lazgi» raqs ansambllariga bir qator raqslarni sahnalashtirgan. Qardosh va boshqa turli davlatlarda gostrol safarlarida bo‘lib, ularning xoreografiya san‘atini o‘rgandi. G.Izmailovanning repertuari qatoridan Hindiston, Indoneziya, Myanma, Suriya, Misr, Meksika, Argentina, Kuba xalqlarining raqslari o‘rin olgan.

Sharafli va mashaqqatli mehnatlari inobatga olinib 1951-yilda «O‘zbekiston xalq artisti» unvoniga sazovor bo‘ldi. 1970-yilda O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati, 1997-yilda «Shuhrat» medali, 1998-yilda «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlandi. Professor Lyubov Avdeyeva tomonidan 1975-yilda «Galiya Izmailova» deb nomlangan kitob nashrdan chiqarildi.

Bernora Rahimovna Qoriyeva (1936-y.)

Balerina va baletmeyster Bernora Qoriyeva Toshkent shahrida teatr arbobi Rahim Qoriyev oilasida tug'ilgan. 1952-yilda Toshkent xoreografiya bilim yurtini, 1955-yilda Moskva akademik xoreografiya bilim yurtini tamomladi.

1980-yilda Toshkent davlat madaniyat institutini tamomladi.

1955-yildan 1985-yilgacha A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrida balerina va baletmeyster bo'lib ijodiy faoliyatini olib bordi. Shu yillar ichida repertuaridan joy olgan jahon mumtoz va zamonaviy baletlaridan «Boqchasaroy fontani»da Mariya, «Shopeniana»da Shopeniana, «Jizel»da Jizel, «Oqqush ko'li»da Odetta-Odiliya, «Spartak»da Frigiya, «Xonim va bezori»da Xonim, «Maskarad»da Nina, «Momaqaldiriq so'qmoqlari»da Sari, «Don Juan»da Donna Anna, «Anna Karenina»da Anna Karenina, «Romeo va Julyetta»da Julyetta «Gamlet»da Ofeliya, «Otello»da Dezdemona va boshqa ko'plab obrazlarni yaratdi. B.Qoriyeva klassik baletning murakkab texnikasini puhta egallagani qahramonlarini jonlantirib berishda, ularning ichki kechinmalari va his-tuyg'ularini to'la namoyon qilishda qo'l keldi. «Suhayl va Mehri», «Sevgi tumori, «Sevgi va qilich», «Tanovar», «Afsonalar vodiysi» kabi milliy baletlarda Mehri, Soxani, Zarina, Nurxon, Nargiz kabi turli xarakterdagi obrazlarni zo'r ishtiyoq va mahorat bilan ijro etgan. 1985–1998-yillar davomida O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi raisi vazifasini bajardi. 1994–2002-yillarda A.Navoiy nomidagi opera va balet teatrining badiiy rahbari va direktori lavozimida ishlab keldi.

O'zbek xoreografiya san'atining rivojlanishida va jahonning Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlarida o'zbek balet san'atini namoyish qilishdagi sharaflari mehnatlari evaziga 1970-yil va 1982-yillarda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, 1983-yilda Davlat mukofoti laureati, 1996-yilda «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan. U haqida «Bernora Qoriyeva raqsga tushadi», «Men balerinaman», deb nomlangan hujjatli filmlar yaratilgan. Professor Lyubov Avdeyeva 1996-yilda ijodiy faoliyatni yoritib beruvchi «Bernora Qoriyeva», deb nomlangan kitobini nashrdan chiqargan.

1964-yil O'zbekiston xalq artisti, 1973-yil xalq artisti, 1996-yil Qirg'iziston Xalq artisti unvonlari bilan taqdirlangan. 1985-yildan professor ilmiy unvonini oldi.

II bob. AMALIY QISM. RAQS SAN'ATINI O'QITISHNING ASOSIY PREDMETLARI

2.1. Klassika fani va uning mashqlari

1. Stanok yonidagi ekzersis tartibi:

1. Demi pliye (Demi pliye) – yarim o'tirish, grand pliye (grand pliye grand pliye) – to'liq (chuqur) o'tirish.

2. Battement tandyu (Battement tendu) – oyoq uchini tortib polda(oldinga, yonga, orqaga) siljitib ochish va boshlang'ich holatiga yopish.

3. Battement tandyu jette (Battement tendu jete) – oyoq uchini tortib poldan 25^0 ga (oldinga, yonga, orqaga) otish va boshlang'ich holatiga yopish.

4. Rond-de-jambe par terre (Rond-de-jambe par terre) – oyoq uchini tortib polda aylana chizish. Andedan (andedan) – ichkariga aylantirish, andeor (andehore) – tashqariga aylantirish.

5. Battement fondyu (Battement fondyu) – ishchi oyoqni to'piq (*Cou-de-pied*) kudepyedga tegizib «demi pliye» bilan 25^0 ga yumshoq, mayin (oldinga, yonga, orqaga) ochib-yopib bajariladigan harakat.

6. Battement frappe (Battement frappe) – ishchi oyoqni to'piq (*Cou-de-pied*) kudepyedga zarb bilan urib, 25^0 ga havoda (oldinga, yonga, orqaga) ochish va yopish.

7. Battement relevelyant (relevelant) – oyoq uchini tortib siljitib (oldinga, yonga, orqaga) ochish va havoga ko'tarib turish.

8. Developpe (developpee) – oyoqni uchini tortib tizzagacha ko'tarish va (oldinga, yonga, orqaga) havoga ochish.

9. Rond-de-jambe an lear (Rond de jambe en l'air) – Havoda oyoq uchini tortib aylantirish. Andedan (andedan) – ichkariga aylantirish, andeor (andehore) – tashqariga aylantirish.

10. Grand battement jette (Grand battement jette) – oyoqni 90^0 ga (oldinga, yonga, orqaga) otish.

11. Releve (*Releve*) – oyoqning I-II-V holatlarida yarim barmoqlarga, ya'ni oyoq uchiga ko'tarilish.

12. Kude pyed (*Cou-de-pied*) – ishchi oyoqning to‘piqda turgan holati.

13. Adajio (*Adajio*) – harakatning juda sekin bajarilishi.

Masalan, «*Developpe*» yoki «*Rond-de-jambe anlear*».

14. Aplomb (*Aplomb*) – tananing tik turgan holati. Aplomb to‘g‘ri qo‘yilsa kombinatsiyalarni aniq bajarish osonlashadi.

2. Zal o‘rtasidagi ekzersis tartibi:

1. Por de bra (*Port de bras*) – qo‘l, bosh va gavda uchun mashq; bosh va gavdaning egilishlari.

2. Eshappe (*Echappe*) – Oyoqni havoda ochib ikkinchi holatga sakrab, yana beshinchi holatga sakrab yig‘ib olish.

3. Sotte (*Soute*) – bir joyda turli pozitsiyalarda sakrash.

4. Shashman de pyed (*Changement de pieds*) – Oyoqni beshinchi holatda havoda almashtirib sakrash.

5. Arabesk (*Arabesque*) – Holatlar nomlari. Klassik raqsdan 1,2,3,4 holatlar mavjud.

6. Attityud (*Attitude*) – Holat, oyoqning 90 gradusda «*kruaze*» va «*effase*» holatlarida orqaga ko‘tarilgan, tizzalar sal bukilgan holati.

7. Batman sutenyu (*Battement soutenu*) – oyoq uchida beshinchi holatda turish

8. Pa ambuate (*Pas emboite*) – sakrash vaqtda havoda yarim bukilgan oyoqni almashtirib bukib olish.

9. An fas (*En face*) – To‘g‘ri. Gavda, bosh, oyoqning to‘g‘riga qarab turgan holati.

10. Fuede (*Fouette*) – Raqsdan tez va aniq aylanishlarning bir ko‘rinishi. Ochiq oyoq aylanish vaqtida to‘piqga qo‘yiladi va yana ochiq holatda qoladi.

11. Passe (*Passe*) – Bog‘lovchi harakat, oyoqning o‘tishi yoki oyoqni oldindan orqaga va orqadan oldinga o‘tkazish.

12. Pti (*Petit*) – kichik.

13. Pliye (*Plie*) – o‘tirish.

14. Preparasion (*Rreparation*) – tayyorlov, tayyorlagish.

15. Releve (*Releve*) – ko‘tarilish, o‘sish. Oyoq uchiga yoki yarim barmoqga ko‘tarilish.

Tana barqarorligi uchun egilishlar, oyoq uchiga ko‘tarilishlar, sakrashlarning har xil turlari bajariladi.

Har bir kombinatsiya «preparasion» harakati bilan boshlanadi. Stanok tomonida oyoq «tayanch oyoq» bo‘lib, kombinatsiyalarni

bajarish vaqtida tana og'irligi shu oyoqda bo'ladi. Zal o'rtasi tomondagi oyoq «ishchi oyoq», deb ataladi va tegishli kombinatsiyalarni bajaradi. Stanok yonidagi ekzersis talabalarning o'zlash-tirish holatiga qarab zal o'rtasida (tayanch yog'ochisiz) ekzersis davom ettiriladi. So'ngra turli oyoq holatlarida katta-kichik sakrashlardan iborat bo'lgan «allegro»ni bajarishga o'tiladi. Klassik raqs fani o'qitilish yiliga qarab oddiy harakatlardan umumlashgan murakkab kombinatsiyalarga o'tiladi.

3. Tana barqarorligi uchun mashqlar. Klassikada harakatlarni aniq bajarish uchun tana barqarorligini rivojlantirish asosiy shartlardan biridir. Bunga stanok oldidagi ekzersisni bajarish orqali erishiladi. Bosh yuqoriga tortilgan, yelkalar tushirilgan, barcha mushaklar va tizzalar tortilib bel qismida yig'ilgan, oyoq kaftlari polga to'liq tegib turadi. Barqarorlikni rivojlantirishda qo'llarning holati ham alohida o'rin tutadi. Chunki qo'llar gavdaning muvozanatini saqlab turadi. Stanok tomondagi oyoq *tayanch* oyoq bo'lib, kombinatsiyalarni bajarish davrida tana og'irligi shu oyoqda bo'ladi. *Ishchi* oyoq bilan tegishli kombinatsiya bajariladi. Tana barqarorligi uchun egilishlar, oyoq uchiga ko'tarilishlar, trampin (sakrash turlari) mashqlari bajariladi.

4. Qo'lning tirsak, kaft va barmoqlari uchun mashqlar. Qo'lning 3 ta pozitsiyasi (holati) orqali mashqlar bajariladi.

Tayyorlov holatida qo'llar pastda tirsak va bilakdan yarim oy shaklida bukilib, kaftlarning ichki tomoni yuqoriga qaragan, o'ng va chap qo'l barmoqlarning uchi bir-biriga yaqin turadi. Qo'llar gavdaga tegmasligi, yoki juda oldinga ko'tarilib ketmasligi kerak.

Birinci holatda tirsak va bilakdan yarim oy shaklida bukilgan, qo'llar oshqozonning to'g'risida turadi. Kaftlarning ichki tomoni o'ziga qaragan, o'ng va chap qo'l barmoqlarning uchi bir-biriga yaqin turadi. Jimjiloq huddi tirsakning davomiday bir chiziqni tashkil etadi. Bu holatda, katta koptokni quchib turganday bo'lishi kerak.

Ikkinchi holatda qo'llar biroz qiya holatida ikki yon tomonlarga ochiladi. Kaftlarning ichki tomoni bir-biriga parallel turishi lozim. Qo'l huddi elkaning davomiday bo'lib, yelkadan suv quyilganda barmoqlarning uchigacha borib oqishi kerak. Tirsak va bilak keskin bukilgan bo'masligi shart.

Uchinchi holatda yarim oy shaklida bukilgan qo'llar bosh ustida (sal oldinroqda) yuqoriga ko'tarilgan. Kaftlarning ichki tomoni pastga

qaragan, o'ng va chap qo'l barmoqlarning uchi bir-biriga yaqin turadi. Tirsaklar ikki yon tomonlarga qaragan.

Qo'lning tirsak, kaft va barmoqlari uchun mashqlar bajarayotganda qo'llar tayyorlov holatidan avval I- holatga, keyin III holatga ko'tarilib, so'ngra qo'llarning qirrasini bilan huddi havoni kesganday II holatga tushiriladi va yana tayyorlov holatiga qaytiladi.

5. Oyoq uchun mashqlar. *Relevye* – 1-2-5 holatlarda yarim barmoqlarga ko'tarilish. Bu holatlarni bajarish uchun qomatni tik tutib, oyoqning tovonidan boshlab yuqoriga qattiq tortilgan holda tizzalarni bukmasdan asta-sekin ko'tarilib tushiladi. Bu mashqni to'g'ri bajarish uchun avval stanokga yuz bilan turib bajariladi. *Relevye* – oyoqlarni **tarbiyalab** uning qayriluvchanligini, buriluvchanligini oshiradi.

Ku-de-piyed – bu holat ishchi oyoqning tayanch oyoq to'pig'ida turgan holati. Ishchi oyoqning barmoqlari qattiq tortilib, tayanch oyoq to'pig'ini quchib oladi. Bunda ishchi oyoqning barmoqlari tayanch oyoqning orqasida, tovon esa tayanch oyoqning oldida turadi.

Allegro – kichik sakrashlar. Bu mashqlar poldan uzilish bo'lib, sakrash demi-pliyedan boshlanadi. Sakrash oyoq kaftining va tovonning poldan kuch bilan itarilishi orqali bajariladi. Sakrash chog'ida gavda, tizzalar tortilib, mushaklar zo'riqib, oyoq barmoqlari uchli bo'lib cho'zilgan holda bajariladi. Sakrashdan keyin avval, barmoq uchlari, so'ng butun oyoq kafti polga yumshoq tushadi va demi-pliyeda yakunlanadi.

Stanokdagi ekzersis. 1-mashq: *Demi plie va grand plie* – oyoqlar I holatda, qo'l tayyorlov holatida (chap oyoq–tayanch, o'ng oyoq–ishchi).

«Preparation» – Qo'l «bir» sanog'iga I-holatga, «2» sanog'iga 2-holatga ochiladi. Oyoq o'z holatida qoladi.

Kombinatsiya – «1-i-2-i» sanog'iga tizzalar yonga ochilib, yarim o'tiriladi, gavda tik holatga, «3-i-4-i» sanog'iga avvalgi holatga qaytiladi. Bu mashq ikki marta bajariladi. «1-i-2-i-3-i-4-i» sanog'iga tizzalar yonga ochilib, to'liq o'tiriladi, gavda tik holatga, «1-i-2-i» sanog'iga avvalgi holatga qaytilib, «3-i-4-i» sanog'ida oyoq uchini cho'zib 2-holatga ochiladi. Gavda og'irligi o'rtada. Bu kombinatsiya 2 va 5 holatlarda qaytariladi.

2-mashq: *Battement tendus* – oyoqlar V holatda, qo'l tayyorlov holatida.

(chap oyoq – tayanch, o'ng oyoq – ishchi)

«Preparasion» dan so'ng-

Kombinatiya- «1-i-2-i» sanog'iga oyoq uchini tortib oldinga ochiladi. «3-i-4-i» sanog'iga avvalgi holatga qaytiladi, nigoh yonga qaratilgan. «1-i-2-i» sanog'iga yonga ochilib, «3-i-4-i» sanog'iga 5-holatga orqaga yopiladi, nigoh to'g'riga qaratilgan. «1-i-2-i» sanog'iga orqaga ochilib, «3-i-4-i» sanog'iga 5-holatga qaytiladi, nigoh yonga qaratilgan. «1-i-2-i» sanog'iga yonga ochilib, «3-i» sanog'iga V holatga oldinga yopiladi va demi plié bajariladi, qo'llar «allonje» holatida, nigoh yonga qaratilgan, «4-i» sanog'iga gavda tik holatga, qo'llar tayyorlov holatiga qaytadi.

3-mashq: *Battement tendus jette* – oyoqlar holatda, qo'l tayyorlov holatida. (chap oyoq – tayanch, o'ng oyoq – ishchi).

«Preparasion» dan so'ng:

Kombinatiya – «1-i» sanog'iga oyoq uchini tortib oldinga havoga otiladi. «2-i» sanog'iga oyoq havoda ushlab turiladi. «3-i-4-i» sanog'iga avvalgi holatga qaytiladi, nigoh yonga qaratilgan, «1-i» sanog'iga oyoq uchini tortib yonga havoga otiladi. «2-i» sanog'iga oyoq havoda ushlab turiladi. «3-i-4-i» sanog'iga V holatga orqaga yopiladi, nigoh to'g'riga qaratilgan. «1-i» sanog'iga oyoq uchini tortib orqaga havoga otiladi. «2-i» sanog'iga oyoq havoda ushlab turiladi. «3-i-4-i» sanog'iga V holatga orqaga yopiladi, nigoh yonga qaratilgan. «1-i» sanog'iga oyoq uchini tortib yonga havoga otiladi. «2-i» sanog'iga oyoq havoda ushlab turiladi. «3-i» sanog'iga 5-holatga oldinga yopiladi va oyoq uchiga ko'tariladi, qo'llar «allonge» holatida, nigoh yonga qaratilgan, «4-i» sanog'iga demi plié bajarilib, so'ng gavda tik holatga, qo'llar tayyorlov holatiga qaytadi va ijodiy didni o'stiradi.

2.2. Jahon xalq raqslari va uning mashqlari

1. Oyoq uchun mashqlar:

1-mashq – Uzatilgan oyoq holati (oyoqning tizza va kaft yuzu cho'zilgan) – 1-pozitsiyadan oyoq barmoqlari uchli tortilib yonga, oldinga, orqaga polda siljitib ochiladi. Bu mashqni yarim o'tirgan holatida ham bajarish mumkin.

2-mashq – Biroz bukilgan oyoq holati (yarim o'tirish holati)-tizzalar sal bukilgan va yonga ochilgan. Oyoqning tagi polga to'liq

tegib turadi. Gavda og'irligi.4- ochiq holat orqali yarim o'tirish bilan orqa oyoqqa o'tadi, tizzalar tortiladi va oldingi oyoqqa qaytadi.

3-mashq – Kaft yuzi qisqargan holati (oyoq kaft yuzi qattiq qisqargan, barmoq uchlari yuqoriga ko'tarilgan) 5 - ochiq holatdan oyoq oldinga havoga biroz ko'tarilib tovon polga uriladi, keyin shu harakat yonga, orqaga va yana yonga bajarilib 5 - holatga yopiladi.

4-mashq – 1-pozitsiyadan oyoq barmoqlari uchli tortilib oldinga, yonga, orqaga havoga otiladi. Bu mashqni yarim o'tirgan holatida ham bajarish mumkin.

5-mashq – Tayanch oyoq 1- ochiq holatida, ishchi oyoqning tashi qirrası bilan orqaga va oldinga polda suriladi, barmoq uchlari qattiq tortiladi va bosh barmoq bilan yonga ochiladi. So'ngra orqaga olib borilib ichki tomoni bilan 1-ochiq holatga qaytadi.

2. Qo'l uchun mashqlar: Qo'lning 7 ta pozitsiyasi va 3 ta holatidan turli xil harakatlar bajariladi.

1-mashq – 1-pozitsiyadagi qo'llar oldinga ochilib 1- holatga keladi. So'ngra, qo'llarning biri oldidan bukilib barmoq uchlari ikkinchi qo'lning tirsagi tagiga tegib turadi, kaft ishi pastga qaragan. Ikkinch qo'l esa, tirsakdan yuqoriga bukiladi. Ko'rsatkich barmoq yuzga tegib turadi. Qolgan barmoqlar erkin holatda. Bu mashqni ikkinchi tarafdin qaytarish mumkin.

2-mashq – Qo'llar tayyorlov holatdan 1-holat orqali 2-holatga ko'tariladi. Kaftlar yuqoriga qaragan. Keyin shu holatlar orqali tayyorlov holatidan o'tib, orqaga salgina ko'tariladi. Kaftlar ichi orqaga qaragan.

3-mashq – Qo'llar 4- pozitsiyada. O'ng qo'l 4-pozitsiyada qoladi, chap qo'l esa, ochiq kaft bilan oldindan o'tib 1-pozitsiyaga ochiladi. So'ng, yopiq kaft bilan oldinga yarimoy shaklida yopiladi. Bu mashqni ikkita qo'l bilan bajarish mumkin va bir necha marta takrorlanadi.

4-mashq – Qo'llar 1-pozitsiyadan 2 va 3-orqali o'tib, 5-pozitsiyasiga keladi. Navbat bilan tirsaklar o'z holatini o'zgartirmagan holda pastga va yuqoriga ko'tarilib-tushiladi.

5-mashq – Chap qo'l 4-pozitsiyada, o'ng qo'l tayyorlov holatidan yopiq kaft bilan chap tarafga suzib o'tadi va 2-3- pozitsiyalar orqali katta aylana shaklini hosil qilib aylantiriladi. Bu mashqni ikkita qo'l bilan ham bajarish mumkin.

2.3. Tarixiy-maishiy raqslar va uning mashqlari

Ta'lim dasturining birinchi qismida tarixiy-maishiy raqslar elementlari, bu elementlarni birlashtiruvchi kichikroq kompozitsiyalar va ancha sodda raqslar hisobga olinadi. Pedagog talabalarni bu elementlar va raqslarga o'rgatishi, ularda muvofiqlik, musiqaviylik, ifodaviylik va muloyim ijroni rivojlantirish lozim.

Birinchi qismda quyidagilar o'rganiladi:

- Tana, bosh, qo'llar, oyoqlarni to'g'ri tutish;
- Qo'l va oyoqlar vaziyati (tarixiy-maishiy raqslarda qo'llaniladi);
- Qadamlar: maishiy, turli musiqa o'lchami, ohangi va sur'atida yengil (raqsbop);

-3/4 va 4/4 musiqa o'lchamlarida ta'zim va reverans;

-2/4 va 3/4 da pas glisse (sirpanuvchi qadam);

-2/4 da pas chasse (ikkilama sirpanuvchi qadam);

-Pas eleve (yonga qadam);

-Sakrab chopish;

-Pas chasse barcha shakllari (I, II, III, IV va pas double chasse);

-Pas balance: Joyida, hamda 45 va 90 gradusga aylanib, qadamlar va ta'zimlar bilan aralashtirib.

-Pas de basque

-Polonez: Polonez pas, zalda aylana bo'ylab juftlikda, polonezning sodda chizmasi.

- Polka: A) Pas o'rnida polka: oldinga va orqaga, u yondan bu yonga;

B) Oldinga, orqaga jilib;

V) O'ng tomonga doira bo'ylab aylanish solo;

G) O'ng tomonga doira bo'ylab juft aylanish;

D) Juftlikda oddiy kombinatsiyalar.

- Doira bo'ylab ruscha yurish.

- Uch pas valsi: A) Doira bo'ylab o'ng va chap tomonga aylanish;

B) Doira bo'ylab o'ng va chap tomonga juft aylanish;

V) Boshqa raqs elementlaridan sodda kombinatsiyalar.

«Tarixiy-maishiy raqs» fani va uning xususiyatlari:

-Tarixiy-maishiy raqsda oyoq va qo'l holatlari va ularning klassik raqsdagi aynan shu holatlardan farqi;

-Klassik raqs qadamining tarixiy-maishiy raqs qadamidan farqi;

- «Epaulement croise» va «Epaulement efface» raqs holatlari;

-Bir-biriga qo‘l uzatish, juft bo‘lib turish va harakat qilish.

Teatrlar repertuaridan joy olgan Yevropa klassik asarlarida tarixiy-maishiy raqs alohida o‘rin tutadi.

Tarixiy-maishiy raqsda qo‘l va oyoqlar holati klassik raqs holatlariga mos keladi. Faqat u yerda oyoqlar holati biroz burilgan bo‘ladi. Bunda V holat qo‘llanilmaydi, II va IV holatlar esa o‘tuvchi sifatida ko‘proq qo‘llaniladi. Ijro chog‘ida tana to‘g‘ri tutiladi, bosh yuqoriga ko‘tariladi.

Tarixiy-maishiy raqsda epaulement croise, epaulement effsce holatlaridan foydaniladi. Raqs qadam dastlabki ta‘lim elementlaridan biri hisoblanadi. Tarang cho‘zilgan oyoqni asta va yengil tushirilishiga e‘tibor qaratishi zarur bo‘ladi.

2/4, 3/4 va 4/4 singari turli musiqiy xajmlarda mashq qilish foyda beradi. Bunda har chorak, har nimchorak, butun takt bo‘yicha qadam tashlash, ularni almashtirish, to‘xtash mashqlarini bajarish mumkin. Juftlik holati va qo‘llarni uzatish «polonez» misolida o‘rganiladi. Bunda yigit yetakchi, ayol esa undan oldinda bo‘ladi.

«Polonez»

Polez tarixi «zona yurishi» polyak xalq raqsi bilan bog‘liq. Xalqdan bu raqs kambag‘al shlyaxtaga o‘tdi, so‘ngra boy polyak magnatlari saroylarida ijro etildi. Fransuz raqs ustalari unga «polonaise» - polyakcha nomini berdilar va XVIII asr boshidayoq u butun Yevropa bo‘ylab ijro etila boshladi, barcha kechalar, dabdabali ballarda ijro etildi. Tantanavor ohangli musiqqa, nisbatan yengil ijro uni ommabop qilib qo‘ydi. Ko‘plab juftliklar turli xilda raqs tushushlari, har doim viqor bilan qadam tashashlari, har bir chorak taktida o‘tirib turishlari mumkin bo‘lgan. XIX asr boshiga kelib polonez o‘zining dastlabki xalqona xususiyatini yo‘qotdi. Faqat adl qomat, juftlikdagi o‘ziga xos holat va uyg‘un qadam kabilar saqlanib qoldi, qadamlar ancha yengil va ohista tashlanadigan bo‘ldi. Polonez klassik dramaturgiya sahnalashtirayotgan dramatik teatrlarda ham zarur bo‘ladi. Teatr va kino aktyorlarini tarbiyalanayotganda polonez raqsini o‘rgatish ayniqsa muhimdir.

«Vals»

Vals – eng ommabop, suyuqli va o‘lmas raqslardan biri. U xalq orasida paydo bo‘lgan, raqslarida XVIII asr oxirida paydo bo‘ldi,

ammo ajoyib musiqa paydo bo'lishi bilan uning shuhrati olamga ketdi. Bunday musiqalarni bu paytlarda eng yaxshi kompozitorlar yaratardi. Dastlab vals «axloqsiz» raqs hisoblandi, u o'sha paytda salon raqslarining qonunlarini buzdi. XX asr boshlarida modamop fokstrot va charlston valsni bir muddatga siqib chiqardi, ammo tez orada u o'zining abadiyligini isbotladi.

Vals tarkibiy qism sifatida kiradigan «Vals - mazurka», «Vals-gavot» singari ko'plab raqslar yaratilgan edi, ammo mustaqil raqs shakli sifatida hozirgi kunda ham raqs ommabopdir. U Koralli, Perro, Ivanov, Petipalar tomonidan tuzilgan o'lmas xoreografik kompozitsiyalar yaratilgan Adan, Deliba, Chaykovskiy, Glazunov baletlari sahnasidan ham katta o'rin egalladi. Valsni o'qitish metodikasi turli xildan ko'rinishlardan iborat. Bizning yozuvimizda ulardan biri aks etgan. Birinchi kursdan talabalarga valsni ko'rsatayotib undagi harakatlarning silliqligi va uyg'unligi, keskin plie va «sakrovchi» qadamlarning yo'qligini ta'kidlash lozim. Ijro paytida oyoqlar poldan uzilmay, kaftlar pol bo'ylab sirpanadi.

2.4. O'zbek raqsi va uning mashqlari

1. Qo'lning kaft va barmoqlari uchun mashqlar – kaft va barmoqlarni ko'tarib-tushirish. Bunda qo'llar tayyorlov holatidan boshlab, 1 - holat orqali 2 - holatgacha ko'tariladi va yana shu holatlar orqali dastlabki holatga qaytiladi. Barmoqlarning to'liqlik, titratmali, qirsillatish, ichkariga va tashqariga aylantirish kabi turlaridan foydalaniladi.

«Qanot», «Gul bargi», «Yiriko'lqin», «Mayin sabo», «Labi g'uncha», «Labishakar» kabi harakatlardan foydalaniladi. Mashq vaqtida kaft va barmoqlarning mayin bajarilishiga etibor berish kerak.

2. Yelka uchun mashqlar – ikkala yelkani bir vaqtning o'zida yuqoriga va pastga ko'tarib-tushirish hamda birin-ketin oldinga va orqaga harakatlantirish. Bunda yelkani qizlar mayinlik va noz bilan («Titratma» harakati), yigitlar esa keskin va viqor bilan bajarishlari kerak.

3. Bosh uchun mashqlar. Boshni qo'llarning harakatlanishiga qarab to'g'riga, o'ng va chap tomonlarga, yuqori va pastga qarab burish. Bosh va bo'yinning «Qiyg'ir bo'yin», «Iyak qoqish», o'ng va chapga egish harakatlaridan foydalaniladi.

4. Yuz uchun mashqlar. Yuzdagi a'zolar raqs obrazi xarakterini ochib berishda muhim o'rinni egallagani bois, mashqlar alohida o'rgatiladi. Jilmayish, nim tabassum, qosh chimirish, qoshni kerib olish, qosh qoqish, ko'zni suzish, yumib olish, o'qrayib qarash kabi mimik harakatlarni bajarish. Bunda mavzuga oid kuy va ko'zgudan foydalanib yuz a'zolari harakatlantiriladi.

5. Ko'z uchun mashqlar – Sahning sakkizta nuqtasiga qarash. To'g'riga, yuqoriga, pastga, o'ng tomonga to'g'riga, yuqoriga, pastga, chap tomonga to'g'riga, yuqoriga, pastga «Iyak qoqish» harakati bilan qarash. O'ngdan chap tomonga «Qiyg'ir bo'yin» harakatini bajarib «Iyak qoqish» harakati bilan tugatish, shu harakatni chapdan o'ngga takrorlash.

6. Oyoq uchun mashqlar – Oyoqlarni juftlab oyoq uchiga ko'tarilish, oyoq uchini ko'tarib tovonda turish, tizzalarni oldinga ko'tarish, oyoqlarni bukish, sakrash, otish kabi turlari bajariladi. «Nuqtali yurish», «Yon yo'rg'a», «Oddiy qadam tashlash», «Oqsatma», «Ufori», «Chalmash ufori» harakatlardan foydalaniladi.

7. Gavda uchun mashqlar – Tebranish, silkinish, egilish. Gavda qo'l, yelka, oyoq, bosh harakatlariga mos holda tebranadi, oldinga va orqaga egiladi, o'ng va chapga buriladi. «Belquchar», «Sildirma», «Polda yotib aylanish», «Tik turib orqaga, yon tomonlarga egilish», «O'turib orqaga, yon tomonlarga egilish» kabi harakatlardan foydalaniladi.

8. Aylanishlar uchun mashqlar – Avval 4 ta nuqtaga qarab, keyin 2 ta nuqtaga qarab, so'ngra 1 ta nuqtaga qarab aylanishga moslashish. O'ng va chap tomonlarga, oldinga, orqaga, bir joyda turib o'ng va chapga, katta aylana bo'ylab qo'llarning 1,3,7 holatlarida aylanish mumkin. O'ng tomonga aylanganda gavda og'irligi o'ng oyoqqa o'tadi va o'ng oyoq uchi bilan aylanadi. Chap tomonga aylanganda gavda og'irligi chap oyoqqa o'tadi va chap oyoq uchi bilan aylanadi. Gavdani tik tutish lozim. Aylanishlarning «Charh», «Tizzalab», «Belquchar», «Spiral» ko'rinishli, turli holatlardagi turlari bor:

a) Qo'llar I holatda, bosh to'g'rida. 3-sanoqda uch marta o'ng tomonga, o'ng oyoq uchi bilan aylanish. 4-sanoqda dam olinadi, qo'llar 6-holatga kelib «Gul bargi» harakatidan yana 1-holatga ochiladi. Aylanish chap tomondan qaytariladi. Har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

b) Qo'llar 3-holatda, bosh to'g'rida. 1 sanog'ida bir marta o'ng tomonga, o'ng oyoq uchi bilan aylanib 6-holatda bitta qarsak chalinadi. Aylanish chap tomondan qaytariladi. Har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

c) Qo'llar «Belquchar» holatda (dumoloq shakldagi o'ng qo'l oldida, chap qo'l orqada). Ikkala oyoq uchiga ko'tarilgan. O'ng tomonga sakkiz sanoqqa «Spiral» shaklida pastdan yuqoriga o'sib aylanish. Qo'llar «Belquchar» holatdan asta-sekin 1-holatga ochiladi. Aylanish chap tomondan qaytariladi. Har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi;

d) «Sho'x-sho'x» aylanish. Qo'llar ong 4-holatda, bosh to'g'rida. 3 sanoqda uch marta o'ng tomonga, o'ng oyoq uchi bilan aylanish. 4-sanoqda qo'llar chap 4-holatga ochiladi. Aylanish chap tomondan qaytariladi. Har safar aylanishda oyoqlar tayyorlov holatida qoladi.

e) O'ng qo'l I holatda, chap qo'l 6-holatda, bosh to'g'rida. 3-sanoqda uch marta, chap oyoq uchi bilan chap tomonga aylanish. 4-sanoqda qo'llar almashadi. Aylanish o'ng tomonga qaytariladi.

9. Oyoq harakatlaridan namunalar:

«*Oddiy qadam tashlash*»:- O'ng oyoq uchini tortib oldinga qadam qo'yiladi, so'ng chap oyoq uchi tortilib oldinga qadam qo'yiladi. Qadam tashlash shu tarzda davom etadi. Tizzalarni bukmay bajarilishiga e'tibor berilishi kerak.

«*Nuqtali yurish*» – O'ng oyoq uchini tortib oldinga polga tegizib, so'ng yarim o'tirish orqali oyoq to'liq polga qo'yiladi. Bu harakat chap oyoqdan davom ettiriladi.

Harakat orqaga bajarilganda oyoq uchini tortib orqaga harakatlanadi.

Harakatni yonga bajarganda o'ng oyoq uchini tortib yonga polga tegizib, so'ng oyoqni chap oyoqning old tomoniga qo'yib yarim o'tirish orqali oyoq to'liq polga qo'yiladi. Huddi shu harakat chap oyoqdan davom ettiriladi.

«*Oqsatma*» – bir sanog'iga o'ng oyoqni orqaga sal ko'tarb oyoq uchi polga uriladi. *Ikki* sanog'iga chap oyoq tizzalarni bukilmagan holatida polga qo'yiladi. Chap oyoqda bajarilganda harakatni chap oyoq boshlaydi. Bu harakatni bir joyda turib, oldinga, orqaga, yon tomonlarga yurib bajarish mumkin.

10. Qo'l harakatlaridan namunalari:

«*Qanot yoyish*»: Qo'llar 1-holatda ikki tomonga to'ldirililib bajariladi. Barmoqlar, kaftlar, bilak va tirsaklar, yelkalar juda mayinlik bilan harakatlanadi.

«*Gul bargi*»: Qo'llar 1-holatdan 6-holatga keladi. Kaftlar 1-holatda tashqariga qaragan bo'lsa, 6-holatda ichkariga qaragan holda bajariladi. Bu harakatni 6-holatda kaftlarni ichkariga yopib va tashqariga ochib bajarish ham mumkin.

«*Yirik to'ldiri*»: Qo'llar o'ng tomon 5-holatdan 6-holat orqali chap tomon 5-holatga harakatlantiriladi va ikkinchi tomonga takrorlanadi. Harakatni bajarganda suvning kuchsiz yirik to'ldirini tasvirlash kerak.

«*Mayin sabo*»: Qo'llar 2-holatda o'ng va chap tomonlarga harakatlantiriladi. Harakatni bajarganda esib turgan mayin shabbodani tasvirlash kerak. Barmoqlar, kaftlar, bilak va tirsaklar, yelkalar juda mayinlik bilan harakatlanadi.

«*Labi g'uncha*»: Qo'llar 6-holatda bir-birining ustida kaftining ichki qismi o'ziga qaratilib turiladi. Kaftlar ichkari tomoniga bir-birining ustidan 3-4 marta aylantirilib to'xtaydi. To'xtagan vaqtda bir qo'l ustida ikkinchi qo'l qoladi. Kaftlar tashqariga qaragan, kichik barmoq yuqorida, bosh barmoq pastda bo'lishi lozim.

«*Labi shakar*»: Chap qo'l belquchib, o'ng qo'l kaftining ichki tomoni labga yaqin turgan holda barmoqlar noz bilan lablarga tegar-tegmas silkinadi. So'ng, qo'l 1-holatga ochiladi, kaft tashqariga qaragan. Bu harakat ikkinchi tomonga bajariladi.

«*Uzum uzish*»: Qo'llar o'ng tomon 4-holatdan 1-holat orqali chap tomon 4-holatga harakatlantiriladi va ikkinchi tomonga takrorlanadi. Harakatni bajarganda kaftlar aylantirilib, barmoqlarni qirsillatish kerak. Qaysi qo'l yuqorida bo'lsa ko'z nigohi shu tomonga qaratiladi. Harakatni bajarganda uzumni uzib olganni tasvirlash kerak.

«*Novda egilishi*»: Qo'llar o'ng tomon 3-holatdan chap tomon 3-holatga harakatlantiriladi va ikkinchi tomonga takrorlanadi. Harakatni bajarganda kaftlar aylantirilib, barmoqlarni qirsillatish kerak. Qaysi qo'l yuqorida bo'lsa ko'z nigohi shu tomonga qaratiladi. Harakatni bajarganda novdani egilganni tasvirlash kerak.

2.5. Xalq raqslarini sahnalashtirish fanidan mashqlar

«Vals» – ommaviy raqs (musiqa o'lchami 3/4, «ufori» qadam).

1. Sahnaning 4 ta burchagidan 4 tadan qiz qo'llari 3-holatda, kaftlarini aylantirib 7 ta sanoqqa sahnaga chiqib keladilar va 8-sanoqda bir-birlariga ta'zim qilib katta aylana hosil qiladilar.

2. Keyingi 8 ta sanoqda katta aylana bo'ylab qo'llari 2-holatda «mayin sabo» harakatini bajarishadi.

3. Katta aylanadan 8ta sanoqda qo'llari 6-holatda «gulbargi» harakati bilan ikkitalik diagonalga kelishadi.

4. Ikkita diagonalda 2 tadan juft-juft bo'lib 4 ta sanoqqa «uzum uzish» harakati bilan aylanishib o'rin almashadi, 4 ta sanoqda qo'llar tayyorlov holatidan 2-holat orqali 1-holatga ochiladi va shaxmat shakliga kelishadi.

Shu tarzda har xil geometric shakllar va nafis harakatlar orqali valsni davom ettirish mumkin.

2.6. Obraz tushunchasi. Obraz ustida ishlash jarayoni

Obraz – san'at asaridagi inson, tabiat in'omlari, o'simlik va hayvonot dunyosining badiiy tasviridir.

Obraz atamasi ikki ma'noda, ya'ni keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Obraz atamasi keng ma'noda qo'llanilganda obraz tushunchasi doirasiga inson tasviridan tashqari peyzaj, detallar, buyumlar, predmetlar, jismlar, hayvonot dunyosi, asar tilidagi tasvir vositalari va hokazolar kiritiladi. Obraz atamasi tor ma'noda qo'llanilganda esa faqat inson hayotining badiiy manzaralari anglashiladi xolos. Demak, **obrazlilik** – keng ma'noda, **badiiy obraz** – tor ma'noda qo'llaniladi.

Obrazlilik – san'atning umumiy xususiyati, hayotni o'zlashtirishning spetsifik formasi va usuli bo'lib, badiiy ijodning salohiyatini, umumiy xususiyatlarini: badiiy qahramon, badiiy til, tabiat, predmet, hayvonot dunyosi tasviri va hokozolarni o'z ichiga qamrab oladi. Badiiy obraz voqelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud, obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal xususiyatlarga ega bo'ladi. Badiiy obraz - obrazlilik tushunchasining bir qismi bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon

bo'ladi. Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. Shunga ko'ra raqs san'atida baletmeyster hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakkur olamidan o'tkazadi, ularga qayta sayqal berib yana jonli hayot shaklida raqsda yaratadi. Shuni ham aytish kerakki, raqs san'atida badiiy obraz deyilganda nafaqat inson obrazi tushuniladi, balki tabiatning flora va faunasiga tegishli barcha ne'matlar kiradi va u sahnalashtirilgan raqsda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xoreografik asarlardagi insonlar, o'simliklar, hayvonlar, kichik jonivorlar yoki hayoliy obrazlarga kiruvchi yaxshilik va yomonlik farishtalari, yovuz dev kabi obrazlar orqali biz ma'lum bir davr hayoti haqida keng va konkret ma'lumot olamiz. Obraz deganda hayotning badiiy manzaralari tushuniladi. Hayotining badiiy manzaralari deganda esa, biz raqs asarida borliq kartinalarini tasvirlash jarayonida namoyon bo'ladigan quyidagi xususiyatlarni anglaymiz:

a) umumlashmalik;

b) konkretlilik, individuallik.

Bular badiiy obrazning asosiy xususiyatlari bo'lib, ularni shartli ravishda alohida - alohida ko'zdan kechirish badiiy obraz tuzilishini, tabiatini va funksiyasini anglashga yordam beradi. Raqs asari qahramoni hayotdagi kishilarga, hayvonu-jonivorlarga, o'simliklarga yoki farishtayu-devlarga juda o'xshab ketsada, ularning aynan o'zi bo'la olmaydi. Obraz - umumlashma natijasida yuzaga keladi. Raqsda tasvirlangan birgina xoreografik obraz zaminida yuzlab-minglab insonlarga, hayvonlarga, o'simliklarga, xayoliy mavjudotlarga xos hislat va belgilar umumlashtirilib, jamlab beriladi. Raqsda tasvirlangan xoreografik obraz umumlashma natijasigina bo'lib qolmay, ayni choqda, konkretlashtirish, individuallashtirish mahsuli-hamdir. Zotan, raqs qahramoni tom ma'noda individuallashtirilgan bo'lishi zarur. Chunki baletmeyster xoreografik obrazni individual xususiyatlari bilan ko'rsatish orqali konkretlashtiradi, obrazga jonlilik, hayotiylik, tabiiylik baxsh etadi, emotsionallikka erishadi, tomoshabin hissiyotiga ta'sir etadi, uni ishontiradi. Xoreografik obrazlarning rang-barangligi, estetik boyligi, ko'p qirraliligi hayotning va tabiatning murakkabligi, ko'pqirraligi taqozosidir. Xoreografik obrazlarning rang-barangligi konkret tarixiy vaziyatdagi insonlar, hayvonlar, o'simliklar va hayoliy farishta va devlarning xarakterlarini haqqoniy tasvirlash natijasidir. Bu- tipik sharoitni raqs qahramonining bevosita intellektual olami, xatti-harakatlari, qiliq-odatlari, muomala va

munosabatlari orqali badiiy ifodalash demakdir. Baletmeyster rang-barang xoreografik obrazlar yaratish jarayonida har bir obrazning ko'pqirrali, takrorlanmas hislatlar sohibi sifatida ko'rsatishda, albatta, hayot haqiqatiga asoslanadi. Aks holda, turmush dialektikasini, hayot evolyutsiyasini buzib ko'rsatuvchi sxematik obrazlar yaratiladiki, bunday obrazlar tomoshabin qalbiga yo'l topa olmaydi. Ta'kidlash lozimki, agar obraz konkretlashtirilsa individuallashtirilsa-yu, yetarli darajada umumlashtirilmasa, u tipik bo'lmaydi, unda obraz notipik, tomoshabin uchun zerikarli bir natura bo'lib qoladi. Shuningdek, obraz umumlashtirilgan bo'lsa-yu, ammo konkretlashtirilmagan bo'lsa, unda obraz mavhum, jonsiz, tomoshabinning esida saqlanib qolmaydigan sxemaga aylanib qoladi. Demak, raqsdagi qahramon faqat umumlashma sifatlargagina emas, balki, hamma jonli insonlardek, hayvonlar va o'simliklardek, jonivor va mavjudotlardek tamomila konkret, individual sifatlarga ham ega bo'lar ekan. Har bir to'laqonli xoreografik obraz, ayni chog'da individual xarakterdir.

Xoreografik obraz hayotiy umumlashmalarni individual belgilar, hayotning va tabiatning konkret manzaralari orqali ifodalashni taqazo qilar ekan, bunday murakkab ijodiy jarayonni badiiy to'qimasiz, ijodiy fantaziyasiz qilish mumkin emas. Eng oddiy umumlashmada ham fantaziyaning bo'lakchalari bo'ladi. Umumlashtirish esa san'atning umumiy qonuniyatidir. Umumlashmasiz hech qanday xoreografik obraz yaratilmaydi. Badiiy to'qima hayotiy fakt bilan qo'shilgan, uyg'unlashgan chog'dagina chinakam umumlashma –badiiy xoreografik obraz vujudga keladi. Badiiy to'qima baletmeysterning hayotga, tabiatga faol munosabati natijasida yuzaga keladi. Baletmeyster hayotda ro'y berayotgan voqealarni o'z ijodiy maqsadiga muvofiq ravishda rivojlantirib, o'zgartirib ko'rsatadi.

Baletmeyster badiiy to'qima yordamida konkret odamlarda, hayvonlarda, o'simliklarda, mavjudotlarda mavjud bo'lgan ijobiy yoki salbiy hislatlarni, ular imkoniyatlarining hali ro'yobga chiqmaganlarini ham hayolan ro'yobga chiqarib tasvirlaydi. Masalan, boshqa planetada hayot kechiruvchi jonzotlarning bizning planetamizga kelishi va hayot kechirishi davomida ro'y beradigan voqealarni yoki bir zamonda yashab turib, bir necha asr ortga (balkim kelajakka) qaytib undagi hayotni tasvirlash.

Raqqosaning o‘z ustida ishlashi.

Raqs xarakteri, badiiy obraz yo‘nalishi, raqsning umumiy tuzilishini anglab olish kelajakda to‘laqonli ijro uchun yordam beradi. Bularni aniqlashda baletmeysterning yordami kerak bo‘ladi. Kuyni eshittirib ko‘radi, xarakteri, uslubi, janri xaqida ma‘lumot beradi. Raqs ijrosi ustida ishlashda raqqosaning imkoniyatlari inobatga olinishi zarur. Ijro ustida to‘g‘ri ishlay bilish ijro mahoratini oshirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir raqqosaning ijobiy hislatlarini baletmeyster yaxshi bilishi va ana shu xususiyatlariga e‘tibor berishi kerak. Raqsning asosi o‘rgatilib bo‘linganidan so‘ng, qayta-qayta mashq qilinib sayqal beriladi. Bu ishda faqat ijrochining o‘zi ishlashi kerak. Baletmeyster faqat ko‘rsatma berish bilan chegaralanadi. Ijrochi raqsni yod olsa, raqs ijrosida o‘z e‘tiborini badiiy obrazga qaratsa, uni talqin qilsa, raqs shaklini o‘z ijrosi bilan umumlashtirsa, raqsdagi barcha ko‘rsatma va qoidalarga rioya qilsagina raqs ijrosi ustida ishlash mukammal amalga oshganligi ko‘rinadi. Agar raqs yaxshi sahnalashtirilgan bo‘lsa-yu, raqqosaning ijrosi sust bo‘lsa, raqs ustida ishlash jarayonida uni rivojlantirish mumkin. Raqqosaning raqsni maromiga yetkazib ijro etishini ta‘minlash uchun uning mustaqil ishlashi yaxshi samara beradi.

Mustaqil ishlash deganda nimalarni nazarda tutish talab etiladi?

Birinchidan, raqqosa raqsni mustaqil ishlash ishtiyoqiga ega bo‘lishi muhimdir. Agar o‘z ustida tinmay izlanishni, qo‘shimcha mashq qilishni hohlamas ekan nafaqat xoreografik obraz yaratishda, hatto raqsning ommaviy sahnasidagi ijrochisi sifatida ham unda ijrochilik mahorati kam bo‘ladi. Shuning uchun ham, mohir baletmeysterlar syujetli raqlar sahnalashtirganda yoki ommaviy raqlardagi yakkaxon ijrochini tanlayotganda raqqosaning iste‘dodiga, ijrochilik qobiliyatiga, aktyorlik mahoratiga, o‘z ishiga ma‘suliyat bilan yondoshishiga qarab tanlaydi.

Ikkinchidan, sahnada ijro etilajak raqsda sodir bo‘ladigan voqelikni chuqur o‘rganish, tahlil qilish lozim. Bastakor bastalagan kuyida nima demoqchi va baletmeyster kuyning talqini orqali tomoshabinga nimalarni yetkazmoqchi ekanligini o‘z tafakkuriga singdirishi lozim. Buning uchun raqqosa musiqa san‘ati, raqs harakatlarining musiqa bilan uyg‘unlashuvi haqida yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, dramaturgiya qoidalariga asoslanib sahnalashtirilgan raqsnı o'z tasavvurida jonlantira olishi va obrazni «o'ziniki» qilib olishga erishishi kerak. Raqs ijrochisi raqsning dramaturgiya qoidalarini bilishi va ijro vaqtida unga amal qilishi kerak. Chunki kuynıng tizimiga terilgan harakatlarnı ijro etishda raqqosa o'zining bor vujudini, ya'ni ongini, sezgi organlarini, qo'l-oyog'i, yelkasi, nafas olish organlarini, yuzini harakatlantiradi. Buning natijasida ijro texnikasini, mimikasini, qalbini ishga soladi va ularning barchasi bir butun bo'lib raqqosaga obrazni «o'ziniki» qilib olishiga ko'maklashadi.

Dramaturgiya qoidalari, raqs musiqasi, harakatlar va harakatlarnı mahorat bilan ijro etilishi – bularning barchasi raqs asarining asosiy tarkibiga kiradi. Raqqosa obraz yaratish uchun o'z ustida ishlar ekan, mashaqqatli mehnat, ijodiy izlanish jarayonlarini o'taydi. Buning natijasida sahnada uning ijrosidagi bir siymo yaralishini unutmasligi kerak. Ijodiy izlanish samarasi o'laroq, siymoning ichki va tashqi qiyofasi tomoshabin ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

Misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, xalq artisti Rushana Sultonova 1999-yil Termez shahrida «Alpomishning 1000 yilligi»ni nishonlash uchun o'tkazilgan katta bayram dasturida «Barchinoy» obrazini yaratdi. Sahnalashtirilgan raqsdagi harakatlar, musıqa, ijro mahoratidan to'la foydalanish natijasida rejissyor, bastakor va baletmeysterning maqsadi ochib berildi. R.Sultonova tomonidan tomoshabin ko'z o'ngida oddiy raqqosa emas, balki afsonaviy «Barchinoy» to'la namoyon bo'ldi. Bunaqa misollarnı ko'plab keltirishimiz mumkin.

Ba'zan shunday hollarga duch kelamizki, ayrim raqs ijrochilari o'z qobiliyatlarini to'la namoyon eta olmaydilar. Tomoshabin oldida hayajonga tushib miya faolligi to'xtaydi, ijro sifatini ko'rsata olmaydilar. Musiqani eshitmay qolishi, harakatni unutib qo'yishi, o'zini erkin tuta olmasligi kabi yoshlarga xos kamchiliklar ijro paytida sezilib qoladi. Ammo ko'pincha bunday hol havaskorlik jamoalarida uchrashi mumkin.

Bu kamchilik baletmeister tomonidan raqqosani sahnaga o'rgatish yo'li bilan yo'qotish mumkin.

Ijrochining mustaqil ishi natijasini avvalo, baletmeister sezadi va undagi o'zgarishlarnı, yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida aytib

boradi. Raqqosaning mustaqil ishlashi uning ijrochilik mahoratini yana bir pog'onaga ko'tarilishiga xizmat qilishi kerak.

2.7. Obraz yaratishda mavzu va musiqa san'atining o'rni

Musiqa – raqsning asosidir. Musiqa – nima u? Musiqa so'zi qadimgi Gretsiyadan kelib chiqqan. Musiqaning o'z sanog'i bor: 1–2 ga, 1–2–3 ga yoki 1–2–3–4 ga sanaladi. Bu musiqaning ritmi deyiladi. Ritm-musiqa tizimining bezagidir. U musiqa ohanglarining «vaqtinchalik tashkiloti» deb tasvirlaydigan bo'lsak, o'lchov – musiqa bezaklarining qanday tezlikda o'zgarib turishini anglatib turadi. Ritmlarning mayin, sokin, sekin, hamda kuchli-zarbli turlari bor. Ular musiqa tizimining «1» sanoqqa tushishi bilan boshlanadi. Har bir bitta kuchli zarbdan keyin bitta, ikkita yoki uchta yumshoq zarb to'g'ri keladi.

Masalan: «1» kuchli zarb, keyingi «2–3» mayinroq chalinsa, bu 3/4 musiqa o'lchovli «vals» kuyi ekanligi seziladi. «Tango», «Samba» yoki boshqa turlari bilan nomlanishi uning o'lchoviga qarab belgilanadi. Kuchli zarblarning orasi takt deyiladi. Taktlar o'lchovi nota yozuvining boshida 2/4, 3/4, 4/4, 6/8 ko'rinishlarida qo'yiladi. Ritmik bo'linishlar - musiqa tizimining teng qismlarga bo'linishidir. Notalar ikkiga, uchga, to'rtga, oltiga va sakkizga bo'linadi. Biror raqsni o'rganishni boshlaganda, avvalo musiqani eshitishni va sanashni o'rganish zarur. Buning uchun ovoz chiqarib sanash, keyin esa oyoq harakatlarini shu sanoqqa tushirib olish kerak. Kuyni tushunib olgandan keyin ovoz chiqarmasdan harakatlarni bajarish mumkin. Insonlar qanchalik tez harakatlansa, uning yurak urishi ham tezlashadi. Musiqa tezligi ham vaqt birligiga qarab uning xarakterini, ya'ni harakatchan yoki sokinligini bildiradi. Notalarda musiqaning tezligi so'zlar bilan beriladi. Allegro-«Allegro» – tez, Andante-«Andante»-o'rtacha tezlik va boshqalar. Musiqa tezligini sanash ham mumkin. Yurak urishini sanagan kabi musiqa o'lchovini ham bir daqiqadagi «zarb»ning hisobi bilan sanash mumkin. Bir daqiqada 140 ta zarb bo'lsa, tez, 60–80 ta bo'lsa, vazmin, 40–60 ta bo'lsa, sekin musiqa hisoblanadi.

Ma'lumki, raqs san'atining qadimiy asoslari ajdodlarimizning ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlariga, turli jonivorlar va tabiat hodisalariga taqlidan ijro etgan marosimiy o'yin harakatlariga borib

taqaladi. Shuning uchun ham mutaxassislar orasida «Raqs – insonning mehnat jarayonida tashqi olamdan olgan emotsional taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan va inson gavdasining harakat va holatlari vositasi bilan yahlit badiiy obraz yaratiladigan san‘at turidir», degan nazariy qarash mavjud. Bunda raqs vositasida obraz yaratish usullari faol qo‘llaniladi. Raqs san‘atining nafis harakatlarining muayyan mazmun tashuvchi ritmik mutanosibligiga asoslangan o‘ziga xos tizimi vositasida badiiy obraz yaratish imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi. O‘tkazilayotgan bayram tomoshalari yoki konsert dasturlari mohiyati va rejisyor tomonidan tayyorlangan ssenariyga qarab raqs musiqasi tanlanadi. Tanlangan raqs musiqalari ssenariy mazmun-mohiyatini aks ettirishi, hamda sahnalashtirilayotgan raqs harakatlarining o‘ziga xos mazmuni va ritmik mutanosib bo‘lishi talab etiladi. O‘zbek raqs san‘ati asoschisi, ustoz baletmeysterimiz M.Turg‘unboyeva raqs sahnalashtirishda raqs mazmuni va uning kuyiga alohida e‘tibor berganlar. Sahnalashtirgan raqslarining ichida ko‘pini avval bir mavzuni tanlab, hayolida tasvirlab, uning mazmunini yozib «pishirib» olganlar, so‘ngra bastakorga murojaat qilib kuyni bastalab berishini so‘raganlar.

Masalan, «Paxta» raqsida o‘zbek xalqining keng dalalarda fahr va shijoat, mehr va ishtiyoq bilan mehnat qilishi jarayoni tasvirlangan. Raqsidagi harakatlarda chigitning tuproq ostidan bosh ko‘tarishini, O‘zbekistonimizning mazali suvini ichib qoniqib, quyoshning issiq taftidan bo‘y cho‘zishini va oxir-oqibat g‘o‘za ko‘saklarida oppoq paxta bo‘lib ochilganini tasvirlaganlar. Terimchilarning mo‘l hosilni yig‘ib olish jarayoni, quvonch bilan hosil bayramini o‘tkazishlari va bu bayramga qo‘shni qardosh xalqlarning sovg‘a sifatida o‘z xalqi raqslari bilan tashrif buyurishlari aks ettirilgan. Bu raqsda xalqlar do‘stligi bayon etilgan.

«Pilla» raqsi ham mehnatni tasvirlovchi raqslar sirasiga kiradi. Bunda mehr bilan pilla qurtini boqayotgan qiz, ipak tolasining yetishtirilishi, ipak mato to‘qib unga gul tikish jarayonida bo‘ladigan voqealar ishonarli tasvirlanadi.

«Bahor vals» raqsini misol tariqasida oladigan bo‘lsak, uning kuyi va ritmining rang-barangligi, raqsidagi qizlarning nozik his-tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan harakatlarining uyushganligi yurtimizning go‘zal tabiatini, so‘lim bog‘larini, chamanzorlarini tasvirlaydi. Bastakor baletmeyster tasavvuridagi go‘zal bahor faslini, hushbo‘y

islarini taratib turuvchi gullarni va undan mast bo'lib sayrayotgan bog'lardagi qushlarning ovozi zoz'r mahorat bilan kuyga solgan. Yilning qay faslida bu raqsni tomosha qilmang, albatta ko'z oldingizga kelinchakdek nozlanib turgan bahorning tarovatini his qilasiz. Shunday syujet asosiga qurilgan raqs ajoyib mazmuni va mukammal formalari bilan kishini zavqlantiradi. Bunda mohir baletmeyster va bastakorning ijodiy va samarali mehnatini ko'ramiz. Bunga o'zbek xalq raqs san'ati merosiga kirgan «Tanovar», «Munojot», «Rohat», «Qo'g'irchoq», «Sho'x qiz», «Farg'onacha yoshlar raqsi» va shunga o'xshash ko'plab raqslarni misol keltirishimiz mumkin. Demak, bastakor va baletmeyster oddiy raqs kuyini bastalovchi va raqs sahnalashtiruvchi emas, balki raqs san'atining bir asari sifatida uning mazmun va mohiyatni talqin etuvchi ijodkordirlar. Ayniqsa baletmeyster bastakorning maqsadiga va kuy ohangi talqinlariga mos harakatlarni tanlashda, raqsning mazmunini tushunish va tomoshabinga tushuntirish uchun rassomlarga xos tana harakatining «ranglari»ni sezishi, rejissyorlarga xos tasavvurga ega bo'lishi, musiqachilarga xos kuy ritmini xis eta olishi kerak. Ham pedagog, ham psixolog, ham rassom, ham harakatlar dizayneri hamda bezakchisi sifatlariga ega bo'lishi kerak. Chunki baletmeyster raqsni sahnalashtirishda bastakor bastalagan kuyning mohiyatiga va uning badiiy tadbir, konsert yoki tomoshaning g'oyasiga mos tushishiga, tomoshabinlarning estetik didini oshishiga, tarbiyaviy ahamiyatiga, sahna talablariga e'tiborni qaratishi lozim. Baletmeyster kuyni tahlil qilib chuqur o'rganib chiqishi, uning g'oyasi va maqsadini o'zlashtirishi, raqsni ijro etuvchi raqqos va raqqosalarni ularning mahoratiga qarab tanlay bilishi, undan keyingina raqsni o'rgatishni boshlashi zarur. Bastakor va baletmeysterning ijodiy hamkorligi raqs asarining muvoffaqiyatli chiqishida muhim rol o'ynaydi. Musiqaning ijrosida: masalan, nayning nolishi, doiraning sho'x sadosi, zarblari, qashqar rubobi, g'ijjak, chang yoki qonun sozining alohida chalingan joylari obraz xarakterini ochib berishda yordam beradi. Ustoz baletmeyster M.Turg'unboyeva va bastakor M.Mirzayevning ijodiy faoliyati misolida bunga ko'p marta amin bo'lganmiz. Raqslarning puxta ishlangan mazmuni raqqosalarga haqiqiy raqs sahnalarini yaratish imkonini berdi. Shu jihatlari bilan bu raqslar o'zbek xalqi qalbida chuqur iz qoldirishga erishgan.

Folklor raqs san'ati ham ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bu an'ana hozirgi kungacha ham davom etib kelmoqda. Qo'shiq va kuy ijrosi raqs san'ati bilan yanada to'ldiriladi, ularning mazmuni tomoshabinga harakatlar va obrazlar orqali yetkazib beriladi. O'tkazilayotgan tadbirlarning mazmun va mohiyatini to'la ochishga imkon beradi. Maromiga yetkazib ijro etilgan raqs esa, tomoshabinni zeriktirmaydi, estetik didini oshiradi. Badiiy ommaviy tadbirlarda joylardagi qadimdan mavjud bo'lgan marosim raqslari, mehnat raqslari, oilaviy va maishiy raqslardan foydalaniladi. Ushbu raqslar mazmunida urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarimiz o'rin oladi.

Xulosa qilib aytganda, san'atning qaysi turida obraz yaratish bo'lmasin, o'ziga xos jihatlari bilan bir-biriga bog'liq bo'ladigan shartlari, talablari mavjud. Xuddi shu kabi raqs san'atida ham uning ayrim talab va shartlari haqida so'z yuritildi. Raqs asarida ham xoreografik obraz yaratishda raqs mavzusi va raqs kuyi bir-biriga chambarchas bog'liq holda o'z o'rniga egadir.

...

2.8. Raqs ustida ishlashning o'ziga xosligi

Baletmeyster nafaqat raqs sahnalashtiruvchi, balki nafosatga, madaniyatga yetaklovchi tarbiyachi va ijodkor shaxs hisoblanadi. Raqs sahnalashtirish jarayonida ssenariyda yoki raqs kuyida ko'zda tutilgan mazmunni ochib berishda raqqos va raqqosani, ijrochilarni tanlash muhimdir. Ularning aktyorlik mahoratini ishga solish kerak. Tabiat manzarasining bir elementini, sho'x bolakayni, gullar, suv parisi yoki farishta, jodugar yoki yovuz kuchlar, sevishgan yigit va qiz timsoli bo'ladimi raqslarda uni tasvirlashni uddalay olishi kerak. San'atning qaysi turi bo'lmasin ijodkor hayotga atrof-muhitga sinchkovlik bilan nazar soladi. Sinchkov bo'lmay turib hayotni chuqur o'rganib bo'lmaydi. Raqs harakatlari, grim, liboslari raqs musiqa-sining g'oyasini ochishga xizmat qiladi. Harakatlarni, raqs liboslarini, grimni, raqsda kerak bo'lgan elementlar(ko'za, guldasta, sharf, hanjar, pichoq, yog'och qoshiq va boshqa shu kabilar)ni tanlashda baletmeyster zimmasiga kuchli mas'uliyat yuklaydi. Eng kichik detallar ham tomoshabin e'tiborini oladi.

«Katta o'yin»da doiraning pauza qilib to'xtab qoladigan joyi bor. Raqqosalar ham shu joyda bir muddat qotib turadi-da, nozik tabassum va ishva qilib, «Ho-o» degan ovozni chiqarib, keyingi harakatni doira

usuli bilan davom ettiradilar. Yana bir misol tariqasida «Qo‘g‘irchoq» raqsini olishimiz mumkin. Unda «Qo‘g‘irchoq» raqsga tusha-tusha egilib, qotib qoladi. Doirachi uning orqasidagi murvatini buraganidan so‘ng u yana raqsga tushishni davom ettiradi. Qo‘llari va oyoqlarining yumshoq emas, aksincha, qattiq tortilib turishi, boshining kichik va keskin burilishi, bir zum qotib qolishlari haqiqiy qo‘g‘irchoqning jonlanib raqsga tushishiga o‘xshaydi. Demak, tomoshabinni ishontiradigan, hayotga yaqin harakatlarni tanlay olish raqsning mazmunini yaqqol namoyon etishga xizmat qiladi. Lekin, bunda meyorini ham inobatga olish shart.

Yuzdagi a‘zolar raqs obrazi xarakterini ochib berishda muhim o‘rinni egallaydi. Jilmayish, nim tabassum, qosh chimirish, qoshni kerib olish, qosh qoqish, ko‘zni suzish, ko‘zning pirqirashi, yumib olish, o‘qrayib qarash kabi mimik harakatlar bajariladi. Bunda mavzuga oid kuy va ko‘zgdan foydalanib yuz a‘zolari harakatlantiriladi. Raqsda biron-bir obrazning qiyofasini tabiiy, ishonarli ravishda jonlantirishi uchun raqqosa avvalo, o‘z shaxsiyati nomidan, shaxsiy fantaziyasiga suyanib ish ko‘rishi lozim. Raqs ijrochisi baletmeysterdan raqsning ma‘lum bir qismidagi yoki raqsning boshidan-oxirigacha ijro etiladigan obrazni olganidan so‘ng, o‘z qahramonini ko‘z oldiga keltiribgina qolmay, shu obrazga mos keladigan tabiiy harakatlar, imo-ishora bilan gapirish xususiyatlarini izlaydi. O‘zini ana shu qahramonning o‘rniga qo‘ygan ijrochi sahnada estetik voqelik yaratadi, ya‘ni notanish bir kimsa yoki narsa obraziga «jon» kiritadi». Raqqosa ijrosi tabiiy va ishonarli bo‘lishi uchun u o‘z fantaziyasi va qahramonning sahnadagi xatti-harakati mantiqiga suyalishi kerak. Raqs ijrochisi baletmeyster niyatini qanchalik to‘g‘ri tushunsa va hayotiy tajribaga boy bo‘lsa, shunchalik uning obrazi tabiiy va haqqoniy bo‘ladi. Ammo raqqosa ijro etayotgan obrazining sahnadagi talqini sahna mantiqidan chetga chiqmasligi kerak. Yetuk pedagog-baletmeysterlar tajribalariga suyanib shuni ta’kidlash kerakki, raqs matnini og‘zaki tushuntirish, muhokama qilish jarayonidagi tasavvur etilgan obraz xatti-harakati bilan sahnadagi amaliy jarayon, sahna sharoiti, raqsni o‘zi qatorida ijro etayotgan boshqa raqqosalar bilan munosabat talablari o‘rtasida katta farq bor. Bu sharoitda nafaqat raqs ijrochisining ruhiyati, balki turli hissiyot organlari, tana mushaklari, umuman, uning butun jismoniy va ruhiy holati ishtirok etadi. Ijrochi bunday talab sharoitda raqs qahramoni qiyofasini yaratibgina qolmay,

ayni paytda shaxs sifatida o'zini ko'radi, his qiladi va buning natijasida asarni amalda aniqroq tushuna boshlaydi.

Masalan, «Cho'pon» raqsidagi uxlab qolib qo'ylarining birini yo'qotib qo'ygan cho'pon qay ahvolga tushadi? Nimani his etadi? Boz ustiga bironing qo'ylari? Ijrochi o'z oldiga shu kabi savollarni qo'yishi va javob izlashi lozim. Har bir harakat va fikrda haqiqatni izlagan, haqiqatni ifoda etishga intilgan ijrochigina tabiiy ijod jarayonini amalga oshirgan hisoblanadi.

Ma'lumki, raqsning sahnadagi har bir repititsiyasi jarayonida yangidan-yangi faktlar, xatti-harakatlar, fikr-g'oya, vazifalar aniqlanib kashf etilib boradi. Bu jarayonda ijrochining vazifasi bu obraz boshqa ijrochi tomonidan topilgan, bajarilgan xatti-harakatni bugun ham ko'r-ko'rona o'zidek qilib qaytarishidan qochishi kerak. Baletmeyster ijrochilar ongida har bir repititsiya jarayoniga yangidan yondoshib, har bir xatti-harakatdan tabiiylik, haqiqiylik, mantiqni qidirishni odat qilish lozimligini singdirib borishi kerak.

Raqqosalar obraz ustidagi ish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishi kerak, ya'ni har bir ijodiy jarayonda kechagi yoki o'tgan kungi ijrosining natijasini qaytarishga urinmay yanada jonli, tabiiy organik xatti-harakatni amalga oshirishga intilishlari kerak. Repititsiya jarayonlarida har bir harakatni takrorlash davomida uni har turli yangi topilmalar bilan boyitishni va shu maqsadda xatti-harakatning yangi shart-sharoitini o'ylashi, izlashi kerak. Buning uchun raqqosa eng avvalo berilgan obraz shart-sharoitida o'zini ko'rishi, o'rganishi lozim.

Aksariyat hollarda raqs matni raqqosalarga shoshilinch tarzda eshittiriladi. Bunday tanishtirish raqqosa ongiga raqs matni haqidagi ilk taassurotning sayoz tarzda o'rnamashishiga sabab bo'ladi. Raqs matni bilan ilk tanishuv jarayoni va u haqdagi dastlabki taassurot keyingi raqs obrazi ustida ishlash bosqichida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham raqs ijrochisi obraz yaratish jarayonining ushbu bosqichiga baletmeyster tomonidan alohida e'tibor qaratilishi zarur. Mazkur bosqich bo'lajak yosh raqqosaning raqs obrazi bilan ilk tanishuv bosqichigina emas, raqqosaning chinakkam ijodiy izlanishi, obraz ustida ishlash bilan ham ilk bora amaliy tanishuv jarayonidir.

Raqqosaning yaratajak obrazi ham individual badiiy mustaqil ijod mahsuli bo'lib vujudga keladi. To'g'ri, mumtoz, klassik raqslarga zamonaviy ruhda yondashuv ba'zi hollarda shu raqsga nisbatan

noto'g'ri munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq qanday bo'lmasin, holisona, mustaqil yondashuv raqqosa ijodiga individuallik bag'ishlaydi. Raqs ijrochilari avvaldan ma'lum va mashhur raqs bilan tanishar ekanlar uni ilk marotaba raqs matnini o'qiyotgandek yondashishlari maqsadga muvofiq.

Agar raqs guruhli bo'lsa, baletmeyster raqsning yakkaxon ijrochisiga jiddiy e'tibor qaratsin. Raqs ilk marotaba ijro etilishida hayajonsiz, obrasiz ishlashi kerak. Ana shundagina raqsni har bir ijrochi o'z mustaqil qarashi, xulosasi bilan qabul qilishiga zamin yaratiladi.

Raqsni ilk ijro etish bosqichidan so'ng raqqosaga o'z obraziga qanday yondoshishi kerakligi ayon bo'lsa, bu yaxshi albatta. Biroq biz raqqosa o'z ijodida baxtli tasodiflarga suyanib qolmasligi kerakligini ta'kidlashimiz lozim. Raqqosa ijodida his-tuyg'u bilan bir qatorda mahorat qoidalarini ham egallashi kerakligi ijrochilar ongida chuqur singdirilgan bo'lishi kerak.

Raqs matni bilan tanishishdan avval ijrochi ongiga raqs haqida biron bir fikrni suqishtirish yuqorida aytib o'tganimizdek mutlaqo noto'g'ri. Raqs matni haqida ijrochining o'zi fikr yuritgani, hatto u noto'g'ri fikr bo'lsa ham o'zi xulosa chiqargani ma'qul. Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, dunyoqarashi bir muncha tor, raqs haqida biron aniq fikr yuritishga qiynaluvchi ijrochilar ham uchrab turadi. Bunday holatlarda raqqosaga uning mustaqil fikrlashiga zamin yaratuvchi yo'l-yo'riq ko'rsatish baletmeysterning vazifasi hisoblanadi.

Raqs obrazi to'g'risidagi ilk taassurotlar keyinchalik amaliy ish jarayonida albatta o'zgarishi, qayta ishlashni talab etishi mumkin. Obrazning keyingi tahlillarida aniq, to'g'ri xulosa chiqarish va baho berish, uning aniq g'oya, maqsad-vazifasini aniqlash mumkin bo'ladi. Shu tarzda asta-sekinlik bilan murakkablashtirib borilgan ijodiy jarayon mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borishga, ijrochi ongiga singishiga imkoniyat tug'diradi. Obraz borasidagi so'ngi aniq xulosa va bahoni ijrochiga avval boshdayoq ma'lum qilinsa yuqoridagi ijodiy izlanish jarayonidan ko'zlangan maqsad-raqsning ijrochi ongida singishiga, o'mashishiga imkon yarata olmaydi, demak, raqqosaning yaratajak obrazi tugal, yahlit bo'lmaydi.

Baletmeyster turli tasavvur va fantaziyalari orqali qo'yilajak raqs haqida biror bir taassurot uyg'otishi mumkin. Baletmeysterning

vazifasi ijrochi ongida tug‘ilayotgan obrazning tabiiy, jonli ravishda tashkil topishiga ko‘makdosh bo‘lishdan iboratdir. Raqqosalar bilan raqs sahnalashtirayotgan baletmeyster mohir ustoz bo‘libgina qolmay rejissyor hamdir. Raqs sahnalashtirayotgan baletmeyster ijrochilarga o‘z g‘oya, qarashlarini majburiy suqishi, ijrochini chegaralab qo‘yishi mumkin emas. U ijrochi ongiga kirib borishi, undan ijodiy ilhom uchun turtki bo‘luvchi dastak – his, kechinma, taassurot, hotiralarni yuzaga chiqara bilishi kerak. Bu talablar albatta, baletmeyster yordamchisi bo‘lgan repetitorga ham tegishlidir. Ijrochi gavdalan tirayotgan xoreografik obrazini o‘z his-kechinma, tasavvurlari bilan boyitib, jonlantirishga erishmagunicha u atrofda gilarining yoki o‘z yaratajak obrazlari haqidagi fikrlarini aniq, to‘g‘ri baholay olmaydi. Bundan tashqi fikrlar tazyiqi raqqosaning ijro mahorati, gavdalan tiruvchi obraziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Baletmeyster va repetitor ijrochiga raqs va o‘zining obrazi haqida mustaqil tahlil qilish, qaror chiqarish, o‘z fikriga ega bo‘la olish, obrazi borasida mustaqil izlanish imkoniyatini yaratib berish kerak.

Ijrochi tomonidan yaratilajak xoreografik obraz xaqqoniy, hayotiy va jonli bo‘lishi kerak. Bu syujetli raqslarning asosini tashkil etadi. Tomoshabinning raqsdagi voqealarga ishonish, ishonmasligi ham aynan raqqosaga bog‘liq. Daniyel Didro «Aktyor haqida paradoks» maqolasida «Teatr haqiqati – aktyor harakati, nutqi, chehrasi, ovozi, yurish-turishi, qo‘l harakatlarining adib tasavvuri yaratgan va aksariyat vaqtlar ijrochi tomonidan yana ham yuksak tus oladigan badiiy obrazga muvofiq kelishidir.» deb yozgan edi. (Daniyel Didro «Aktyor haqida paradoks» Horijiy teatr tarixi.) Bu chuqur va teran fikrni raqs san‘atiga moslashtiradigan bo‘lsak, raqs haqiqati – raqqosa harakati, mimikasi, libosi va grimining baletmeyster tasavvuri yaratgan va aksariyat vaqtlar ijrochi tomonidan yana ham yuksak tus oladigan badiiy obraziga muvofiq kelishidir. Bunday tugal, yaxlit obrazni yaratish uchun aktyor ham, raqs ijrochisi ham igna bilan quduq qazishdek mushkul ijodiy izlanishni boshidan kechiradi.

Raqs sahnalashtirilganidan so‘ng raqqosa yaratajak obraz tahliliga o‘tiladi. Raqs tahlilidagi faktlar, uning tashqi voqealari – aynan mana shular raqsning obyektiv asosini tashkil etadi.

Birinchi navbatda raqqosa ana shularni aniqlashi va baholashi kerak. Zero, raqsdagi voqealar ketma-ketligini aniqlab chiqilgandagina uning ichki asosiga undagi fikr, g‘oya, xarakterlar, sahnaviy vaziyat,

holatni tasavvur etish mumkin bo'лади. Raqs voqealari ketma-ketligini to'g'ri baholash, sahna shart-sharoiti va qatnashuvchi qiyofalarning unda tutgan o'rnini belgilab berishga xizmat qiladi. Buning uchun baletmeyster raqqosaning raqs syujetini tashkil etuvchi voqealar va faktlar ketma-ketligini asta-sekinlik bilan aniqlab, baholab borishni nazorat qilsin. Albatta, bu jarayonda raqqosadan avval boshdanoq his-tuyg'u, kechinma, raqs g'oyasini aniq baholash uning ma'naviy, ijtimoiy ahamiyatini belgilashni talab etib bo'lmaydi. Raqsning mohiyatiga kirib borish uchun raqs voqealarining tashqi bayonini tuzib chiqish talab etiladi. Baletmeyster fikrini yaxshi anglashi uchun raqqosa shu raqsni o'rganib chiqishi talab etiladi. Masalan, tragedik raqslarda fojeaning, hazil raqslarda kulgining, lirik raqslarda daramatizmning mohiyati baletmeyster tomonidan avval boshdanoq puxta o'ylanib chiqiladi va so'ngra raqs muqaddimasini boshlash uchun harakatlar tanlanadi. Shuning uchun ham raqs voqealaridan tortib uning kichik faktlari, detallarigacha ana shu g'oya mohiyati ufurib turadi. Ustoz baletmeysterlardan M.Turg'unboyeva, I.Oqilov, Q.Mo'minovlar raqs san'atida obraz yaratish bo'yicha o'z maktablariga ega. Ustozlarning ijodiy tajribalaridan «kuli»ni emas «cho'g'ini» olishimiz darkor. Quyida M.Turg'unboyeva sahnalashtirgan va «Raqs-poema» deb ta'rif berilgan «Tanovar» raqsining voqealarni sanab o'tamiz.

1. Majnuntollar orasidan sevgan yorini izlayotgan qiz.
2. Har tomonga intizor boqib izlashi.
3. Hayolida sevikli yorining kelishi va unga noz-karashmalar qilib u bilan suhbatlashishi.
4. Sog'inch, firoq azobida qolganini, alam va izzitiroblarini namoyish etishi.
5. Yorini sadoqat va umid bilan kutishga jazm qilishi.

Ushbu sanab o'tilgan voqealar asosan bir muhim voqea – «Qiz»ning sevimli yori bilan uchrashuvga kelishidan keyin tashkil topadi. Demak, birinchi sahnadagi voqeaning asosini «Qiz»ning majnuntollar orasidan intizor bo'lib yorini axtarishi tashkil etadi. Agar butun bir raqs voqealarini ana shu tarzda aniqlab chiqilsa, raqs hayotining bayoni vujudga keladi. Albatta, yuqorida sanab o'tilgan voqealar ketma-ketligini yana bo'laklarga bo'lish ham mumkin. Biroq, shuning o'zi biz xatti-harakat tahliliga kirishishimiz uchun boshlang'ich ma'lumot bo'la oladi. Shuni ta'kidlash joizki, raqs

voqealarining dastlabki tahlili raqsning tub ma'nosini ochib bera olmaydi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan raqqosaning o'z obrazi qiyofasini gavdalandirish yo'lida izlanishlari davomida aniqlanib boradi. Raqqosa obraz ustida ishlash bosqichini aniq davomiylik asosida olib borishi kerak. Insonning (obrazning) ichki ruhiy olamiga kirishi uchun avvalo, uning tashqi hayotini o'rganish talab etilganidek, demak, raqsning ichki tub ma'nosini ochish uchun avval uning tashqi tuzilishini o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

III bob. RAQS SAN'ATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

3.1. Folklor- etnografik ansambllari ijodiy faoliyatida raqs san'atining o'rni

Xalq raqs san'ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bu an'ana hozirgi kungacha ham davom etib kelmoqda. Shu sababdan, bugungi kunda respublikamizda xalq badiiy ijodiyotining eng rivojlangan turi folklor-etnografik ansambllari madaniy hayotimizda oldingi o'rinlarda turadi. Shu o'rinda viloyatlardagi ansambllarning ijodiy faoliyatlariga to'xtalib o'tsak. XX asrning 60-yillaridan boshlab respublikamizning barcha viloyatlaridagi tumanlarda bir emas, bir nechta ashula va raqs ansambllari gurkirab o'sa boshladi. Joylardagi faoliyat yuritayotgan ilg'or madaniyat xodimlari bo'lgan honandalar, sozandalar, raqqosalarga uslubiy va amaliy yordam berish uchun poytahtdan malakali mutaxassislar, bastakorlar, baletmeysterlar taklif qilingan. Ular yangi ansambllarni tashkil qilishda, repertuarlarini boyitishda o'z hissalarini qo'shganlar. O'zbek musiqa va raqs san'atining merosiga aylangan «Bayot», «Naman-ganning olmasi», «Otmagay tong», «Tanovar», «Munojot», «Rohat», «Ko'ngil taronasi», «Andijon polkasi» kabi ko'plab ommaviy va yakka raqslarni sahnalashtirib berganlar. Bunday ansambllar yillar davomida xalqning xizmatida bo'lib, ularning mehrini qo'zongan. Respublika miqyosida o'tkazilgan turli tanlovlar, festivallarda ishtirok etib yuqori natijalarga erishgan ansambllarga «Xalq ansambli» unvonlari berilgan, ularning chet davlatlarda o'tkaziladigan xalq ijodiyoti festivallarida ishtirok etishi ta'minlangan. O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, istiqlolimiz sharofati bilan milliy an'analарimiz, qadriyatlarimiz tiklanib xalq badiiy ijodiyotiga keng yo'l ochildi. Umumxalq bayramlari keng nishonlana boshlandi, xalq ijodi festivallari, turli ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi natijasida folklor janri rivojlanib respublikamizning turli hududlaridagi ashula va raqs ansambllari negizida o'ziga xos bo'lgan folklor-etnografik

ansambllar tashkil qilindi. Folklor-etnografik ansambllar faoliyati ijodiy jarayon. Ularning asosiy vazifasi – xalqimiz uchun badiiy, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdan iborat. Mustaqillik va Navro‘z umumxalq bayramlari, «Sharq taronalari», «Asrlar sadosi», «Boysun bahori», «Barhayot an‘analar», «Yangi avlod», «Kelajak ovozi» yosh ijodkorlar festivallari, M.Turg‘unboyeva nomidagi yosh raqqosalar respublika ko‘rik-tanlovi, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash, «Umid nihollari», «Universiada» sport musobaqalari va boshqa shu kabi davlat tadbirlarini o‘tkazishda maydon raqslari, folklor raqslar, bolalar raqslari janrlari vujudga keldi. Bunday katta bayram va tadbirlarni tashkillashtirish, hamda ijodiy dasturini tayyorlashda, ayniqsa, raqs san‘atining o‘rni kattadir. Chunki qo‘shiq va kuy ijrosi raqs san‘ati bilan yanada to‘ldiriladi, ularning mazmuni tomoshabinga harakatlar va obrazlar orqali yetkazib beriladi. O‘tkazilayotgan tadbirlarning mazmun va mohiyatini to‘la ochishga imkon beradi. Maromiga yetkazib ijro etilgan raqs esa, tomoshabinni zeriktirmaydi, estetik didini oshiradi, zavq beradi. Badiiy ommaviy tadbirlarda joylardagi qadimdan mavjud bo‘lgan marosim raqslari, mehnat raqslari, oilaviy va maishiy raqslardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu raqslarda urf-odatlar, an‘analar, qadriyatlarimiz aks ettiriladi. Masalan, Surxondaryo vohasining raqs maktabiga xos bo‘lgan «Chanqovuz», «Qoshiq», «Kadi» raqslari ayollarning xursandchiligini, «So‘zana», «Urchuq» raqslari o‘zbek ayollarining nozik mehnat jarayonini tasvirlaydi. «Chiroq» raqsi bir tomondan falsafiy-tarbiyaviy ma’noga ega bo‘lib insonning zulmatdan yorug‘likka, yomonlikdan yaxshilikka, yovuzlikdan ezgulikka intilishi tasvirlanadi. Ikkinchi tomondan marosim raqs hisoblanib, qadimda yilning eng uzun kechasida o‘tkaziladigan marosim aks ettiriladi. Erkaklarning «Podachilar», «Tovoq», «Chorqarsak», «Pichoq», «Ufo-jaqala», «Yaquq-yaq», «Chavandozlar», «Duchova» kabi raqslari jangovor, mehnat va marosimlarni tasvirlaydi. Xorazm vohasi folklor raqs san‘atining eng go‘zal namunalari bo‘lgan to‘qqiz turdagi «Lazgi» raqsining har-biri alohida o‘z tarixi va mazmuniga ega. «Olov», «Qayroq», «Garmon», «Dutor», «Surnay», «Hiva», «O‘g‘lon bola», «Masxaraboz», «Zamonaviy» lazgi raqsularining o‘z ijrochilari bor. «Masxaraboz lazgi»sining murakkab yo‘sindagi ephillik bilan o‘tirish va umbaloq oshib bajariladigan «Kosa», «Pichoq», «Tayoq» raqslari, maishiy

turmush bilan bog'liq «Cho'girma», «Sipsa o'yini», «Non yopish» kabi raqslar, yomon fazilatli insonlarni tanqid qiluvchi, hayvon yoki qushlarga taqlid qilib ijro etiladigan taqlidiy-pantomimik «Chag'al-loq», «Xo'roz», «Qumpishak», «G'oz», «Ot o'yini» kabi raqslari xalq karakterini ochib beradi. Toshkent-Farg'ona vodiysiga xos «Kichkinajon-kichkina», «Omon yor», «Vohay bola», Buxoro-Samarqand vohasiga hos mehnat va hazil-mutoyibali raqslari bilan tomoshabin qalbidan chuqur joy oladi. Shuning uchun marosim va bayramlarda folklor janridagi xalq raqslari zo'r qiziqish bilan tomosha qilinadi. Folklor-etnografik ansambllar dasturidagi raqslarning ijrosi natijasida milliy qadriyatlarimiz, go'zal va nafis san'atimizning qirralari, urf-odatlarimiz, an'ana va marosimlarimiz yanada jonlanadi. Folklor raqslari xalq qalbiga yaqin bo'lgan oddiy va sodda harakatlar ijrosi bilan sahnaviy raqslardan farq qiladi. Xalq orasida shakllangan raqslarda ijrochi o'zi bilganiday erkin taqlidiy harakatlar qiladi. Professional ijrochi esa ma'lum harakatlar majmuasi chegarasidan chiqmasdan, ma'lum qoidalar asosida muayyan harakatlarni ijro etib, o'zi ijro etayotgan raqsning falsafiy mazmunini anglagan holda ijro etadi. Bundan tashqari folklor raqslarda ishlatiladigan qoshiq, so'zana, kadi, tayoq, palak, urchuq, qayroq, angishvona va likob, choynak-piyola, yog'och tovoq kabi atributlarning hamda har bir vohaning o'ziga xos bo'lgan, betakror liboslari, taqinchoqlarining o'zni beqiyosdir. Bu ansambllar «Navro'z», «Mustaqillik» umumxalq bayramlari, «Sharq taronalari», «Asrlar sadosi», turli xalq ijodiyoti halqaro festivallarida ishtiroki orqali nafaqat o'zbek xalqining, balki chet davlatlardan kelgan mehmonlarning ham olqishi va tahsiniga sazovor bo'lmoqdalar.

Respublikamiz va jahonning ko'plab davlatlariga o'zbek xalq san'atini, xususan, folklor raqs janrini tanitishga erishgan «Boysun», «Chavki», «Mohi sitora» kabi folklor-etnografik ansambllar shular jumlasidandir. Birgina misol qilib olsak, «Boysun» ansambli «YUNESKO» Halqaro tashkilotning ro'yhatiga kiritilishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bugungi kunda folklor-etnografik ansambllarga dastur tayyorlashda xalq raqs an'anasining muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish syujetli raqslardan foydalanishga jiddiy e'tibor berish lozim. Chunki syujetli raqs ommaviy tadbirlardagi teatrlashtirilgan kompozitsiyaning epizodlarini bir-biriga bog'lab yuborishi tabiiydir.

Folklor-etnografik ansambllar faoliyatini tarbiyaviy jarayon deyishimiz mumkin. U inson tarbiyasini har tomonlama qamrab oladigan kompleks ishdir. Hilma-hil tarbiya sohaları, shu jumladan, estetik, ahloqiy, madaniy tarbiya sohalarini uzviy bog‘liq holda olib boradi. Shuning uchun ham, folklor-etnografik ansambllar raqqo-salaridan raqsni shunchaki, nomigagina ijro etib tomoshabinning vaqtini olish emas, balki estetik didli, nafasatga yetaklovchi, ma’naviyatini rivojlantiruvchi shaxs bo‘lishi talab etiladi. Folklor-etnografik ansambllarida ijodiy va tarbiya sohaları uzviy bog‘liq holda olib borilgandagina barkamol avlodni voyaga yetkazish, tomoshabinning xalq san’atiga bo‘lgan ehtiyojini qondirish mumkin.

Bugungi kunda viloyatlarda folklor-etnografik ansambllari rahbari ixtisosligi bo‘yicha oliy ma’lumotli mutaxassislar yetarli. Faqatgina ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatilib g‘amxo‘rlik qilinsa va tatabchanlik bilan bilimidan oqilona foydalanilsa bas. Doimo ijodiy izlanishda bo‘lib, davr bilan baravar, iloji bo‘lsa bir qadam oldinda odim tashlasak, nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lgan folklor raqs san’atini avaylab-asrashga, targ‘ib qilishga, kelajak avlodga bus-butun yetkazishga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

3.2. Ilg‘or texnologiyalarning ilmiy va uslubiy yutuqlari va o‘qitishning dolzarb masalalari

Xoreografiyada ilg‘or texnologiyalarning **ilmiy yutuqlari** – bu raqsning nazariya va metodikasini o‘zlashtirish orqali talabalarning idrokini tarbiyalash, mumtoz, milliy va jahon xalqlari raqslarining harakat elementlarini ilmiy-tadqiqot ishlar asosida o‘rgatishdir. Ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish, raqs san’ati va sahnalashtirishga doir turli davrlarda yaratilgan musiqiy asarlar va raqs namunalari nazariy o‘rganish, tahlil va tavsif etishga keng imkoniyatlar yaratilganidir.

Raqs san’ati nazariya va metodikasini o‘zlashtirish natijasida mumtoz, milliy va jahon xalqlari raqslarining harakat elementlarini o‘rgatishning eng ma’qul uslublari ishlab chiqilganligi, hamda talabalarning o‘z ishiga ijodiy yondoshish ehtiyojining ortishi xoreografiya sohasidagi ilg‘or texnologiyalarning **uslubiy yutuqlari** hisoblanadi. Ijro texnikasini oshirish, raqs sahnalashtirishga doir turli davrlarda yaratilgan musiqiy asarlar va raqs namunalari amaliy o‘rganish, tahlil va tavsif etishga keng imkoniyatlar yaratilganligidir.

Raqs san'atining muhim funksiyasi- ma'naviy qiziqish va ehtiyojlarni shakllantirish, hamda rivojlantirishdir. Ilg'or texnologiyalarning ilmiy va uslubiy yutuqlarini o'qitishning **dolzarb masalalari** sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– o'zlashtirish jarayonida raqs tarixi va nazariyasini, raqslarni yaratilish qonun-qoidalarini, raqslarga musiqa tanlash, repertuar tanlash va tayyorlashni, raqs chizmalarini tayyorlashni chuqur o'rgatishga erishish;

– harakatlar ijrosi, usullari va xarakteri haqidagi ijobiy va tanqidiy fikrlarini bayon eta olish, o'rgatish va ijro etish metodikasini, terminologiyasini bilishi, raqs maktablari va uslublari, raqs liboslarini farqlay olish, xoreografik jamoalar ijodini kuzatish va o'rganish, maxsus adabiyotlardan va maxsus ta'lim muassasasidagi pedagogik tajribalardan foydalana olish;

– raqs san'ati an'alarini, pedagogik va baletmeysterlik san'ati haqida tasavvurga ega bo'lishlari, mumtoz va folklor raqs ijrochiligining o'zaro aloqadorligini anglash;

– raqs san'atining bugungi kundagi ahvolini va bugungi tomoshabinning raqs san'atiga bo'lgan talabini aniqlay bilish;

– xalq ijodining eng nodir namunalari orqali tomoshabinni tarbiyalash. Folklor raqslarda mazmun va shaklning milliyligini saqlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash;

– professional xoreografiya san'atining folklor ijodiyoti va tomosha san'atiga ta'sirini anglash. (Masxarabozlar, dorbozlar, akrobatlar, gimnastikachilarning ijodiy dasturida raqsning texnik murakkab va qaltis harakatlaridan foydalanishi);

– professional ta'limning professional va folklor raqs ijodida aks etishi hamda uning ta'sirini aniqlay olish qobiliyatini o'stirish;

– professional raqs ansambllar baletmeysterlarining transformatsiya shaklidagi maishiy folklor raqsga tavsifini tahlil qilish;

– professional va folklor raqs ijrochiligining o'zaro aloqasi (repertuar, ijro tarzi, an'analarning avloddan avlodga yetkazib berish).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'qitishning dolzarb masalalarini hal qilishda internet tarmog'idan foydalangan holda o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish kerak. Pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, pedagogik mahoratni oshirib borish, o'qitishning eng zamonaviy uslublarini izlash, ishlab chiqish va amalda qo'llash zarur. Bunda

rivojlangan davlatlardagi turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu fan bo'yicha o'qitish uslublarini o'rganish, u yerdagi yetakchi mutaxassislarning ish tajribalarini o'zlashtirish va pedagoglar ulardan unumli foydalanishlari mumkin.

3.3. Xoreografiya va raqs asoslari fanini o'qitishning zamonaviy talablari

Xoreografiyaning asosi bo'lgan, deyarli uch asr mobaynida shakllanib, natijada qat'iy bir tizimga ega bo'lgan harakatlar majmui – **klassik raqs maktabi** va uning ta'lim metodikasini bugungi kunda butun dunyo tan olgan. Klassik raqs fanining asosiy maqsadi raqs ijrochisining tanasini rivojlantirib, harakatlarni erkin bajarishga o'rgatish hisolanadi. Qaddi-qomatni to'g'ri shakllatiradi, koordinatsiya, egiluvchanlikdan tashqari ijodiy fikrlashni, raqs ijrosi madaniyatini shakllantiradi. Shu sababdan global Internet tarmog'idan foydalangan holda o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, talabning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, mahoratni oshirib borish, ushbu fanni o'qitishning eng zamonaviy uslublarini izlash, ishlab chiqish va amalda qo'llash zarur. Shuningdek, «**Jahon xalqlari raqslari**», «**Tarixiy-maishiy raqslar**», «**Zamonaviy raqslar**», «**Raqs sahnalashtirish**» kabi fanlarni o'qitishda ham bunga e'tibor qaratish lozim.

Ayniqsa, xoreografiyaga tegishli o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy ehtiyojlardan biri malakali pedagog va uning ijodiy hamkori bo'lgan konsertmeysterdir. Xoreografiyaning ta'lim berish sohasi asosan amaliy ijro bilan bog'liq bo'lganligi sababli, mutaxassislar ba'zi bir muammolarga duch keladilar. Masalaning bir tomoni shundaki, mashg'ulotlar davomida bir vaqtning o'zida o'qituvchi ta'lim berish va talaba ta'lim olishdek «ijod qilish» jarayonini o'taydi. Bunda o'qituvchining ijodiy ishi unumli va sifatli bo'lishida unga konsertmeyster va talabaning munosabati va ruhiy holati katta ta'sir etadi. Pedagog va konsertmeyster doim ijodiy hamkorlikda bo'lib, har bir mashg'ulotning maqsadi, xoreografik va musiqiy jihatlarini talabaga tushuntirishlari kerak. Musiqa raqsning milliy koloriti, xarakteri, harakatlar ijrosiga mos kelishi kerak. To'g'ri

tanlangan musiqa talabalarida nafaqat ritmni, balki musiqiylik va ijodiy didni ham o‘stiradi.

O‘zbekistonda xoreografiya va milliy raqs san‘atida tub o‘zgarishlarga erishildi. Oliy ta‘limning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan xoreografiya fanini o‘qitishning zamonaviy talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, Prezident farmoni bilan 1997-yilda «Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi» tashkil qilindi. Bunga xoreografiya bilim yurti va Toshkent davlat madaniyat instituti tasarrufidagi «Xoreografiya» bo‘limi birlashtirildi. Hozirgi kunda TDMR va XOMda litsey, kollej va institut faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Eng quvonarlisi shuki, 2013–2014 o‘quv yilida magistratura bo‘limi tashkil etilib, unda ikki mutaxassislik bo‘yicha talabalar qabul qilindi.

O‘zbek madaniyati taraqqiyotida raqs san‘ati hamisha salmoqli o‘rin egallab kelgan. U hamisha o‘sishda, izlanishda, harakatda bo‘lgan va bundan keyin ham shunday bo‘laveradi. O‘zbek xalqi raqsni sevadi. San‘atning aynan mana shunday shaklida xalq xarakteri ochiladi.

So‘nggi yillarda farovon va ozod hayotimizni, baxtiyor yoshlikni, chin sevgi, sadoqat va hushchaqchaqlikni tarannum etuvchi zamonaviy, dilbar raqslar, avlod-ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlarini yana yangi avlodga yetkazib berayotgan folklor raqslari ko‘paydi. Ularda zamonaviylik bilan birga milliy ruh hamohang ifodalanishi raqs san‘atining yutuqlaridan deyish mumkin.

«Xoreografiya va raqs asoslari» fani san‘atshunos-jurnalistlarni o‘qitishda zarur fanlardan hisoblanadi. Ushbu fan xoreografiya va raqs san‘ati asoslarini, shakllanishi va taraqqiyotini, tarixini, turli millatlarning folklor va etnografiyasi, xalq ijodiyotining turlari va farqlari, raqs san‘ati janrlari o‘qitiladi.

3.4. Xoreografiya va raqs san‘ati ta‘limida «Ustoz-shogird» an‘analari

O‘zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog‘liq holda an‘anaviy va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan shakllarda yashab keldi. Xalq raqsi va sahnaviy raqs bir-birini to‘ldirgan hamda ta‘sir ko‘rsatgan holda muayyan bosqichlarni bosib o‘tdi. O‘zbek raqs maktabi asoschilari Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva va

ularning safdoshlari Isohor Oqilov, Roziya Karimova, Gavhar Rahimovalar mashaqqatli mehnat qildilar, ijodiy izlanishlar olib bordilar. Ularning sayi harakatlari natijasida tashkil qilingan «Bahor», «Shodlik», «Lazgi» raqs ansambllari butun jahonni lol qoldirib zabt etdi. Viloyatlarda tashkil qilingan havaskorlik ashula va raqs ansambllarida oddiy mehnatkash xalq orasidan haqiqiy iste'dodli raqqos va raqqosalarni izlab topdilar. Ularni raqs san'ati bo'yicha ta'lim olishlari uchun Toshkentda yangi ochilgan balet maktabiga jalb qildilar. Ular tarbiyalagan Tamara Yunusova, Zulayho Rahmatullayeva, Dilbar Abdullayeva, Erkinoy Rasulxo'jayeva, Nella Bashirova, Valentina Romanova, Ra'no Nizomova, Dilora Karimova, Liliya Rasulova, Alla Rahimjonova, Samiyy Ahmadiyeva, Erkinoy Rasulova, Mo'tabar Yo'ldosheva singari raqqosa qizlar ilk raqs ansamblining qaldirg'ochlari bo'lib tarixda qoldilar. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilovlarning sayi harakatlari tufayli o'zbek milliy raqs maktabiga asos solindi. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyevalar birgalikda betakror va o'ziga xos o'zbek milliy doira usullariga raqs harakatlarini o'ylab topib 5 qismdan iborat bo'lgan «Doira dars» darsligini ishlab chiqdilar. Bugungi kungacha ushbu darslik o'zbek raqs san'ati ta'limida «Raqs alifbosi» sifatida qo'llanilib, ko'z qorachig'iday asrab kelinmoqda. Roziya Karimova o'zbek raqs maktabining uchta yo'nalishi bo'yicha bir qancha o'quv adabiyotlarini yaratdi. Akbar Mo'minov, Valentina Romanova, Ra'no Nizomova, Qo'rqmas Sagatov, Erkinoy Saitova, O'g'iloy Muxamedova kabi pedagoglar o'zbek raqs san'ati ta'limining yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqdilar. Musiqa va san'at maktablari, kollejlari, litseylari iqtidorli, iste'dodli yoshlarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilgan bo'lsa, institutda minglab raqqosalar, baletmeysterlar, pedagoglar yetishib chiqib shu soha bo'yicha ta'lim berishga ijodiy faoliyatga safarbar qilindi. Ular baletmeyster va pedagoglar sifatida badiiy ijodiyot taraqqiyoti rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ustoz M. Turg'unboyeva, I. Oqilovlar sahnalashtirgan raqslar hozirgi kun raqs ta'limida «Merosiy raqslar» predmeti sifatida, sof holda yangi ijrochilarga o'qitilib kelinmoqda. Yetuk baletmeysterlar hisoblanmish Qunduz Mirkarimova, Yulduz Ismatova, Ravshanoy Sharipova, Viloyat Oqilova, Shokir Ahmedov, Qodir Mo'minov, Karima Uzoqova,

Ma'mura Ergasheva, Ra'no Alimova, Nasiba Madrahimova, Ziyoda Madrahimova, Gavhar Matyoqubovalar qatorida Rushana Sultonova, Oysha Aytmagambetova, Gulmira Shirinova, Shoira Qurbonova va boshqa ko'plab baletmeysterlar ustozlar an'anasiga qat'iy tayangan holda ularning ishlarini davom ettirib, raqs san'atining faoliyat doirasini kengaytirish orqali uning yanada boyishiga va professional darajaga yetishiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Mahoratli, izlanuvchan, tashkilotchi baletmeysterlar tomonidan juda ko'plab professional va havaskorlik raqs ansambllari tashkil qilindi. 1997- yilda «O'zbekraqs» birlashmasi tashkil etilganidan so'ng viloyat filialiari ochilib «Sumalak», «Gulira'no», «Lola», «Namangan gullari», «Anor», «Xorazm navolari», «Momogul», «Navoiy navolari», «Guldasta» kabi raqs ansambllari hamda bir qancha bolalar raqs ansambllari tashkil etildi. Istiqolimiz sharofati bilan milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz tiklanib xalq badiiy ijodiyotiga keng yo'l ochildi. Umumxalq bayramlari tiklandi va keng nishonlana boshlandi. Xalq ijodi festivallari, turli ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi natijasida folklor janri rivojlanib respublikamizning turli hududlarida o'ziga xos folklor-etnografik ansambllar tashkil qilindi. Mahoratli, izlanuvchan, tashabbuskor baletmeysterlar tomonidan juda ko'plab professional va havaskor raqs ansambllari tashkil qilindi. «Mustaqillik» va «Navro'z» umumxalq bayramlari, «Sharq taronalari», «Asrlar sadosi», «Boysun bahori», «Barhayot an'analar», «Yangi avlod», «Kelajak ovozi» yosh ijodkorlar festivallari, M.Turg'unboeva nomidagi yosh raqqosalar respublika ko'rik-tanlovi, Buxoro va Hiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» sport musobaqalari va hoshqa shu kabi davlat tadbirlarini o'tkazishda folklor raqslari tiklandi, maydon raqslari va bolalar raqslari turlari vujudga keldi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak-ki, «Bulbulcha», «Tomosha», «Sevinch», «Tantana», «Orzu» kabi ko'plab bolalar ansambllari ishtirokchilarining ijro etayotgan qo'shiqlariga mos harakatlanishlari uchun maxsus «Raqs» darslari ham o'qitiladi. Bu esa yosh ijrochilarning sahnada erkin harakatlanishiga, teran fikrlashga, ijrochilik va aktyorlik mahoratini namoyon etishga yordam beradi.

Raqs ta'limini yaxshilash, raqs tarixini o'rganish, milliy raqslarni yozib olishning eng qulay usullarini ishlab chiqish va ta'limga joriy qilish, raqs san'ati targ'iboti va tanqidini yo'lga qo'yish, raqsshunoslar

tayyorlash kabi masalalarning yechimi sifatida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida «San'atshunoslik» ta'lim yo'nalishi ochilgani quvonarli holdir. Bugungi kungacha bakalavr darajasini olayotgan yoshlarimiz oliy ta'lim muassasasida ta'lim berayotgan ustozlarning pedagoglik tajribalarini tezroq o'zlashtirib, kelajakda pedagog sifatida ishlashining imkoniyati yo'q edi. Bu muammoga ham chek qo'yildi va 2013–2014 o'quv yilida magistratura bo'limi ochilib, mutaxassislikga ega bo'lishlariga imkon yaratildi.

Xoreografiya va raqs san'ati ta'limida «Ustoz-shogird» an'analarini tatbiq etish natijasida xoreografiya va raqs san'ati badiiy ijodiyot taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchining bir bo'g'iniga aylandi.

GLOSSARIY

Nazariya (ilmiy) – voqelikning u yoki bu sohasidagi qonuniyatlar haqida yaxlit tasavvur beruvchi ilmiy bilimni tashkil etish shakli.

Tarbiya – aniq maqsad asosida shaxsda ijobiy xislatlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat.

Tarbiya vositalari – tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqa turli vazifalarni bajarish uchun belgilangan moddiy, ma'naviy, madaniy obyekt va predmetlar yig'indisidir.

Tarbiya metodlari – tarbiyalanuvchini hayotini, faoliyatini, muomala va munosabatini tashkil etish, hulqi va faoliyatini tartibga solish uchun pedagogik maqsadga muvofiq ijtimoiy shartlangan usullardir.

Tarbiya prinsiplari – tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va vositalariga qo'yiladigan talablar.

Tarbiya usullari – tarbiya metodining bir qismi bo'lib, alohida ta'sir, muayyan o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

Tarbiya shakllari – tarbiyachi va tarbiyalanuvchining birgalikda, belgilangan tartibda amalga oshiradigan faoliyatining tashqi ko'rinishidir.

Ta'lim – insonning ma'lum bir tizim asosida olgan bilim, ko'nikma, malakasi va egallangan ma'naviy fazilatlarini yig'indisidir.

Ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi – ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligi to'g'risidagi qarashlar va g'oyalar tizimidir. Unga ko'ra ta'lim-tarbiya jamiyat rivojlanishi va taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omildir hamda ta'lim va tarbiyaning uzluksizligi prinsipiga asoslanadi. Milliy-madaniy meros ta'lim-tarbiyaning muhim negizidir. Ayni paytda ta'lim-tarbiya insoniyat erishgan ilm-fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi yutuqlarni ham hisobga oladi va uni ijtimoiy hayot sohalariga tadbiq etish bilan xarakterlanadi.

Fan – bilish faoliyatining yangi, obyektiv bilimlar ishlab chiqishga yo'naltirilgan alohida turi, voqelik haqidagi bilimlarning uyushgan tizimi.

Shaxs rivojlanishi – insonning butun umri davomida aqliy va jismoniy o'zgarishi jarayonidir.

Nafislik – go'zallik, noziklik.

Yirik qiyg'ir bo'yin – erkaklar raqsidagi harakat.

Mayda qiyg'ir bo'yin – ayollar raqsidagi harakat.

Duchoba – tizzadagi erkakcha charx.

Qiyin ufori – murakkab o'zgaruvchi qadam.

Yon yo'rg'a – bir oyoqda yo'rg'ab yurish.

Ansambl – fransuzcha so'z bo'lib, hamjihatlikda, birgalikda degan ma'noni bildiradi.

Maromiylik – qiyomiga yetkazish.

Mutanosiblik – bir – biri bilan bog'liqlik.

Improvizatsiya – oldin tayyorlanmasdan ijro etish.

Folklor – xalq raqslari, xalq ijodi.

Raqqosa (raqqos) – o'z harakatlari orqali raqslarni ijro etuvchi shaxs. Raqqosalar o'zlarining imkoniyatlariga ko'ra turlanadi va turlicha nomlanadi. Masalan, yakkaxon (solist) va ommaviy raqs ijrochisi.

Solist – yakkaxon, yakka ijrochi.

Baletmeyster – raqs o'rgatuvchi, raqs sahnalashtiruvchi, raqs jamoasining rahbari.

Repetitor – sahnalashtirilgan raqsni mashq qildiruvchi.

Janr – musiqiy asarlarning turlari.

Nota – musiqaning yozma matnda berilishi. Nemis tilidan olingan bo'lib, yozuv ma'nosini bildiradi. Keng ma'noda musiqqa matni, tor ma'noda bitta tovushning yozuvda ifodalanishini bildiradi.

Mashq – malaka hosil qilish.

Raqs san'ati tarixi – raqs sanati paydo bo'lishidan hozirgi kungacha bo'lgantaraqqiyotni o'rgatuvchi fan.

Raqs shakli – raqsning kompozitsiyasi, tuzilishi.

Kuy – ohang, nag'ma, tovushlarning birin-ketin kelishi orqali yaratiladigan majmua. O'zbek milliy musiqasida kuy bir ovoqli bo'ladi. Boshqa xalqlar kuylarida ikki ovoqli boshlab bir necha ovoqli bo'lishi ham mumkin.

Temp – musiqqa asarining ijro etish sur'ati.

Sozanda – musiqiy cholg'u vositasida musiqiy asarni ijro etuvchi shaxs.

Ritm – usul ma'nosini beradi. O'zbek musiqasida ritm va usul turlicha ma'nolarni anglatadi. Bunda, doira yoki boshqa urma cholg'uda doimiy takrorlanishi mumkin bo'lgan ritm usul deyilsa, boshqa xalqlar musiqasida bir yoki bir necha taktida ifodalanadigan tovush cho'zimlarining birgalikda kelishi tushuniladi.

Ekspozitsiya – asarning kirish qismi. Raqs dramaturgiyasida tugun-asar qahramonlarining bir-biri bilan to‘qnashuvi.

Raqs variatsiyasi – Ommaviy raqs.

Raqs nutqi – Maqsad.

Raqs tili – Vosita.

Raqs tasviri – Ijrochilarning sahnadagi joylashuvi tasviri.

Raqs matni – raqsning yozma bayoni (libretto).

TALABALAR BILIMINI SINASH UCHUN TEST SAVOLLARI

Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqo- bil javob	Muqo- bil javob	Muqo- bil javob
«Klassik raqs» fanida nechta qo'l holati bor?	*uchta	ikkita	to'rtta	beshta
«Klassik raqs» fanida nechta oyoq holatlari bor?	*beshta	oltita	uchta	yettita
«Klassik raqs» fani kombinatsiyalarining nomlari qaysi davlat tilida yuritiladi?	*fransuz	lotin	ingliz	rus
«Pliye» harakatining turlari?	*ikki xil	to'rt xil	besht xil	uch xil
Yarim o'tirish bu?	*Demi pliye	yugurish	yurish	otish
«Pliye» harakati qaysi holatlarda bajariladi?	*oyoqning barcha beshta holatlarida	birinchi va uch holatda	faqat besh holatda	faqat ikkinchi va to'rt holatda
Demi pliye – harakatining ma'nosi nima?	*yarim o'tirish	sakrash	yugurish	yurish
Grand pliye harakatining ma'nosi nima?	*to'liq o'tirish	yurish	yotish	dumalash
Grand pliye harakatini nechanchi holatlarda bajarish mumkin?	* oyoq holatlarining barchasida	ikki va yettida	bir va beshda	bir, ikki va besh holatlarda
«Pliye» harakatining ma'nosi nima?	*o'tirish	sakrash	yugurish	yurish
«Developpe» harakatining ma'nosi nima?	*ishchi oyoq uchini tayanch oyoq bo'ylab tizzagacha ko'tarish	oyoq bukish	siltash	surish
«Battement tendus» harakatining ma'nosi nima?	* siljitish	otish	siltash	ko'tarish

«Battement tendus» harakatining nima? harakatining vazifasi nima?	oyoqlarni kuchli bo'lishiga yordam beradi	mayin qiladi	plastika sini oshiradi	egilishga yordam beradi
«Battement-tendus» harakati oldinga qanday bajariladi?	*tovon bilan ochiladi, uchi bilan yopiladi	uchi bilan ochiladi va tovon bilan yopiladi	bir vaqtda ochiladi	bir vaqtda yopiladi
Oyoq uchi tortilib polga sanchib olinadigan harakat bu?	*Pikke	polga uriladi	tovon uriladi	oyoq yonga ochiladi
«Battement – tendus» harakati orqaga qanday bajariladi?	*uchi bilan ochiladi, tovon bilan yopiladi	tovon bilan ochiladi	uchi bilan yopiladi	oyoq otiladi
«Battement tendu jette» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*bir, uch, besh	ikki va yettida	to'rt	ikki va uch holatlarda
«Battement tendu jette» harakatida oyoq necha gradusga otiladi?	*yigirma besh	yigirma	o'ttiz	o'ttiz besh
«Battement-tendus jette» harakatining manosi nima?	*kichik otish	yuqoriga otish	katta otish	siljitish
Pikke qanday bajariladi?	*oyoq uchi tortilib polga sanchib olinadi	polga uriladi	tovon uriladi	oyoq yonga ochiladi
Passe par-terre qanday bajariladi?	*oyoq birinchi holat orqali oldinga va orqaga polda sirpanib o'tadi	ikkinchi holatga otiladi	havoga ko'tariladi	to'rtinchi holatga o'tiladi
Stanok oldida bajariladigan birinchi harakatning nomi nima?	*demi va grand pliye	jette	tandu	frappe

Ekzersis so'zining ma'nosi nima?	*kombinatsiy alarning to'plami	sakrash	birinchi holatda turish	ikkinch uchinchi holatlar-da egilish
Stanokdagi kombi-natsiyalar to'plami ni-ma deb nomlanadi?	*ekzersis	sakrash	birinchi holatda turish	egilish
«Rond-de-jambe-par-terre» harakatining ma'nosi nima?	*oyoq uchi bilan polda aylana chizish	tash-qariga aylanish	yarim aylanish	to'g'riga aylanish
Oyoqni 90 ⁰ otish bu...	*Grand battmen jette	Ronde - jamb parter	Batteme nt fondyu	Adagio
«Ronde-jamb parter» harakatida andeor nima?	ichkariga aylanish	tashqari ga aylanish	yarim aylanish	siltash
«Grand battmen jette» harakatining ma'nosi nima?	oyoqni 90 ⁰ otish	oyoqni ko'tarish	oyoqni 95 ⁰ dan tushirish	oyoqni 65 ⁰ otish
«Grand battmen jette» harakati qanday baja-riladi?	beshinchi ho-latda oyoqni 90 ⁰ otiladi	yuqoriga ko'tari-ladi	yonga otiladi	balandga sakrash
«Ronde - jamb parter» harakatida andedan ni-ma?	* tashqariga aylantirish	to'liq aylanish	ichkariga aylanish	otish
«Ronde - jamb parter» harakati nechanchi ho-latda bajariladi?	*bir holatda	to'rt holatda	yetti holatda	ikki holatda
«Battement fondyu» harakati qanday baja-riladi?	*sekin va ma-yin, oyoqni tizzadan bu-kib	sekin va qattiq urib	tez va qattiq urib	tez va mayin urib
«Battement fondyu» harakati nechanchi ho-latdan boshlanadi?	*besh	bir	to'rt	ikki

«Battement frappe» harakati nechanchi holatdan boshlanadi?	*besh holatdan	bir holatda	ikki holatda	uch holatda
«Battement frappe» harakati qanday bajariladi?	*oyoqni tiz-zadan bukib, to'piqqa tez va qattiq urib	sekin va yumshoq urib	sekin va mayin urib	sekin urib
«Adagio» harakati nechanchi holatdan boshlanadi?	*besh holatdan	uch holatda	to'rt holatda	olti holatda
Oyoqni tashqariga aylantirish nima deb nomlanadi?	*Andedan	Allonje	Assamble	Releve
«Adajio» harakatining ma'nosi nima?	*oyoqni 90 ⁰ ga ko'tarish va bir nuqtada ushlab turish	oyoqni 90 ⁰ da otish va yopish	oyoqni 95 ⁰ da otish va yopish	oyoqni tizzaga ko'tarish
«Battement-tendyu» va battement - jette harakatida qanday farq bor?	*siljitish va otish	surish va ko'tarish	ochish va ko'tarish	egilish va yoyish
Allonje so'zining ma'nosi nima?	*qo'l barmoqlarining chozilgan yoki uzaytirilgan holati	kaftning yopiq holati	barmoqla yig'ilgan	tizzalar birlashgan
«Porde-bras» harakatini ma'nosi nima?	*egilish	otish	siltash	urish
«Eshappe» harakati qanday bajariladi?	*ikki holatdan besh holatga va beshdan ikki holatga qaytib sakrash	ikkidan oltiga sakrash	uchdan beshga sakrash	birdan beshga sakrash
«Sotte» harakati qaysi holatlarda bajariladi?	*bir, ikki, besh	uch, to'rt, besh	ikki, to'rt, besh	ikki, uch, besh

«Shanjemen-de-pyed» qaysi holatlarda bajariladi ?	*besh	bir	to‘qqiz	olti
«Angler» harakatining ma’nosi nima?	*oyoqni 90° ga ko‘tarib tizzani bukkanda holda havoda aylantirish	oyoqni 45° otish	oyoqni tizzaga gacha ko‘tarish	oyoqni 90° otish va yopish
Angler harakatining turlari nechta?	*ikki hil – andedan va andehor	to‘rt hil	olti hil	besh hil
Assamble – bu	*sakrash	cho‘zilish	egilish	enkayish
Releve–bu	*oyoqlar uchiga ko‘tarilish	tovonda turish	tizza bukish	aylanish
Pas-glissad	*oyoqni sirpanuvchan qadam	oddiy qadam	yonga tashlash	gavda holati
Pas-shosse	*oyoqni sirpantirib qo‘sh qadam tashlash	oddiy qadam	yonga tashlash	gavda holati
Kruaze	*oyoqning 5-holatdagi yopiq holati	2-yopiq holati	oyoqning 4-holati	oyoqning 5-holatdagi ochiq holati
Oyoqning 5-holatdagi yopiq holati bu....	*Kruaze	Ekarte	Efasse	Pas-shosse
Efasse	*oyoqning 5-holatdagi ochiq holati	oyoqning 5-yopiq holati	3-yopiq holati	oyoqning 2-ochiq holati
Oyoqning 5-holatdagi ochiq holati bu....	*Efasse	Kruaze	Pas-shosse	Fondyu
Oyoqni polga urish nima deyiladi?	*Drobbi	Kruaze	Pas-shosse	Fondyu

Ekarte	* ishchi oyoqning yon tomonga ochiq holati	qo'lining ko'tarilgan holati	qo'lining yonga ochiq holati	tayanch oyoqning yon tomonga ochiq holati
Stanok oldida bajariladigan ikkinchi harakatning nomi nima?	*battement-dus	Battement-tendus jette	Fondu	frappe
Stanok oldida bajariladigan uchinchi harakatning nomi nima?	*battement-tendus jette	Battement-tendus	pliye	fondyu
Stanok oldida bajariladigan to'rtinchi harakatning nomi nima?	«Ronde-jamb parter»	Battement-tendus	pliye	fondyu
Stanok oldida bajariladigan beshinchi harakatning nomi nima?	*Battement fondu	Battement-tendus	pliye	«Ronde-jamb parter»
Stanok oldida bajariladigan oltinchi harakatning nomi nima?	*Battement frappe	Battement-tendus	pliye	fondu
Stanok oldida bajariladigan yettinchi harakatning nomi nima?	*Adajio	Battement-tendus	pliye	fondu
Stanok oldida bajariladigan sakkizinchi harakatning nomi nima?	*Grand battement jette	Battement-tendus	pliye	fondu
Jahon xalqlari raqs-larida nechta asosiy qo'l holatlari bor?	*ikkita	to'rtta	oltita	beshta
Jahon xalqlari raqs-larida nechta asosiy to'g'ri oyoq holatlari bor?	*beshta	bitta	uchta	to'rtta
Jahon xalqlari raqsida nechta ochiq oyoq holatlari bor?	*beshta	to'rtta	oltita	bitta

Jahon xalqlari raqsida nechta yopiq oyoq holatlari bor?	*ikkita	to'rtta	uchta	beshta
Jahon xalqlari raqsida stanokdagi ekzersis nechta?	*ikkita	to'qqizta	sakkizta	oltita
«Drobbi» mashqining ma'nosi nima?	*oyoqni polga urish	otish	siltash	ko'tarish
«Motalochka» harakati ma'nosi nima?	*oyoqni yondan-yonga urib surish	joyidan sakrash	yugurish	o'tirish
Jahon xalqlari raqsi klassik raqsdan farqi nimada?	*xarakterida	nozikli-gida	mayin-ligida	sho'x-ligida
Xorovod qaysi millat raqs turkumlariga kiradi?	*Rus, ukrain	Tojik	Arab	Ispan
«Golubets harakati qaysi millat raqsiga xos?	*Ukrain	O'zbek	Turk	Rus
Kabluchniy mashqining ma'nosi nima?	*oyoqning tovonini polga urish	otish	siltash	ko'tarish
«Flik-flyak» mashqining ma'nosi nima?	*oyoqning uchini polda oldinga, orqaga, yonga sirpantirib olish	oyoqni polga urish	tizzani polga urish	qarsak urish
«Koviryalochka» harakati qaysi millatlar raqsiga mansub?	*Ruscha, ukraincha	Ruscha, arman-cha	Ispan-cha, ukrain-cha	Hindcha, sigancha
«Veryovochka» harakati qaysi raqs fanida o'qitiladi?	*Jahon xalq raqslarida	O'zbek raqsida	Klassik raqsda	Zamonaviy raqsda
Jahon xalq raqslariga kiruvchi harakat nomi	*«Veryovochka»	demi-pliye	jette	rond

«Bolshiye broski» harakati qaysi raqs fanida o'qitiladi?	*Jahon xalq raqslarida	O'zbek raqsida	Klassik raqsda	Zamonaviy raqsda
«Mayin sabo» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*ikki	besh	yetti	to'rt
«Yirik to'lqin» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*olti	uch	besh	bir
«Uzum uzish» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*to'rt	bir	besh	yetti
«Novda egilishi» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*uch	ikki	besh	olti
«G'uncha» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*ikki	bir	yetti	to'rt
«Doira dars» darsligi necha qismdan iborat?	*besh	bir	to'rt	olti
Qo'ning «Ilon» harakati nechanchi holatda bajariladi?	*bir	besh	to'rt	yetti
«Labi g'uncha» harakatida qo'llar qayerda turadi?	*iyak ostida	quloq yaqinida	yuzning to'g'risida	oltinchi holatda
«Doira dars» darsligining birinchi qismi qaysi harakatdan boshlanadi?	*Qo'shqarsak	Duchoba	Mayin sabo	Qo'l-dasta o'yin
«Doira dars» darsligining ikkinchi qismi qaysi harakatdan boshlanadi?	*Duchoba	Qo'l-dasta o'yin	Qo'shqarsak	Mayin sabo
«Doira dars» darsligining uchinchi qismi qaysi harakatdan boshlanadi?	*Uzum uzish	Duchoba	Qo'shqarsak	Qo'l-dasta o'yin

«Doira dars» darsligining toʻrtinchi qismi qaysi harakatdan boshlanadi?	*Novda egilishi	Uzum uzish	Du-choba	Qoʻsh-qarsak
«Doira dars» darsligining beshinchi qismi qaysi harakatdan boshlanadi?	*Zang	Qoʻsh-qarsak	Uzum uzish	Novda egilishi
«Doira dars» darsligi kim tomonidan yaratilgan?	*Usta Olim Komilov, Tamarahonim, Mukarrama Turgʻunbo-yeva	Qahramon Dada-yev, Qodir Moʻminov	Yulduz Ismatova, Usta Olim Komilov	Usta Olim Komilov, Qunduz Mirkarimova
Oʻzbek raqsida qoʻl holatlari nechta?	*yettita	toʻrtta	ikkita	toʻq-qizta
Oʻzbek raqsida oyoq holatlari nechta?	*yettita	bitta	oltita	sakkizta
Oʻzbek raqsining maktablari nechta ?	*uchta	ikkita	toʻrtta	yettita
«Oʻzbekraqs» birlashmasi qachon tashkil topgan?	*1997-yil 8-yanvar	2007-yil 10-yanvar	1999-yil 5-mart	1998-yil 10-sentabr
«Bahor» Davlat raqs ansambli nechanchi yil tashkil topgan?	*1957-yil	1968-yil	1963-yil	1975-yil
«Lazgi» Davlat raqs ansambli nechanchi yil tashkil topgan?	*1968-yil	1957-yil	1963-yil	1975-yil
«Shodlik» Davlat raqs ansamblining birinchi baletmeysteri kim?	*Isohor Oqilov	Yulduz Ismatova	Dilafuz Jabborova	Maʼmura Ergasheva
«Tanovar» raqs ansamblining birinchi baletmeysteri kim?	*Yulduz Ismatova	Qunduz Mirkarimova	Maʼmura Ergasheva	Isohor Oqilov

«Qayroq» qaysi raqs yo'nalishlarida ishlatiladi?	*Xorazm, Buxoro	Surxondaryo, Qashqadaryo	Toshkent, Farg'ona	Xorazm, Qoraqalpoq
«Charx» aylanish harakati nechanchi holatda bajariladi?	*bir	ikki	sakkizta	uch
«Zang» taqinchog'i qaysi raqs yo'nalishlarida ishlatiladi?	*Xorazm, Buxoro	Xorazm, Qoraqalpoq	Toshkent, Farg'ona	Surxondaryo, Qashqadaryo
«Yog'och qoshiq» qaysi hudud raqs yo'nalishlarida ishlatiladi?	*Surxondaryo	Xorazm, Buxoro	Toshkent, Farg'ona	Xorazm, Qoraqalpoq
O'zbek xalq raqs maktabi asoschilari kimlar?	*Usta Olim Komilov, Tamarahonim, Mukarrama Turg'unboeva	Yulduz Ismatova, Usta Olim Komilov	Qahramon Dadayev, Qodir Mo'minov	Olim Komilov, Qunduz Mirkarimova
O'zbek raqs san'ati to'g'risidagi o'quv adabiyotlarining birinchi avtor kim?	*Roziya Karimova	Lyubov Avdeyeva	Shokir Ahmedov	Tamaraxonim
Raqs tasviri nima?	*Raqqosalar harakatlani-shining geometrik figuralarda tasvirlanishi	Raqs matni	Raqs harakati	Raqs mazmuni
O'zbek raqsi folklor janrining hududiy yo'nalishlari necha xil?	*to'rt	ikki	uch	besht
«Masxaraboz» raqsi folklor janrining qaysi hududiy yo'nalishiga mansub?	*Xorazm	Surxondaryo	Buxoro	Farg'ona

«Mavrigi» o‘zbek raqsi folklor janrining qaysi hududiy yo‘nalishiga mansub?	*Buxoro	Surxondaryo	Xorazm	Farg‘ona
«Bahor valsini» raqsini kim sahnalashtirgan?	*Mukarrama Turg‘unboyeva	Qodir Mo‘minov	Yulduz Ismatova	Usta Olim Komilov
«Lagan» raqsini kim sahnalashtirgan?	* Isohor Oqilov	Yulduz Ismatova	Usta Olim Komilov	Mukarrama Turg‘unboyeva
Yulduz Ismatova tashkil qilgan ansambl....	*Tanovar	Bahor	Lazgi	Sumalak
«Tanovar» raqsining ilk ijrochisi?	*Mukarrama Turg‘unboyeva	Usta Olim Komilov	Yulduz Ismatova	Qodir Mo‘minov
«Xoreografiya» so‘zining ma‘nosi nima?	*Raqsni yozaman	Xalq raqsi	Jahon raqsi	Milliy raqs
M.Turg‘unboyeva nechanchi yil tug‘ilgan?	*1913-yil	1906-yil	1924-yil	1931-yil
Tamaraxonim nechanchi yil tug‘ilgan?	*1906-yil	1913-yil	1924-yil	1931-yil
Qaysi raqs merosiy raqs turkumiga kiradi?	*Munojot raqsi	Lazgi raqsi	Surxoncha raqs	Doira raqsi
Juftlikdagi raqslar nima deb ataladi?	*Duet	Trio	Guruhli	Yakka
Raqs tasviri necha turda bo‘ladi?	*ikki	to‘rt	uch	olti
Tamaraxonim «Oltin medal» bilan qayerda taqdirlangan?	*Londonda	Italiyada	Parijda	Germaniyada
Qaysi bandda «Raqs poema» deb nom olgan yakka raqs to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	* «Tanovar»	«Roxat»	«Dil kuylasin»	«Pilla»

Bernara Qoriyeva san'atning qaysi sohasida ijod qilgan?	*Raqs san'ati, balet	Sirk	Kino	Teatr
Birinchi o'zbek balerinasini kim?	*Galiya Izmailova	Feruz Alimova	Bernara Qoriyeva	Guli Hamrayeva
Birinchi o'zbek baleti qaysi banda to'g'ri ko'rsatilgan?	*«Oq bilak»	«Shopeniano»	«Bog'chasaroy fontani»	«Qirq qiz»
M.Turg'uboyeva saxnalashtirilgan raqslar qaysi banda to'g'ri ko'rsatilgan?	*«Tanovar», «Munojob», «Pilla», «Roxat»	«Lagan raqsi», «Dil kuy-lasin»	«Katta o'yin», «Shodiyona»	«Navqironim qani?», «Temuriylar malikalari»
Charxlarda raqqosa muvozanatini saqlash uchun nima qilishi kerak?	*O'zini yuqoriga tortishi kerak	O'zini bo'sh tutishi kerak	O'zini orqaga tutishi kerak	O'zini oldinga tortishi kerak
Farg'onacha raqsda tebranish qanday harakatlar turiga kiradi?	*Gavda harakatlariga	Muqomlarga	Qo'l harakatlari	Oyoq harakatlari
Aylanishlar necha turga bo'linadi?	*to'rt	ikki	bir	besht
Qodir Mo'minov kim?	*baletmeyster	xormeyster	rejissyor	aktyor
Isohor Oqilov kim?	*baletmeyster	xormeyster	rejissyor	aktyor
Bernora Qodirova kim?	*balerina	xormeyster	rejissyor	aktyor
Shokir Ahmedov kim?	*baletmeyster	xormeyster	rejissyor	aktyor
Tempo-ritm tushunchasi?	*xatti-harakatning rivoji va uning vaqt birligidagi mantiqiy	oliy maqsad uchun qilingan harakat-	ijrochilik san'atining tezkorlik	personajlar xatti-harakatining me'yori

	yakuni	lar miqdori va vaqt o'Ichovi	darajasi	
Ritm nima?	*usul	ashula	replika	ovoz
Yuz ifodasi nima deyiladi?	*mimika harakati	ritmika	plastika	pantomima
Pauzalar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?	*lyuft pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza, sayyor pauza	gramatik pauza, fonetik pauza, maqsadli pauza, mantiqli pauza	tabiiy pauza, tarkibiy pauza, sayyor pauza, psixologik pauza	Psixologik pauza, gramatik pauza,
Usul nima?	*ritm	raqs	replika	nota
Etyud nima?	*kichik raqs	omma-viy raqs	raqsning bir qismi	raqs chizmasi
Mimika nima?	*yuz ifodasi	grim	ko'ri-nish	chehra
«Tanovor» raqsiga qanday ta'rif berilgan?	*«Raqs poema»	«Oltin raqs»	«Tarixiy raqs»	«Xijron raqs»
Titratma qanday harakat turiga kiradi?	*elka harakati	qo'l harakati	bosh harakati	oyoq harakati
Iyak qoqish qanday harakat turiga kiradi?	*bosh harakati	qo'l harakati	oyoq harakati	gavda harakati
Oyoq harakatiga kiruvchi harakat qaysi?	*oqsatma	qo'l dasta o'yin	mayin sabo	to'lqin
«Mayin sabo» harakatining ma'nosi nima?	*mayin shabboda	dovul	shamol	mayin shamol
Oqsatma qanday harakat turiga kiradi?	*oyoq harakati	qo'l harakati	bosh harakati	gavda harakati
Yarim qaychi qanday harakat turiga kiradi?	*oyoq harakati	qo'l harakati	bosh harakati	gavda harakati

Mayda ufori qanday harakat turiga kiradi?	*oyoq harakati	qo'l harakati	bosh harakati	gavda harakati
Ma'mura Ergasheva qaysi san'at turida ijod qiladi?	*raqs	kino	sirk	teatr
Raqs muallifi kim?	*baletmeyster	raqqosa	sozanda	qo'shiqchi
Miya faoliyatini faollashtiruvchi mashq bu...	*koordinatsiya mashqlari	qo'l mashqlari	oyoq mashqlari	bosh mashqlari
Konsert qanday ma'noni bildiradi?	*bellashuv, musobaqa	sahnaga chiqish	tomosha	yig'ilish
Koordinatsiya mashqlari raqqosaga qanday yordam beradi?	*miya faoliyatini faollashtiradi	muskullarni chiqaradi	plastikani rivojlantiradi	ijro texnikasini o'zlashtirishda yordam beradi
Harakat nima?	*ruhiy va jismoniy jarayon	jismoniy mashqlar	berilgan shartsharoitda mantiqiy xolat	maqsadga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar
Baletmeysterlik turlari necha xil?	*to'rt	besh	olti	yetti
Kichik raqs nima?	*etyud	variantiya	duet	kino
Raqs nima?	*musiqa va harakat orqali badiiy obraz yaratishga asoslangan san'at	o'yin	harakat	ko'rinish
Raqs san'atiga bog'liq san'at turlari	*musiqa va aktyorlik	rassomchilik	amaliy san'at	haykaltaroshlik


Sivilya Tanguriyeva kim?	*raqqosa va pedagog	raqqosa	aktrisa	pedagog
«Bahor vals» kuyining avtori kim?	*M.Mirzayev	Q.Da-dayev	A.Ismoilov	B.Aliyev
Musiq va harakat orqali badiiy obraz yaratishga asoslangan san'at turi bu...	*raqs	kino	rassomchilik	kashtachilik
Ustoz Tamaraxonimning san'atdagi asosiy yo'nalishi	*lapar	xonanda	raqqosa	aktrisa
Tamaraxonim ijro etgan raqslar	*to'g'ri javob yo'q	Lazgi, tanovor	Munjo't, tanovor	Tanovor, lazgi
Variatsiya nima?	*bir necha raqslar to'plami	yakka raqs	duet	etyud
Raqs san'ati qaysi sport turlariga yaqin?	*gimnastika	boks	kurash	suzish
Raqs san'ati qanday madaniy me'ros hisoblanadi	*nomoddiy	moddiy	tarixiy	arxeologik
«Polonez» raqsi qaysi millat raqsidan kelib chiqqan?	*Polyak	Fransuz	Nemis	Ingliz
«Vals» nechanchi asrdan boshlab raqs sahnasida paydo bo'ldi?	*XVIII asrdan	IX asrdan	XIV asrdan	XXI asrdan
Valsning musiqiy o'lchovi qanday?	*3/4 o'lchov	2/4 o'lchov	6/8 o'lchov	6/4 o'lchov
Qiyg'ir bo'yin qanday harakat turiga kiradi?	*bosh harakati	qo'l harakati	oyoq harakati	gavda harakati
Qosh uchirish qanday harakat turiga kiradi?	*mimika harakati	qo'l harakati	bosh harakati	gavda harakati
Sildirma qanday harakat turiga kiradi?	*gavda harakati	qo'l harakati	bosh harakati	oyoq harakati
Qaychi qanday harakat turiga kiradi?	*oyoq harakati	qo'l harakati	bosh harakati	gavda harakati

Qiyin ufori qanday harakat turiga kiradi?	*oyoq harakati	qo'l harakati	bosh harakati	gavda harakati
«Pichoq» raqsi qaysi hudud raqs turiga kiradi?	*Surxondaryo	Farg'ona	Xorazm	Buhoro
«Pilla» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxondaryo
«Paxta» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxondaryo
«Rohat» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxondaryo
«Katta o'yin» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxondaryo
«Sindi shox» harakati qaysi raqs maktabiga hos harakati hisoblanadi?	*Xorazm	Farg'ona	Buhoro	Surxondaryo
«Kiyik shoxi» harakati qaysi raqs maktabiga hos harakat hisoblanadi?	*Xorazm	Tojik	Buhoro	Surxondaryo
«Gul o'yin» harakati qaysi raqs maktabiga hos harakat hisoblanadi?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxondaryo
«Suv mavji» harakati qaysi raqs maktabiga hos harakat hisoblanadi?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxondaryo
O'zbek raqs maktablari necha xil kaft turlari mavjud?	*to'rt	bir	uch	ikki
Raqs san'atida tomonlarning asosiy nuqtalari nechta?	*sakkiz	olti	to'rt	yetti
Raqs san'atida sahnaning asosiy nuqtalari nechta?	*to'qqiz	to'rt	sakkiz	uch


Farg'ona raqs maktabiga hos harakat	*Gul o'yin	koviryal ochka	Galop	O'g'lon bola
Raqs san'atida nechta asosiy holatlar mavjud?	*to'rtta: bosh, qo'l, oyoq, gavda	uchta: bosh, qo'l, oyoq	ikkita: qo'l, oyoq	to'rtta: gavda, qo'l, oyoq, elka
Tarixiy-maishiy raqs-lar turkumiga kiruvchi raqs	*Polonez	Lazgi	Tanovor	Mavrigi
«Qayroq lazsi» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Xorazm	Farg'ona	Buhoro	Surxon-daryo
«O'g'lon bola» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Xorazm	Farg'ona	Buhoro	Surxon-daryo
«Rohab» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Farg'ona	Xorazm	Buhoro	Surxon-daryo
«Mavrigi» raqsi qaysi raqs maktabiga hos?	*Buxoro	Xorazm	Farg'ona	Surxon-daryo
«Menuet» qaysi raqs-lar turkumiga kiradi?	*Tarixiy-maishiy raqs-lar	Zamo-naviy raqs-lar	Xalq raqs-lari	Folklor raqs-lari
«Polonez» qaysi raqs-lar turkumiga kiradi?	*Tarixiy-maishiy raqs-lar	Zamo-naviy raqs-lar	Xalq raqs-lari	Folklor raqs-lari
«Galop» qaysi raqs-lar turkumiga kiradi?	*Tarixiy-maishiy raqs-lar	Zamo-naviy raqs-lar	Xalq raqs-lari	Folklor raqs-lari
Tarixiy-maishiy raqs-lar turkumiga kiruvchi raqs	*Fransuzcha vals	hip-hop	breyk	rok
«Fransuzcha vals» qaysi raqs-lar turkumi-ga kiradi?	*Tarixiy-maishiy raqs-lar	Zamo-naviy raqs-lar	Xalq raqs-lari	Folklor raqs-lari
Raqsni o'rgatish qaysi harakatdan boshlanadi?	*Musiqaga oyoqni tushirishdan	Qo'l harakati	Bosh holati	Gavda holati

SLAYDLAR


1-slayd



2-slayd




3-slayd




4-slayd

O'zbekiston Respublikasida xoreografiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tizimi




5-slayd

Baletmeysterning raqs ustida ishlash jarayoni




6-slayd

Baletmeysterning raqs sahnalashtirish jarayoni




7-slayd

Ommaviy tadbirni tayyorlovchi tashkiliy guruh



8-slayd

Raqs ijrochisiga musiqiy talablar





Xalq artisti Usta Olim Komilov



«Munojab» raqsi



«Tanovar» raqsi



Buxorocho raqs



Galiya Izmailova



Hindcha raqs



Pomircha raqs



Isohor Oqilov



Farg'onacha raqs



Ishor Oqilov qizlari bilan



Margarita Oqilova



Buxorocha raqs



Surxoncha raqs



Qoraqalpoq xalq raqsi



Belorus xalq raqsi



Ukrain xalq raqsi



Ozərbayjon xalq raqsi




Osetin xalq raqsi



Rus xalq raqsi



Tojik xalq raqsi



Turkman xalq raqsi



Uyg'ur xalq raqsi



Qirg'iz xalq raqsi



Tarihiy-maishiy raqs



Balet san'ati




Raqsdə pləstika









XULOSA

Raqsnı halqimiz o'zining eng sevgan san'at turi sifatida qabul qilishi – bu musiqa va tana harakatining mukammal va betakror sintezi tufaylidir.

Raqş san'ati – o'ziga xos mazmun va chuqur ma'noga egaligi bilan xalq qalbiga yaqindir. Ayniqsa, xalq raqslari orqali halqning tarixi, turmush tarzi, vodiy, voha va o'lkalariga hos ajib tarovati, mehnat jarayoni, yuksak madaniyati, insoniy fazilatları, ayol-qizlarning ibo-hayosi, yigitlar va erkaklarning kuch-qudrati, g'ururi, bolalarning sho'xligi, bayram va xursandchiliklari tarannum etilishi bilan birga, insonning qayg'u-alamli kunlari, dardu-firog'i tasvirlanadi. Inson hayotini, tabiatdagi voqealarni raqş san'ati orqali halqqa yetkazish uchun uning obrazlilikini ta'minlash lozim. Xoreografik obraz yaratishdagi eng muhim narsa, raqsdagi muayyan qahramonni ko'rsatishga yordam beruvchi harakatlarni tanlab olishdir. Gavda, oyoq, qo'l harakatlarining ma'nodorligi raqş mazmuniga mos bo'lishi kerak. Shu sababli har bir raqşni sahnalashtirishdan oldin aniq maqsadni ko'zlagan holda musiqa tanlanadi. Ustoz baletmeysterlar sahnalashtirgan raqşlarning xususiyati shundaki, yakka raqş yoki ommaviy raqşlarning yakka ijro etiladigan qismlariga raqqosalarni tanlashda ularning qobiliyati va imkoniyatini inobatga oladilar. Ularga xos xarakterli kuylarni sinchiklab tanlab, mos keladigan harakatlardan foydalanganlar. Ayniqsa, M.Turg'unboyeva Valefıtina Romanova uchun «Qo'g'irchoq» raqşini, Tamara Yunusova uchun «Bahor» raqşini, Seviliya Tanguriyeva uchun «Sho'x qiz»ni, Qunduz Mirkarimova uchun «G'ayratli qiz», «Doira raqşi»ni, Ma'mura Ergasheva uchun «Munojot» raqşini, O'g'iloy Muxamedova uchun qo'shig'i bilan ijro etilgan «Qizlar valsi»ni, Florida Nizamutdinova uchun «Uyg'urcha», «Pokistoncha», «Hindcha» raqşlarni sahnalashtirganda yuqorida keltirilgan talablarni inobatga olganlar. Ustozlar raqqosalardan aktyorlik mahoratini ishga solishni talab qilganlar. Bu raqşlarni ular zo'r mahorat, o'zgacha jo'shqinlik, nafosat va malohat bilan ijro etishganki, halqimiz qalbidan o'chmas iz qoldirdi va hozirgi kun raqş maktabiga asos bo'lgan an'analarni shakllantirdi.

Ushbu o'quv adabiyotda xoreografiya va raqs asoslari fanini o'qitish haqida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar berilgan. Unda fanni o'qitishning zamonaviy talab va ehtiyojlarining qisqacha sharhi, xoreografiya va raqs asoslari fanini o'qitishda innovatsiyalarning ahamiyati, vazifalari va maqsadi asoslab berilgan. Xoreografiya va raqs san'atining kino, teatr, estrada va ommaviy bayram tomoshalarida tadbiq etish masalalari, fanning yutuqlari bilan tanishtirish, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2010.
2. I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., 2008.
3. M.Abdullayeva. Aktyorlik mahorati asoslari. T., 2013.
4. J.Maxmudov. Aktyorlik mahorati. T., 2005.
5. J.Maxmudov, H.Maxmudova. Rejissura asoslari. T. 2008 y.
6. R.Karimova. «O'zbek raqslari». T.: «Cho'lpon» nashriyoti, 2003.
7. X.Xamidova, D.Sayfullayeva, S.Zokirova. «Merosiy raqs durdonalari». T.: «Cho'lpon», 2003.
8. D.Sayfullayeva, Z.Kazakbayeva. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. T.: «Vorisi» M.Ch.J., 2006.
9. R. Karimova, D.Sayfullayeva. O'zbek yakka ayollar raqsi. T.: «Cho'lpon», 2007.
10. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. T., 1988.
11. Avdeyeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. T., 2001.
12. Muhsin Qodirov. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasidan.
13. O.I.Shirokaya. Tamaraxonim. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
14. M.Axmedov. Isohor Oqilov. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1975.
15. N.Abraykulova. Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. T.: Xalq merosi nashriyoti, 2004.
16. H.Xursandov, SH.Qurbonova. Surxon raqs maktabi. T., 2011.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. NAZARIY QISM. XOREOGRAFIYA VA RAQS SAN'ATI ASOSLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR	
1.1. Xoreografiya – san'at sohasi sifatida.	6
1.2.Xoreografiya san'atining asoslari.	14
II BOB. AMALIY QISM. RAQS SAN'ATINI O'QITISHNING ASOSIY PREDMETLARI	
2.1. Klassika fani va uning mashqlari.....	46
2.2. Jahon xalq raqslari va uning mashqlari.....	50
2.3.Tarixiy-maishiy raqslar va uning mashqlari.....	52
2.4. O'zbek raqsi va uning mashqlari.....	54
2.5. Xalq raqslarini sahnalashtirish fanidan mashqlar.....	58
2.6.Obraz tushunchasi. Obraz ustida ishlash jarayoni.	58
2.7.Obraz yaratishda mavzu va musiqa san'atining o'rni.....	63
2.8.Raqs ustida ishlashning o'ziga xosligi.....	66
III BOB. RAQS SAN'ATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR	
3.1.Folklor-etnografik ansambllar ijodiy faoliyatida raqs san'atining o'rni.....	73
3.2.Ilg'or texnologiyalarning ilmiy va uslubiy yutuqlari va o'qitishning dolzarb masalalari	76
3.3.Xoreografiya va raqs asoslari fanini o'qitishning zamonaviy talablari.....	78
3.4.Xoreografiya va raqs san'ati ta'limida «Ustoz-shogird» an'analari.....	79
Glossariy	83
Talabalar bilimini sinash uchun test savollari	86
Slaydlar	103
Ilova. Rasmlar	107
Xulosa	119
Foydalanilgan adabiyotlar	121

E.Y.SAITOVA, N.E.ABRAYKULOVA

XOREOGRAFIYA VA RAQS SAN'ATI ASOSLARI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	M.Rustamov
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**E-mail: tipografyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 24.11.2015.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez UZ» garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,75. Nashriyot bosma tabog'i 8,0.
Tiraji 300. Buyurtma №177.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**